



UDK: 821.512.133.09(043.3)

Диана АБДУРАМАНОВА,
Старший преподаватель Чирчикского государственного педагогического университета
E-mail: diana1207saliyeva@gmail.com

В рецензии У.Н. Ходжамкулова, доцента Чирчикского государственного педагогического университета.

HARMONY OF PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF THE PERSON AND WRITER'S RECOGNITION

Annotation

This article analyzes the works of a number of representatives of world literature with the help of mutual comparison. At the same time, from a scientific point of view, the writer's worldview on his works, his mentality, faith, as well as the environment in which he lived are briefly considered.

Key words: Literature, genre, image, story, novel, psychology, writer, story.

ГАРМОНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ И ПИСАТЕЛЬСКОГО ПРИЗНАНИЯ

Аннотация

В данной статье анализируются произведения ряда представителей мировой литературы с помощью взаимного сопоставления. При этом с научной точки зрения кратко рассмотрено мировоззрение писателя на его произведения, его менталитет, вера, а также среда, в которой он жил.

Ключевые слова: Литература, жанр, образ, рассказ, роман, психология, писатель, повесть.

SHAXS PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI GARMONIYASI VA YOZUVCHILIK E'TIROFI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jahon adabiyotining qator namoyondalarining ijodi o'zaro qiyoslash asosida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, yozuvchining dunyoqarashi, tafakkuri, e'tiqodi, shuningdek, u yashagan muhitning uning asarlariga ta'siri qisqacha ilmiy nuqtai nazardan muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Adabiyot, janr, obraz, hikoya, roman, psixologiya, yozuvchi, hikoya.

Введение. В мировом литературоведении большинство литературоведов, занимавшихся поэтикой романного жанра, развивали проложенный Аристотелем путь анализа и построения и пытались определить различие между жанрами. Создание жанра отличного от другого жанра измеряется широкими и четкими границами эмоционального и интеллектуального мышления художника. Обращаем внимание: Творец вселенной – единственный Аллах. Он способен на любое чудо. Только мысль и здоровая вера, данная им, суждено возвысить писателя или поэта. Ведь под устойчивой и понятой философией – есть незримый путь, ведущий до определенного места. Название этому – приспособление человека к самопознанию. Человечество живет в соответствии с философией самопознания и доказательств на протяжении тысячелетий. Эти переживания всегда вызывают воодушевление от благоговения перед планетами, звездами, земными и небесными телами. В начале XX века они воспринимались в сердце этих пространств. В произведениях Франца Кафки, Джойса и Камю сделан вывод о том, что сила человека никогда не сможет противостоять проповеди одиночества. То, что познание высшей истины – это не закон людей XX века, а закон вечный и древний, было показано на фоне различных фрагментов. Именно на этом фронте человек еще больше убеждался в том, что он один. Естественно, что у всех разный уровень этой уверенности. Кто-то страдал по ребёнку, кто-то загнул на путь богатства и похоти, кто-то плакал из-за любви к родине и свободе. Неудивительно, что эти темы «захватили» внимание мировых романистов. Например, образ богатого и бедного человека, разлука юноши и девушки, крик отца или матери, поступки друга и врага сыграли свою роль в сущности эпоса, зародившегося из древнего авантюристического романа. Между тем романы с этим сюжетом позже узаконили массовую мобилизацию для развития

концепции диктатуры, рабства, немоты, изгнания, политической оппозиции и массового уничтожения. Неподчинившихся писателей стреляли, сажали в тюрьмы, ссылали и жестоко преследовали на родине. Категория персонажей, вошедших в эпос, стала основой для определения лейтмотивов романа.

Анализ литературы методология. В этом отношении проф. А. Расулов привел следующие комментарии: “Название художественного произведения является семиотическим ключом. Ключевым является четкое, лаконичное выражение концепции, определяющей суть произведения. Если выраженная концепция жизненна и полностью понятна, то подпись автора станет «беглой», а суть предложений и слов – полной. Понятие художественного произведения иногда называют весом предмета изображения. Вес предмета изображения помогает определить жанр. Жанры, в частности романы, рассказы, повести, часто определяются тенденцией акцентировать внимание на внешнем (поверхностном) весе. Однако вес предмета изображения не поддается определению по поверхностному размеру, объему. Рассказ «Судьба человека» писателя-классика XX века Михаила Шолохова, довольно большой по объему: по отношению к некоторым рассказам он украшен. Но М. Шолохов нарочито назвал это произведение рассказом и смотрел на ужасы войны через жизнь одного человека”[1]. В этом отрывке обращают на себя внимание две особенности: во-первых, семиотический ключ объединяет ячеики всего произведения и его реализация в авторской концепции естественна. Во-вторых, найти свой индивидуальный стиль и путь в испытаниях времени – это дар, который не достается каждому. Итак, в мировой литературной сокровищнице в периодах были также вереницы, переходящие из эпоса-в роман-из романа-в повесть. Оказалось, что изображение этих вопросов в мировых романах заслуживает высокой оценки.

Стереотипы никогда не оставались неизменными. Было многократно замечено, что в какой-то момент испытаний времени он был поглощен забвением. Усиление внимания к этому критерию оценки вытеснило скудость слов в романе и открыло широкий путь к углублению мышления и логики.

В этих сравнениях и наблюдениях мы сочли необходимым указать три вещи:

1. *Поэтический мир Льва Толстого;*
2. *Образ мышления Федора Достоевского;*
3. *Метафора Франца Кафки.*

Почему Лев Толстой, написавший «Исповедь» на закате своей жизни со словами «Что я ищу в жизни», вдруг изменил свой стиль или стиль мышления? Этот вопрос естественен. Во-вторых, Федор Достоевский, который всю свою жизнь пытался найти способ избежать бедности и болезней, пишет роман из четырех частей «Братья Карамазовы». Реализованная им философия жизни выдвигает мысль о том, что человек вырастает личностью и сам является причиной всего? Из этого видно, что Франц Кафка родился через два года после смерти Достоевского, прожившего 60 лет. Толстой покинул этот мир, когда Кафке было 27 лет. В результате этих сопоставлений мы считаем уместным сделать теоретико-научный вывод. Следует учитывать, что «общество, воспитывающее личность», играет роль в росте и изменении этапов человеческого мышления в любой период и при любых обстоятельствах. Толстой был писателем с чрезвычайно широким образным мышлением. Если он был озадачен одним вопросом, он основывал одну идею в своих эпосах или романах, или, если он хотел доказать, чему она служит, он испытывал своих персонажей в вихре глубоких рассуждений. Достоевский же пытался показать «кидею и логику» в отношениях между персонажами. Кафка считал необходимым добиться обоснования на основе искренности и недостатках, существующих в психике личности. Хотя эти трое впоследствии стали представителями совершенно разных миров, они доказали важность знания того, что вокруг бродит сила, ведущая к уничтожению человечества. Будь то война идей, столкновение личностей или конфликт интересов, они показали экзистенцию десятков образов. Итак, современный мыслящий человек еще не осознал, что мир Франца Кафки — это «серьезный путь» к самопознанию.

Так пишет Л. Толстой в своей «Исповеди»:

“Так я жил, предаваясь этому безумию ещё шесть лет, до моей женитьбы. В это время я поехал за границу. Жизнь в Европе и сближение моё с передовыми и учёными европейскими людьми утвердило меня ещё больше в той вере совершенствования вообще, которой я жил, потому что ту же самую веру я нашёл и у них. Вера эта приняла во мне ту обычную форму, которую она имеет у большинства образованных людей нашего времени. Вера эта выражалась словом “прогресс”. Тогда мне казалось, что этим словом выражается что-то. Я не понимал ещё того, что, мучимый, как всякий живой человек вопросами, как мне лучше жить, я, отвечая: жить сообразно с прогрессом, -- говорю совершенно то же, что скажет человек, несомый в лодке по волнам и по ветру, на главный и единственный для него вопрос: “куда держаться”, -- если он, не отвечая на вопрос, скажет: “нас несёт куда-то”[9].

Анализ и результаты. Этими комментариями граф Лев Толстой показывает себя с критикой. Самое главное, что нашел Толстой во время своего путешествия, это то, что он понимает прогресс не только в мышлении, но и в понимании, видении и взаимном литературном влиянии, в творческом поиске и в безграничной силе дарованного Творцом таланта, и в этом убеждает и

других. Особенно, мы можем свидетельствовать тому, что важность познания Творца и развития дара познания создавала единство в личности Толстого. Там, где прогресс во взаимной вере соединяется с путем духовного развития, личность писателя становится совершенной. «Тоска», просочившаяся из ума этих трех гениальных писателей, полностью подтверждает наши вышеприведенные комментарии. Толстой всегда уделяет внимание выражению «я живу ищу чего-то, но не знаю, что это такое» в своих многочисленных спорных разговорах и произведениях, то через речь героя, то через свою речь. В мире Достоевского эта острая мысль звучит словно голос, идущий из глубины веков, и превращается в глубокий смысл. Эти стороны поэтического мира Франца Кафки также по-разному обретают единство в его рассказах, эссе, повестях и романах. Мышление и образный стиль трех писателей-гигантов из мира материального в мир духовный, которые дополняют, дифференцируют и развивают друг друга - в конце концов, переходят в единое пространство. В этом пространстве они видят жизнь лучше. Затем они понимают, что из отношений людей сознательно и неосознанно создали философию жизни. Нетрудно понять большие жизненные формулы Достоевского, чьи дневники так же ярки, как у Толстого, Кафки. За 14 лет до своей смерти в 1867 году писатель, прибывая в Женеве, отправил письмо своему другу Майкову Аппалону Николаевичу (1821-1897) - поэту, переводчику и критику. В письме приводятся такие мудрые мысли:

“Некоторые аспекты, связанные с будущим произведением, тоже постепенно обретают форму и вдохновляют меня. Но вся работа остается отвлеченной. Герой тоже. Потому что мое художественное произведение обретает целостность только посредством героя. Это для меня обычно. Сначала мне нужно четко визуализировать персонажа. Во время написания произведения приобретает ли его персонаж безошибочный образ? Вы не поверите, при этом возникают неожиданные новые соображения: помимо главного героя, для работы необходима еще и главная героиня, сразу два главных Героя! Помимо этих двух героев есть еще два персонажа — их можно интерпретировать чуть ли не как главных героев. (Второстепенных персонажей тоже немало — ведь роман будет состоять из восьми частей). Из четырех персонажей - в моем сознании сложились два, один не до конца конкретизирован, а четвертый, то есть главный герой - еще очень слаб. Возможно, что он уже сформировался в глубине моего сознания, но мне трудно представить это ясно. В любом случае написание работы требуется как минимум две части времени[10].

Как мы видели, писатель постоянно думает о жизни и людях. Дается краткое объяснение произведений, которые будут написаны на основе этого продукта мыслей. Литературоведы признают, что все трое писателей, одаренные инстинктом писать всю жизнь, наполнили свою литературную сокровищницу бессмертными произведениями. Итак, писатель строит большие творческие планы. Характеры его героев, их соотношение с людьми в жизни, их заблуждения и глубокие страдания, слава и отвага, слабость и упрямство всегда не дают покоя. Если бы они были спокойны, то не написали бы сочинения, полного такого великого просвещения и такой философии. Именно эти аспекты обогащают духовный мир писателя, а также служат выработке в нем баланса роста и изменения. Важно отметить, что красочные произведения, созданные такими интеллектуалами, как Толстой, Достоевский, Джойс, Кафка и Камю, сегодняшние писатели не смогли бы радикально обновить архитектуру романизма, использовать до сих пор их приемы образности. В этом

признании есть большая логика. В художественном мире Франца Кафки необходимо наблюдать ту же ситуацию, в письмах, которые он посылал своим друзьям, братьям, отцу и возлюбленной, мы видим, что он находил созданных им персонажей в той среде, в которой жил, и что он всегда изо всех сил пытался найти ответы на бесчисленные и безграничные вопросы, стоявшие перед этой жизнью. В частности, письмо, которое он отправил своему отцу, позволяет ему полностью понять окружение того времени, в котором он жил:

“Я был робким ребенком, но, как и большинство детей, был упрямым; мама хвалила меня, я не мог поверить в эти похвалы из-за своей зрелости, да, еще меня невозможно было переубедить и привлечь на себя даже милым обращением, добрыми словами или благородными поступками. Ты по натуре благороден и мягкосердечен (это не отрицает следующего, а я хочу говорить только о том, как ты можешь повлиять на ребенка); но не всякий ребенок способен смотреть прямо на этот скрытый корень добра без терпения и страха. Вы так много работали, чтобы я был сильным и смелым подростком, но в соответствии со своим характером вы пытались добиться своей цели, используя злость, гнев, силу и крик, и о каких-либо других средствах воспитания вы не могли и думать, это же было противоположно ожидаемому результату”[3].

Рост и изменения в личности ребенка, выросшего с унынием «в сердце и глазах» с раннего детства, учат его жить с сопротивлением извне. Однако, как он сам признавался: его признание “в соответствии со своим характером вы пытались добиться своей цели, используя злость, гнев, силу и крик, и о каких-либо других средствах воспитания вы не могли и думать, это же было

противоположно ожидаемому результату” разбило бы всю его кафканскую веру на тысячу осколков. Какой был ожидаемый результат – в характере Франца Кафки? Вот вопрос, над которым вот уже 100 лет размышляют литературоведы. И так, Кафка создал свой собственный мир. Там он развил свою личность. Там он обманывался, верил и пережил много неудач. Это внутреннее горе заставило Кафку заболеть разумом и телом. Мог ли он жить, как другие? Нет, тогда Кафки не могло быть. Он исчез бы со страниц истории без имени, как сотни его ровесников и друзей. Эти уровни понимания создали основу для мощного умственного и научного мыслительного потенциала романистов XX века, который распространился по земле подобно свету. единство духа и материи не приносило ничего, кроме страданий, владельцам тела, которое всегда жестоко били, как и у Кафки. Вы можете увидеть это в каждой из его работ, как на картине.

Заключение. Вывод таков, что вопрос недовольства познанием жизни в личности трех великих писателей кажется чудом. Если бы они могли охотно выполнить возложенную на них задачу даже в этом случае. Они не хотели следовать жестоким законам, начертанным обществом. Путешествия и постоянная неудовлетворенность видны в их личности, в их сожалениях по жизни, в их честности и невезении. В сотнях разброшенных страниц любому человеку нетрудно узнать, что это был за человек, на что был способен и в чем был слаб. Для этого необходимо иметь глубокий подход к психике и понимать установки, к которым они стремятся.

ЛИТЕРАТУРА

1. Расулов А. Искусство – это чистая инновация. –Т., Восток. 2007. –С.52.
2. Куронов Д. Некоторые комментарии о романе // Звезда Востока.- 2011.- №5.
3. Франц Кафка. Письмо отцу. –Т., Восток. 2015. –С.374.
4. Бахтин М. Формы времени и хронотопа в романе. –Т., Академнашр. 2015.
5. Норматов У. Избранные произведения. –Т., Восток. 2021.
6. Холбеков М. Описание модернизма в художественной литературе //Молодость. 2011, №3.
7. https://ru.wikipedia.org/wiki/Трактат_о_возникновении_романов.
8. <https://www.livelib.ru/book/1000327591-epos-i-roman-sbornik-mihail-bahtin>.
9. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/lev-tolstoy-iqromnoma.html> .
10. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/fyodor-dostoevskiy/fjodor-dostoevskij-maktublar/>.



УДК:654.19:808(091)(575.1)

Perxan ALLAMBERGENOVA,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
E-mail:musa20060411@gmail.com

f.f.d.professor v.b. Z.Orazimbetova taqrizi asosida

THE SPECIFICS OF THE ESSAY GENRE

Annotation

This article discusses the scientific definitions and classifications of the essay genre in the theory of journalism. Also, on the example of a TV show, the manifestation of the essay genre on television is analyzed.

Key words: Genre, journalism, portrait essay, travel essay, problematic essay.

СПЕЦИФИКА ЖАНРА ОЧЕРКА

Аннотация

В данной статье рассматриваются научные определения и классификации жанра очерке в теории журналистики. Также на примере телепередачи анализируется проявление жанра очерке на телевидении.

Ключевые слова: Жанр, публицистика, портрет очерк, путевой очерк, проблемный очерк.

OCHERK JANRINING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada jurnalistika nazariyasida ocherk janriga berilgan ilmiy ta'riflar va ocherk janrining tasniflari o'rganilgan. Shuningdek, ocherk janrining televideniyada namoyon bo'lishi teleko'rsatuvlar misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Janr, publitsistika, portret ocherki, yo'l ocherk, muammoli ocherk.

Kirish. Bugun davr har bir jurnalistdan qiziqarli va dolzarb yangiliklarni, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan mavzularni topishi, voqea-hodisalarni yoritishda chuqur fikrlashni, yangicha yondashuvni talab qiladi. U qanday mavzu, qaysi janrda aks etmasin jurnalistdan nozik did va mahorat bilan tasvirlanishi lozim. Xuddi shunday ocherkda tasvirlanayotgan voqea, fakt yoki muammo jamiyatimizning hayoti uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Albatta, bundan maqsad yangilikka, voqea-hodisaga nisbatan jamoatchilik fikrini uyg'ota olish lozim. Mutaxassislar e'tiroficha, "Ocherk – badiiy publitsistikaning tasviriy vositalari va ifodalash imkoniyatlari jihatidan eng boy bo'lgan muhim janri. Ocherk – badiiy telepublitsistikaning yadrosini tashkil etadi"[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ocherk, asosan, mantiqiy muhokamalar, tushunchalar, shuningdek, badiiy obrazlar uyg'unligida yaratilib, muhim, dolzarb ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqadigan, ko'p hollarda hayotiy voqea, hujjatlar asosida qurilib, aniq qahramon, personajlar xarakteri chizgilarini ko'rsatadigan nasriy publitsistik asardir. "Ocherk" atamasi G'arb adabiyotida deyarli uchramaydi, biz bilgan, "sof" ocherk u erda yo'q. G'arbda "skitse", "esse" terminlari, ruknlar ostida beriladigan asarlarga ocherk xususiyatlari ko'proq xos[2].

Xo'sh, ocherkning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Ocherkning o'ziga xosligi – bir vaqtning o'zida shaxs obrazi va tipik obraz, xujjatlilik va badiylik birlashadi; ijtimoiy shaxsning intilishlari orqali aniq voqelik – haqiqiy muammo aks ettiriladi[3]. Aslida, ocherk janri adabiyotda ham A.Tertichniy esa qo'yidagicha tasniflaydi[7]:

bor. Ammo televideniedagi ocherk janrida obraz yoki muammo hujjatlilik, badiylik negizida tasvirlar bilan uzatiladi. Negaki, televidenieda tasvir birlamchi omildir.

Ocherk obyekti asosan, inson. Chunki unda insonning dunyosi, ya'ni, xarakteri, ma'naviyati, madaniyati, qiyofasi ochib beriladi. Albatta, bunda muallif badiylik va publitsistikaga murojaat qiladi.

"Ocherk qahramonlarining o'y-fikrlari, rejaları, hayotida ro'y bergan qiziqarli voqealar ocherkda badiiy usullar orqali singdiriladi"[4].

Ocherk bir necha janrlarning omuxtalashuvini o'zida mujassam etgan sintetik janrdir. Bu haqda E.P. Proxorov uchta janr – reportaj, ocherk va maqolaga xos jihatlari birlashishini ta'kidlaydi[5].

"Ocherk muallifdan yuqori darajadagi professional mahoratni talab qiladi. Agar reportajda hodisa va voqealar tarixi desak, ocherkni inson xarakterining tarixi deb atashimiz mumkin"[6], deydi olima Z.Qo'jiqbaeva. Bu jarayon televideniening birlamchi xususiyatlari tasvir, ovoz va matn orqali ochib beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jurnalistika nazariyasida ocherkning turlicha tasnifi mavjud. Masalan, G.S.Melnik va A.N. Teplyashinalar portret, yubiley portret va yo'l ocherkini tilga oladi. Shu bilan birga amaliyotda manzilli (hujjatli, publitsistik) va manzilsiz (badiiy, badiiy - publitsistik) ocherklar mavjudligini, ular bir-biridan faktlarni tanlash, ifodalash, tasvirlash va tipiklashtirish usullari bilan farqlanishini ta'kidlaydi[3].

Javdal-1

Badiiy-tasvirli	muallif hodisa bo'yicha tasavvurlari, eshitganlari, ko'rganlari haqida yozadi	yo'l ocherki
		esse
		lavha
Badiiy-publitsistik	ob'ekt sifatida inson tavsirlanadi	portret ocherki
Tadqiqot ocherki	asosiy e'tibor muhim ijtimoiy muammoga qaratiladi	muammoli
		tadqiqot ocherki
		publitsistik ocherklar

O'z navbatida bu janrlar yana bir necha turlarga bo'lingan:

Jadval-2

Yo'l ocherki	Yo'l ocherki
	Ocherk lavha
Portret ocherki	Biografik ocherk
	Yubiley portret ocherki
Tadqiqot ocherki	Sud ocherki
	Surishtiruv ocherki

Nazdimizda A.Terichniy janrlar tasnifida biroq maydalashgan. Masalan, biografik ocherk bilan yubiley portret ocherki sifatidagi tasnifga qo'shilmaymiz. Negaki, har ikkalasining obyekti – inson. Inson shaxsini portretini ochishda har ikkalasida ham biografik ma'lumotlar beriladi, oilasidan, lozim bo'lsa ishxonasidan tasvirlar bilan boyitiladi, yaqinlari suhbatga chorlanadi. Demak, har ikkalasida obyekt bir, yondoshuv bir xil. Shuning uchun portret ocherk deb olingani maqsadga muvofiqdir. Yoki bo'lmasa tadqiqot ocherklari sifatida sud ocherki va surishtiruv ocherki ko'rsatilgan. Jurnalistika nazariyasida surishtiruv janri mavjud. Amaliyotda esa, ushbu surishtiruv janrida asosan, “bir jinoyatdan” surishtiruv olib borilyapti. Ularning obyekti va yondoshuv usullari deyarli bir-biriga juda yaqin. Shuning uchun umumiy tarzda sud ocherki deb olingani ma'qul degan fikrdamiz.

Qoraqalpog'istonli olim Z.Qo'jiqbaeva esa o'z tasnifida adresli, portret, siyosiy va yo'l ocherklar[6] ni taqdim etgan.

Olim Yusuf Hamdamov esa voqea ocherkiga alohida to'xtaladi: “voqea ocherki, bizningcha, jurnalistdan ikki jihatni talab qiladi. Ya'ni, muallif: 1) zamon va makon jihatidan cheklangan biror-bir muhim voqea tasviri, 2) hayotida ana shunday voqea sodir bo'lgan odam shaxsining tasvirini birlashtiradi”[8]. Biz mazkur maqolamizda, ocherk janrini tasniflashda chuqur maydalashmasdan portret ocherki, yo'l ocherki, sud ocherki va muammoli ocherk turlarini tavsifiya qilamiz.

Albatta, har bir olim tasniflarida amaliy tahlildan kelib chiqib yondoshgan degan fikrdamiz.

Tahlil va natijalar. Xo'sh, tasniflardagi ocherklarning qaysi biri tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Qoraqalpog'iston telekanallarida namoyon bo'lmoqda?

Ocherkdagi badiiylik va publitsistika yaxlitligi “Sovremennaya jurnalistika” kitobida ham yaqqol ko'rsatib berilgan. “Badiiy va publitsistik elementlar uyg'unligi obrazlar yaratilishida, dolzarb muammoni qo'yishda va uni o'rganishda o'z aksini topadi. Ko'p hollarda ocherknavislar bayonning ravonligi va ketma-ketligidan voz kechib, publitsistikaga murojaat etishadi, o'shanda asarning kompozitsiyasini voqealar rivoji emas, balki muallifning fikrlash mantig'i belgilaydi”[9].-deyiladi kitobda. Qoraqalpog'iston telekrani orqali namoyish etilgan ocherklarda ham ushbu qonuniyatga rioya qilinadi.

Bugungi kun avlodlariga tarixiy shaxslarni, ilm-fan taraqqiyotiga mehnati singan olimlarni tanishtirib borish – OAV, jumladan, televideniening muhim vazifalaridan biri. Bu ko'proq portret ocherklarida yoritib boriladi. “Portret ocherkida asosan, bir kishining hayoti, taqdiri markaziy o'rin tutadi. Boshqa personajlar qahramon obrazini ochishga xizmat qiluvchi vosita rolini bajaradi. Ocherkda qahramon ko'proq ijtimoiy mehnat faoliyati orqali ifodalanadi”[10]. Albatta, unda arxiv materiallaridan foydalaniladi, qahramon bilan birga ishlagan zamondoshlarining fikrlari va sahna asarlaridan parchalar beriladi.

Ma'lumotlarga qaraganda, 1970-yillar o'rtalarida “O'lkamizning ajoyib odamlari” kabi teleocherklar Qoraqalpog'iston televideniyesi orqali efgira uzatildi. Unda O.Xalmuratov, R.Saparov, K.I. Shaklin, N.A.Shaydakov, M.Jumanazarov, U.Tatiboev, M.Mao'lenov kabi taniqli insonlar haqida hikoya qilindi”[11]. Agar Qoraqalpog'iston

televideniyesi 1964-yil tashkil etilganligini inobatga olsak, televidenie o'z faoliyatini boshlagan dastlabki yillardanoq ocherk janriga mansub ko'rsatuvlar namoyish etgan.

Keyinchalik “Davr qahramonlari” ko'rsatuvlari uzatila boshladi. Nodavlat telekanallardan Amudaryo tumani “ATV” telekanalining “Odamlar orasida” turkum teleocherki tomoshabinlar e'tiboriga qilinib kelinmoqda.

Mazkur portret ocherklarda inson ichki dunyosi, xarakteri, xislatlari ochiq-oydin aks ettirilgan. Portret ocherkida insonning ruhiyatiga, ma'naviyatiga muhim badiiy uslub sifatida qaraladi.

Yubiley portret ocherki hududiy telekanallar ko'p uchraydigan janrlarning biri. Unda madaniyat, san'at, adabiyot, fan va boshqa sohalarining mashhur arboblari yubileylari munosabati bilan tayyorlanadigan ko'rsatuvlardir. Albatta, insonning jamiyat hayotiga qo'shgan ijobiy hissasini aks ettirishda ijodkordan alohida mahorat talab etiladi. Yubiley inson taqdiri, hayot yo'lidagi o'ziga xosliklar haqida o'ylash uchun turki bo'lishi kerak, xolos. Masalan, shunday ko'rsatuvlarning biri O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibrayim Yusupovning 80 yilligi munosabati bilan tayyorlanib, muxlislar e'tiboriga havola qilindi. Yubiley portret ocherkini nafaqat Qoraqalpog'iston yoki O'zbekiston balki, Markaziy Osiyo davlatlariga xos janr deb baholash mumkin.

Qoraqalpog'iston televideniyesi faoliyatida teleocherklarning boshqa turlari ham mavjud. Shulardan biri *yo'l ocherki* bo'lib, “muallifning qishloqlar, shaharlar va mamlakatlararo safar paytida yig'ilgan mushohada va mulohazalari, o'rgangan va eshitganlarining badiiy-publitsistik ifodasi”dan iboratdir[10]. Bunga “Aholing qalay ovuldo?” ko'rsatuvlari misol bo'la oladi. Unda jurnalist yo'l-yo'lakay kuzatishlarini birin ketin tasvirlaydi. Tabiatning, atrof-muhitning tarofatini, atmosferasini tasvirlab bera oladi.

Ushbu janrning yana bir xususiyati shundaki, safar davomida kuzatilgan ijtimoiy qimmatga ega materiallar ma'lum bir mantiq, g'oyaviy maqsad asosida saralanib, tipiklashtirib beriladi. Natijada ko'rsatuv ancha jonli chiqadi. Eng muhimi, unda publitsistik ruh bor, chunki jurnalist ocherk janriga mos keladigan usullarni tanlay olgan. Shuning uchun ham ko'rsatuv tomoshabinda yaxshi taassurot qoldiradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yo'l ocherki bir tomondan jurnalistdan katta tajriba talab qilsa ikkinchi tomondan dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga jurnalistdan har kuni muntazam ravishda o'z kuzatishlarini yozib borishini talab qilinadi.

Muallif ijodiy safarga chiqishdan ancha oldin maqsadi, g'oyasiga e'tibor bergan holda o'ziga xos, qiziqarli jarayonlarni tanlab, rejalashtirishi yaxshi samara beradi. Jurnalistning oldingi shaxsiy kuzatishlari yoki OAVdagi yangi ma'lumotlar dastlabki yo'nalish sifatida xizmat qilishi mumkin. Muallifning sayohat davomida to'plangan barcha fakt va taassurotlari ko'rsatuvning asosini belgilaydi[3].

Yo'l ocherkining asosiy xususiyati safar davomida ko'rilgan, kuzatilgan voqealar, odamlar bilan muloqotdan olingan taassurotlar, ko'ngilda kechgan his-tuyg'u, fikr-mulohazalar, muammolar bayoni, tasviridan iborat. Yo'l ocherkida muallif niyati, safar yo'nalishi ko'pincha oldindan belgilab olinadi, bu narsa asar kompozitsiyasi, yozish manerasida tili, uslubida o'z izini qoldiradi. Tabiiylik, samimiylilik, haqqoniylik, xolislik bilan bitilgan, o'nlab

voqealar, detallar ichida eng arzirli, diqqatga sazovorlarini tanlab olib ko'rsatish yo'l ocherkiga qo'yiladigan talablar ichida eng muhimlaridir[2]. Qoraqalpog'iston televideniesida namoyish etilgan "Ahvoling qalay ovuldosh?" ko'rsatuvining ayrim sonlari yo'l ocherkining unsurlarini o'zida mujassam etgan.

Ocherkning yana bir turi muammoli ocherkdir. Bu haqda ocherknavis O.Tog'ayev: "Muhim siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy muammolar: kishilar obrazlari, obrazli publitsistik vositalar orqali maxsus tadqiq etilgan ocherklar muammoli ocherk deyiladi"[10],-desa, V.Voroshilov: "Muammoli ocherkda inson guyo ikkinchi planda bo'lib qoladi, muallif eng avvalo, muhim muammoni barcha aniq botiniy ko'rinishlarida, ayrim kishilar va jamoalarning xatti-harakatlarida tahlil qiladi. Ko'plab faktlarni idrok qilish, har xil materiallar sintezi publitsistga dolzarb masalalarda keng ko'lamli fikr yuritish imkonini beradi"[12],-deydi. Masalan, Qoraqalpog'iston televideniesi orqali namoyish etilgan "Insan ham tabiyat" ko'rsatuvining bir necha sonlarida aynan muammoli masalalar ko'tarilgan. Mazkur ko'rsatuvlarning birida Amudaryoning quyar eridagi ko'llarning ahamiyati, bugun qancha gektar maydonda tabiiy ko'llar, suv saqlag'ichlari mavjudligi ta'kidlanishi bilan birga, mavjud muammolar ham tilga olinadi. "Mo'ynoqdan Uchsoygacha oraliqdagi posyolkalar bilan ovullarning ayrim fuqarolari shartnoma asosida baliq ovlash bilan shug'ullanyapti. Lekin ko'ldagi suvning miqdori borgan sari kamayib bormoqda. Ayni paytda ko'lning o'rtacha chuqurligi 1 metrdan oshmaydi. Shuning uchun kemalarda suzib yurish xavfli bo'lgan ko'lda baliqchilar rezina etiklar bilan suvda yurib baliq ovlashmoqda

(tasvirida rezina etiklarni kiyib kema tortib kelyatgan baliqchilar). Ko'lning suvi kamaygani sayin suvning sho'rluk darajasi ortib, qop-qora rangga kirib ifloslanib bormoqda. Ko'llarni qalin muz qoplasa mavjud baliqlar nobut bo'lish xtimoli mavjud. Hozirning o'zida ayrim joylarda baliqlarning nobut bo'lib, suv yuziga qalqib chiqishi kuzatilmoqda",-deya hududda yuzaga kelayotgan muammolar ro'y-rost tilga olingan. Mazkur ko'rsatuvda Mo'ynoq tumanidagi yana bir muammo "Mo'ynoq tomonga yilning qaysi faslida kelsangiz ham qamishzorliklarning nazoratsiz yoqib yuborilayotganining guvohi bo'lasiz",-deydi. Ektranda esa fikrini tasdiqlovchi yondirilayotgan qamishzorlik tasvirlari berilgan. Demak, muammoli ocherkda muammolarini dadil o'rtaga qo'yishi, konkret voqea asoslanishi va hayotiyliigi o'z aksini topgan.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, Qoraqalpog'iston televideniylarida ocherk janridagi ko'rsatuvlar jurnalistik, publitsistik va badiiy-estetik saviyada namoyish etilmoqda. Bevosita ocherk janrining tasnifiga kelsak, biz portret ocherki, yo'l ocherki, sud ocherki va muammoli ocherklarni ocherkning asosiy turlari sifatida qabul qilamiz. Ocherkning aynan shu turlari amaliyotda ko'proq kuzatiladi.

Bugun auditoriya didi juda noziklashib qolgan. Vaqtini ko'p oluvchi, biron shaxsni ortiqcha maqtab ko'klarga ko'tarilgan dasturlarni tomosha qilishni yoqtirmaydi. Ammo o'ziga xos yonduvlar bilan tomoshabinni jalb qilish lozim. Bunda obraz, manzara, tasvir, jozibali til imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Кузнецов Г.В., Цвик В.Л., Юровский А.Я. Телевизионная журналистика. –М.: МГУ, 1998. С.201. –288.
2. Қосимова Н., Тошпўлатова Н., Шофайзиева Н., Муратова Н. Босма ОАВ тахририятлари учун ўқув қўлланма. Т.2008 Б.36-38. –78.
3. Мельник Г.С. ва Тепляшина А.Н. Основы творческой деятельности журналиста. СПб: Питер. 2004. С.145-148. – 272.
4. Ҳамдамов Ю. Тараққиёт мезони. Т.: О'zbekiston.2013. Б.111. –216.
5. Прохоров Е.П. Искусство публицистики. М., 1984. С. –315.
6. Qo'jiqbaeva Z. Vaspa so'z: janrlar, maket,dizayn. N.: Qaraqalpaqstan. 2011. Б.26. –56.
7. Тертыйный А. Жанры современной журналистики. СПб.: Изд-воМихайлова В.А., 2004. С.204-224. –336.
8. Ҳамдамов Ю. Замон ва мезон. Т.:Ўзбекистон. 1991. Б.18. –
9. Современная журналистика. Рук. проекта: д.и.н. Ирназаров К.Т., авторы: проф., д.и.н. Нестеренко Ф.П., д.и.н. Ирназаров К.Т., к.ф.н. Маматова Я.М. Т.: Zarqalam. С.213. –245.
10. Тоғаев О. Публицистика жанрлари. Т.:Ўқитувчи. 1976. Б.93. ҚР Телерадиокомпанияси архиви, 1970-йил март-апрель ойлари, 1972-йил август-ноябрь, 1974-йил март-октябрь ойлари.
11. Ворошилов В.В. Журналистика. М.: Михайлова В.А. 2000. С-67-68. –174.



Temur BOBOYEV,
O'zDJTU doktranti

Qarshi davlat universiteti v.b dotsenti, (PhD) M. B.Nizomova taqrizi asosida.

XALQ OG'ZAKI SHE'RIY IJODI UMUMINSONIY VA MILLIY-MADANIY HODISA SIFATIDA

Annotatsiya

O'zbek xalqining asrlar davomida yaratgan og'zaki so'z san'ati namunalari milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir xalqning asrlar idealini aks ettiruvchi og'zaki ijodi bo'lganidek, o'zbek xalqi ham qadimiy tarixga boy va rang-barang og'zaki adabiyot durdonalariga ega bo'lgan xalqlardan biridir. Xalq ommasi tomonidan yaratilib xalqning talantli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, olqish va duolar, topishmoq va qo'shiqlar, latifa va naqlar, ertak va dostonlar o'zbek xalq og'zaki ijodini tashkil qiladi. Yuksak nafosat va mangu hikmat xazinasi bo'lgan ana shu asarlarda ajdodlarimizning urf-odatlarini va an'analari, odob-axloqi va madaniyati, tarixi va milliy qadriyatlarini, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, badiiy-falsafiy va diniy qarashlari o'zining yorqin ifodasini topgan. Xalq yaratgan asarlar o'z navbatida qadimgi o'zbek xalqining e'tiqodi va dunyoqarashini o'rganishda, folklor namunalari ilgari surilgan ilg'or g'oyalar, umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni bilib olishda asl manba bo'lib ham xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Xalq og'zaki ijodi, asarlar, urf-odatlarini, an'analari, odob-axloqi, madaniyat, tarixi va milliy qadriyatlar, afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, olqish va duolar, topishmoq va qo'shiqlar.

FOLK POETRY AS A UNIVERSAL AND NATIONAL-CULTURAL PHENOMENON

Annotation

The examples of spoken word art created by the Uzbek people over the centuries are a component of our national culture. Just as every nation has its oral creations that reflect the ideals of the ages, the Uzbek nation is one of the nations with rich ancient history and colorful masterpieces of oral literature. Legends and legends, proverbs and sayings, applause and prayers, riddles and songs, anecdotes and stories, fairy tales and epics, which are created by the public and passed down from generation to generation by talented representatives of the people, are Uzbek folk tales. organizes his work. The customs and traditions, manners and culture, history and national values, social-political, legal, artistic-philosophical and religious views of our ancestors were vividly expressed in these works, which are a treasure of high sophistication and eternal wisdom. The works created by the people, in turn, serve as the original source for studying the beliefs and worldview of the ancient Uzbek people, for learning about the advanced ideas and values of universal importance put forward in the examples of folklore.

Key words: Folklore, works, customs, traditions, manners, culture, history and national values, legends and narratives, proverbs and sayings, applause and prayers, riddles and songs.

НАРОДНАЯ ПОЭЗИЯ КАК УНИВЕРСАЛЬНОЕ И НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЕ ЯВЛЕНИЕ

Аннотация

Образцы устного искусства, созданные узбекским народом на протяжении веков, являются составной частью нашей национальной культуры. Как у каждого народа есть свои устные произведения, отражающие идеалы веков, так и узбекский народ является одним из народов с богатой древней историей и красочными шедеврами устной литературы. Легенды и предания, пословицы и поговорки, аплудисменты и молитвы, загадки и песни, анекдоты и рассказы, сказки и былины, которые создаются народом и передаются из поколения в поколение талантливыми представителями народа, - это узбекские народные сказки. организует его работу. Обычаи и традиции, нравы и культура, история и национальные ценности, общественно-политические, правовые, художественно-философские и религиозные воззрения наших предков нашли яркое выражение в этих произведениях, являющихся сокровищем высокой изысканности и вечной мудрости. Произведения, созданные народом, в свою очередь, служат первоисточником для изучения верований и мировоззрения древнего узбекского народа, для ознакомления с передовыми идеями и ценностями общечеловеческого значения, выдвинутыми на примерах фольклора.

Ключевые слова: Фольклор, произведения, обычаи, традиции, нравы, культура, история и национальные ценности, легенды и сказания, пословицы и поговорки, аплудисменты и молитвы, загадки и песни.

Kirish. Til semiotik sistema sifatida baholansa-da, uning bosh maqsadi ma'lumot yetkazish va muloqot qilish sanaladi. Aynan muloqot kishilar o'rtasidagi munosobatni ta'minlovchi, jamiyatni faollashtiruvchi vosita sifatida amal qiladi[6]. Og'zaki adabiyot, xalq og'zaki badiiy ijodi yoki «folklor» deb yuritiladi. «Folklor» termini birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo'llangan bo'lib, inglizcha folk – xalq, lore – bilim, donolik degan ma'nolarni bildiradi. Folklor – sinkretik xususiyatga ega bo'lib, xilma-xil san'at turlariga xos elementlarni o'ziga mujassamlashtirgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Uning ba'zi namunalari so'z va kuy uyg'unligida ijro etiladi. Doston va termalarni do'mbira jo'rligida kuylash an'anviy bo'lsa,

qo'shiq dutor va childirma jo'rligida kuylanadi. Xalq og'zaki ijodi asrlar mobaynida tarixning yo'ldoshi, uning aks sadosi bo'lib kelgan. Xalq turmushi, hayot tarzi, ruhiy dunyosining oynasi hisoblangan folklor asarlari yillar bo'yi to'plangan ijodiy tajribalardan iborat badiiy-estetik qadriyatlardan biridir. An'anaviy dostonlarning qahramonlari ko'pincha g'ayritabiiy tug'ilishlari, cheksiz kuch-qudratga ega ekanliklari bilan ajralib turadilar. Xalq orzu-umidi va intilishlarini ifodalovchi bunday ideal qahramonlarga adolat va haqiqatni qaror toptirishda ilohiy homiylar (Hazrati Xizr, qirq chilton, Hazrati Ali, Bobo Qambar va hokazo) ruhiy madadkorlik qiladilar. Folklor asarlarini o'rganish va tartibga solish orqali xalq turmushi, orzu-istaklari haqida ma'lumotlar olish bilan bir qatorda badiiy fikr ibtidosi va uning rivojlanish qonuniyatlari,

taraqqiyot bosqichlari, hayot hodisalarini badiiy tasvir obyekt sifatida his etish an'anasi estetik omillari, xalqona poetik fikr tavsifiga oid qimmatli ilmiy kuzatishlar olib borish mumkin. She'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy nomi haqli ravishda jahon adabiyotining eng buyuk siymolari qatorida faxr bilan tilga olinadi. Eng avvalo, Navoiyning favqulodda nodir iste'dodi va ulkan ijodiyoti, hazrat Jomiy va Bobur ta'biri bilan aytganda, ko'p va xo'b (yaxshi) yozganligi shoirni beqiyos ulug'lik martabasiga ko'tardi. Zotan, shoirning o'zi ham bir faxriyasida buhaqiqatni shunday e'tirof etgan:

Falak ko'rmadi men kibi nodire, Nizomiy kibi nazm aro qodire

Tadqiqot metodologiyasi. Xalq chevar. Chevar xalq asrlar mobaynida rang - barang mavzularda ertak, doston, tez aytish, maqol, matal, alla - qo'shiq to'qib keladi. Boshqacha ibora bilan aytganda, ijodkor xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonlardayoq ishongan. Chevar xalq o'zining eng noyob asarlarini so'z mo'jizasi bilan bunyodga keltirgan. Ko'rinadiki, badiiy so'z xalqning barcha madaniy boyliklarini abadiylashtirgan. Hali yozuv, chizuv nima ekanligini bilmagan vaqtlarda ham odamlar o'yin-kulgini, rasm chizishni bilgan. Chaqaloqqa alla aytish keng tus olgan. Har bir olamga kelgan bola ona allasini, bobo, buvilarning qo'shiqlarini tinglab o'sgan. Xalq dostonlaridagi qahramonlarning safar oldidan ot egarlashi, otonadan oq fотиha olishi, qahramon va otning uzoq safar yo'lidagi holati, poygada qatnashishi, dushman bilan jang olib borishi kabi lavhalar asardan asarga, ijrodan ijroga (kichik o'zgarishlar bilan) ko'chib yuruvchi barqaror an'anaviy shakllar hisoblanadi. Xalq dostonlaridagi mana shunday o'ziga xos xususiyatlar haqida professor T.Mirzayev, S.Mirzayeva kabi folklorshunoslar maxsus tadqiqotlar yaratganlar. Masalan: Ot egarlash an'anasi mohiyat e'tibori bilan o'zbek romanik dostonlarida deyarli bir xil xarakterga ega. Odatda jangovar ot egarlanib bo'lgach, qahramon unga murojaat qilib, o'zining sog'-omonligi, shu jonivorga bog'liqligini aytib, undan o'z maqsadiga ildam yetkazishni so'rab, murojaat qiladi. Ushbu murojaat ba'zan biroq shakliy o'zgarishlar bilan barcha baxshilarda bir xil qo'llaniladi. Masalan, «Dalli» dostonida Hasanxon G'irotni uyini ko'rsatishga da'vat etar ekan, undan madad so'rab shunday murojaat qiladi:

Otim G'irotni, jonim G'irotni, Yeming kishmish, to'rvang banot, Seni mingan topar murod, Qo'ltig'ingda yashil qanot. Qoyil qilgin xonning qizini, Hammani o'zingga qarat. (B.T., 2-tom, 106-bet)

Tahlil va natijalar. Mashhur folklorshunos olim G'ani Jahongirov ta'kidlab aytganidek, - onaning bola bilan bo'lgan muloqatidan boshlangan lirik hislar, shoirona lavhalar bola o'sgani sari o'sadi, kengayadi, turlarga ajraladi. Allalagan ona - ijodining poeziya yaratish jarayoni o'ziga xos - u beshik ustida bugun aytgan so'zlarini ertaga bo'lakcha qilib ta'riflaydi, nimanidir o'zidan qo'shib, kechagini bugun boyitibroq aytadi. Shu yo'sinda allalar, ermaklar, ertaklar, qo'shiqlar, termalar, topishmoqlar, xullas, kichik irmoqlar yig'ilib daryo hosil qilganidek, jajjilarga aytilgan butun boshli katta og'zaki adabiyot - bolalar folklori paydo bo'ladi. Bu janr so'zi, kuyi, ritmi, dinamikasi, obrazlilik bilan mutlaqo original bo'lib, u faqat bolaga - bolaning tinglashiga, aytib, yurishiga, o'yiniga, qo'shig'iga moslashgan. Bolalar folklori bola uchun ilk tarbiya darsligi, ma'naviy boyliklarning bitmas - tunganmas xazinasidir. Bolaga atab yaratilgan og'zaki poeziya xalqning ming yillar mobaynida yosh avlodni tarbiyalashda xizmat qilib kelgan buyuk pedagogik merosdir.

Tahlil va natijalar. Maqol qadimdan xalq donishmandligi, aql-zakovatining ifodasi sifatida yuzaga kelgan. Maqollarni «Hayot qomusi», o'ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular kishilarning aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi, turmushning jamiki

katta-kichik masalalari xususida qimmatli maslahatlar beradi: Onasi maqtagan qizni olma, Yangasi maqtagan qizdan qolma. Birni kessang, o'nni ek. Darding bo'lsa bo'lsin, qarzing bo'lmasin. Mehnatdan qo'rqma, minnatdan qo'rq. Ogohlantiradi: Birovga kulmagin zinhor, Senga ham kulguvchilar bor. Shoshgan qiz erga yolchimas. Birovga choh qazisang, o'zing yiqilasan. Ko'ramizki, maqollarda chuqur mazmun, xalq donoligi, uzoq asrlik turmush tajribasi, tabiat va jamiyat hodisalari, insonlarga xos xattiharakatlar va ularning oqibatlarini haqidagi bahosi, xulosasi, hayot falsafasi mujassamlashtirgan. Turli xalqlar og'zaki ijodidagi maqollarni o'rganish bu janr namunalari mazmunan deyarli hamma xalqlarda bir xil takrorlanishini ko'rsatmoqda. Ammo bunday yaqinlikni bir xalq ikkinchi xalqdan maqolni o'zlashtirganligi bilan izohlash to'g'ri bo'lmaydi. «Bizningcha, bunday yaxshilikni oddiy turmush tarzining o'xshashligi, insonlar hayotidagi munosabatlarning yaqinligi va umuman, hayotning ko'p holatlarida bir xil vaziyat hosil qilishi bilan izohlagan ma'qulroq. Masalan: «Ilon chaqqon arqondan qo'rqar» (ingliz), «Jo'jani tuxum ochgandan so'ng sana» (ingliz), «Bigizni qopda yashirib bo'lmasin», «Сем раз отмер, один раз отреж» (rus), «Kuygan mushuk sovuq suvdan qo'rqar» (fransuz) maqollari «Qo'rqqanga arqon ilon ko'rinar», «Sutdan kuygan qatqini puflab ichadi», «Jo'jani kuzda sanaymiz», «Yetti o'lchab bir kes», «Oyni etak bilan yopib bo'lmasin» kabi o'zbek maqollari bilan o'xshash ma'noni bildiradi»[5].

Xalq og'zaki ijodining eng hozirjavob, eng ommaviy janrlaridan biri bo'lgan maqollarda u yoki bu xalqning bir necha yuz yillik hayoti, kurashi, orzu-intilishlari, shuningdek, falsafiy-estetik qarashlari aks etadi. Xalq maqollarining qachon va qanday paydo bo'lishi haqida aniq bir fikr aytish mushkuldir, lekin har qalay, har bir maqol uzoq o'tmish saboqlari, xalqning orzu-umidi mahsuli ekaniga shubha yo'q. Maqol arab tilidagi «qavlun»dan olingan bo'lib, «so'z» tushunchasini anglatadi, lekin shunchaki oddiy so'z emas, balki hikmat va ibratlar bilan ziynatlangan dono so'z ma'nosida tushunish lozim. Ko'pgina tadqiqotchilar maqoldan matalning farqini ko'rsatishga, ularning chegaralarini belgilashga harakat qilganlar. Chunonchi, XIX asrning ulkan tadqiqotchisi V.Dal o'zining mashhur «Poslovitsi russkogo naroda» to'plamining kirish qismida shunday fikr bildiradi: «Matal, xalqning ta'rificha, g'uncha, maqol esa meva; bu ta'rif juda to'g'ri». Uning fikricha, maqol to'liq, tugal mazmun, hukm anglatuvchi gap bo'lsa, matal ko'chma ma'no ifodalovchi ibora; u maqolning yarmidir. Folklorshunos olim B.Sarimsoqovning fikricha, maqol va matallar o'zaro farqlanuvchi jihatlarga asoslangan ikki mustaqil, lekin bir-biriga o'tib turuvchi janrlar hisoblanadi[4].

Xulosa va takliflar. Xullas, ma'lum maqsad va g'oyalar ifodasi sifatida xalq maqollari Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Gulxaniy, Ogahiy, Abdulla Qahhor kabi so'z san'atkorlari tomonidan mahorat bilan qo'llangan. Maqol mustaqil folklor janri bo'lib, qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar uni boshqa aforistik janrlardan, xususan, matallardan keskin farqlab turadi. Bu farqlar quyidagilarda ko'zga tashlanadi: 1. Maqol hamma vaqt aniq, tugal fikr anglatadi. Bu fikr esa qat'iy, lo'nda, ixcham xulosa sifatida ifodalanadi. Shuning uchun ham maqolda birorta ortiqcha tasviriylik uchramaydi. Chunki maqoldagi ixcham fikrning o'zi estetik jihatdan katta mohiyat kasb etadi. Matalda esa bunday xususiyatlar ko'rinmaydi. Ular obrazli birikma yoki ibratli gapdir. 2. Maqol uchun ma'lum bir fikrni mantiqiy izchillikda va qat'iy qutbiylikda ifodalash xarakterlidir. Maqolda voqelik yo izchil ijobiy, yo keskin salbiy jihatdan baholanadi: Yaxshidan bog' qolar, yomondan dog', Bilgan topib so'zlar, bilmagan qopib. 3. Maqol asosida ibratomuz tugal fikr yotsa, matal asosida chiroyli, obrazli, ammo tugal bo'lmagan ifoda yotadi. Binobarin, matal ixcham, bir komponentli kompozitsiyaga ega. 4. Maqollar izzat hamda

ko'chma ma'nolarda qo'llana olish imkoniyatiga egadir. Bu xususiyat maqollarning tematik doirasini, qo'llanish chegarasini kengaytiradi. Yuqorida ko'rganimizdek, xalq og'zaki she'riy ijodi umuminsoniy va milliy-madaniy hodisa sifatida, o'zbek xalq ertaklari turli tuman bo'lib, bu ertaklarning barchasi hamma davrlarda ham inson tarbiyasi uchun eng ta'sirchan vosita sifatida xizmat qilib kelgan. Ertaklarning obrazlar dunyosi ham rang-barang: podsholar, malikalar, parilar, qahramon yigitlar, hunarmand, mardikor, dehqon, donishmand qariyalar, oddiy insonlar, o'gay ona,

yetim qiz, kenja botir, semurg', dev, ajdar, jin, yalmog'iz kampir va hokazo. Bu obrazlar ertaklarda an'anaviylashib ketgan bo'lib, ularning har biri asar syujet chizig'ida muhim o'rin egallaydi va ma'lum bir g'oyaviyestetik vazifani ado etadi. Xalq ommasi tomonidan yaratilib xalqning talantli vakillari ijrosida sayqal topib, avlodan-avlodga o'tib kelayotgan afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, olqish va duolar, topishmoq va qo'shiqlar, latifa va naqlar, ertak va dostonlar o'zbek xalq og'zaki ijodini tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбек халқ мақоллари. Икки томлик. Т.: «Фан», 1988-89.
2. Ҳикматнома. Тўплаб нашрга тайёрловчилар: Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Т.: Ўзбек энциклопедияси бош редакцияси. 1990.
3. Қанотли сўзлар. Тўплаб нашрга тайёрловчи: Сиддиқов Э. Т.: «Фан», 1986.
4. Саримсоқов Б. Мақоллар. //Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик, 1-том. Т.: «Фан», 1988.
5. Мадаев О. Халқ оғзаки поэтик ижоди. Т.: «Шарқ», 2001.
6. Nizomova M.B. Ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid terminlarning struktur-semantik xususiyatlari va tarjima muammolari: Filol. fan. d-ri. ... diss. avtoref. – Termiz: 2022. – 40 b.



Nilufar BO'RIYEVA,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o'qituvchisi

Qarshi davlat universiteti v.b dotsenti, (PhD) M. B.Nizomova taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK LINGVOMADANIYATIDA SHAXS KONSEPTINING VERBALLASHUVINI QIYOSIY TAHLIL QILISH

Аннотация

Konsept sohasidagi tadqiqotlar keyingi yillarda juda ko'plab o'tkazilayotganiga qaramasdan konseptning o'zi nimaligi va uning qaysi toifaga tegishli ekanligi to'g'risida aniq bir tushuncha hosil qilinmagan, shuningdek, ularni tadqiq qilish borasida ham yagona metodika yaratilganicha yo'q. Shaxs konseptining qiyosiy tahlili ahamiyati lingvistikadan tashqari psixologiya, sotsiolingvistika, biologiya kabi sohalarda tan olingan. Shaxsning sotsiologiyadagi ahamiyatini, inson aniq ijtimoiy nazariyani yurgizuvchi asosiy vositadir, degan mulohaza yuritishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Konsept, shaxs konsepti, qiyosiy tahlil, lingvistik, verballashuv, tilshunoslik, lingvomadaniyat;

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЕРБАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПТА ЛИЧНОСТИ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРЕ

Аннотация

Несмотря на то, что в последние годы было проведено множество исследований в области концепта, до сих пор не сформировано четкое представление о том, что представляет собой само понятие и к какой категории оно относится, и до сих пор не выработана единая методология их исследования. Важность сравнительного анализа концепции личности признается не только в лингвистике, но и в таких областях, как психология, социолингвистика и биология. Мы можем считать значение человека в социологии тем, что человек является основным инструментом, приводящим в движение конкретную социальную теорию.

Ключевые слова: Концепт, концепт личности, сравнительный анализ, языкознание, вербализация, языкознание, языкознание и культура.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE VERBALIZATION OF THE CONCEPT OF PERSONALITY IN ENGLISH AND UZBEK LINGUISTIC CULTURE

Annotation

Despite the fact that many studies in the field of the concept have been conducted in recent years, a clear understanding of what the concept itself is and what category it belongs to has not been formed, and a single methodology for their research has not yet been created. The importance of the comparative analysis of the personality concept is recognized in fields such as psychology, sociolinguistics, and biology in addition to linguistics. We can consider the importance of the person in sociology, that the person is the main tool that drives a specific social theory.

Key words: Concept, personality concept, comparative analysis, linguistics, verbalization, linguistics, linguistics and culture;

Kirish. Kognitiv lingvistikasi tajribasidan ma'lumki, konseptning assotsiativ tarzda verballashuv jarayoni, uning tabiati, harakatga keltiruvchi mexanizmlari turli tillarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. An'anaviy ma'noda tushuniladigan shaxs konseptining verballashuvini qiyosiy tahlil qilish- bu "o'z mohiyatiga ko'ra til leksikasi, grammatikasi va pragmatikasi, bog'lana olishlik, idiomatika, etimologiya va boshqalarning semantik tahlilidir. Tildagi hodisalar va ular ma'nosini ajratib ko'rsatish, qiyoslash va bayon etishga, shuningdek yaxlit obrazlar-konseptlar va ular anglatadigan tasavvurlarni qayta tiklashga imkon beradigan konseptual tahlilning asosiy vositasi bo'lib hisoblanadi. Demak, konseptual tahlil lingvistikaning nafaqat alohida, yangi yo'nalishi bo'lib, balki yanada ko'prok: lingvistikaning o'zining prinsipial jihatdan yangicha rivojlanish darajasi bo'lib hisoblanadiki, buning mohiyati – semantik tahlildan tildan nafaqat tilning o'zi, shu bilan birga uning egasi, uning ichki olami va madaniyati haqidagi jiddiy ma'lumotlarni chiqarib olish uchun ham foydalanishdan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Sh.Safarovning fikricha, "kognitiv tilshunoslik uchun eng muhim vazifa tafakkur birligi bo'lgan konseptning tilda (aniqrog'i, nutqda) aks etishini ta'minlovchi strukturalar, harakatlar, qoidalarni aniqlashdir"[1].

Konseptga doir ishlarning aksariyat ko'pchiligida konsept xuddi o'z-o'zidan ma'lum narsa sifatida "o'zak va

tashqi jihatlar"ga ajratib qo'yiladi, aslida esa bu tarzda ajratish uchun yagona mezonning o'zi mavjud emas. Ayrim tadqiqotchilar statistik mezonni qo'llashadi: eng ko'p uchraydigan belgilar o'zakka, kamroq uchraydiganlari esa – tashqi jihatlariga tegishli, deb olinadi[2], biroq bunda statistik tahlil natijalari ko'p jihatdan ko'rgazmali manbaga va uni tanlab olish imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. O'zakning "konseptning eng yorqin obrazli tarkibiy qismi sifatida" ko'rib chiqilishini ham uchratish mumkin[3]. Konsept atamasi rus tilshunosligida birinchi marta faylasuf S.A.Askoldov-Alekseyev tomonidan joriy etilgan edi. Uning talqini bo'yicha: "konsept yoki tafakkur hosilasi sifatidagi umumiy tushuncha bizning fikrlash jarayonimizda ayni bir turdagi juda ko'plab narsalarning o'rnini bosadi"[4]. D.S.Lixachev ushbu ta'rifni asos qilib olib, konsept sohasi tushunchasini amalga kiritdi[5]. Lekin u, S.A.Askoldov-Alekseyevdan farqli ravishda, birinchidan, konsept so'zning har bir asosiy (lug'aviy) ma'nosi uchun alohida tarzda amal qiladi, deb hisoblaydi va, ikkinchidan, «konseptni biz o'zimizning yozma va og'zaki nutqimizda qo'llaydigan ma'noning o'ziga xos «algebraik» ifodasi, deb hisoblash" ni taklif etadi, chunki odam ma'noni butun murakkabligicha anglab olishga ulgurmaydi, ba'zan buni eplay olmaydi, gohida esa bunday ma'noni o'z-o'zicha talqin qiladi»[6].

Kognitiv tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan biri shu kungacha ham ancha noaniq va ziddiyatlilikiga qolib

kelayaptiki, bunda turli tadqiqotchilar ushbu tushunchaga doir deb hisoblaydigan xususiyatlar ko'pincha o'zaro bir-birini istisno qiladi ham. Mazkur konsept:

- Ayni bir paytda kategoriya, birlik va tuzilma bo'lib, bir vaqtning o'zida individual va ijtimoiy tus kasb etadi:

- "Mavhum, aniq-assotsiativ va baholovchi belgilar, shuningdek tushunchaning jamuljam tarixini o'z ichiga qamrab oladigan" g'oyadir[7];

- "Hayotiy tushuncha negizida ishlab chiqilgan mavhum ilmiy tushunchadir"[8];

- "Ma'noning eng kam mazmuni sifatidagi obyektiv mohiyat va tushunchaning shaxs tomonidan idrok etilish, talqin qilinishi"[9];

- "Xotira mental so'z boyligi, miyaning konseptual tizimi va tili, jamiki dunyo manzarasining operativ birligi, bilim kvantidir"[10];

- "Inson ongida obyektiv amal qiladigan dinamik tusdagi" individual tabiatga ega "persektiv-kognitiv-affektiv hosiladir"[11];

- "Tafakkurning operatsion birligi, tilda ifodalanadigan va etnomadaniy o'ziga xoslikka ega (oliy ma'naviy qadriyatlar tomon yo'llaydigan) jamoa bilimi birligi"[12];

Konseptlarning o'zaro aloqasi va o'zaro bahamjihat harakati xususidagi qarashlar ham turlichadir. Biroq, shuni qayd qilish kerakki, shunga o'xshagan aloqalarni ta'minlaydigan mexanizmlar ham shu paytgacha batafsil bayon qilinmagan[13]. L.S. Lixachyovning yozishicha, konseptlar o'zaro bir-biri bilan bog'lanib, tuzilmaviy jihatdan "insonning madaniy darajasi, uning odamlarning muayyan hamjamiyatiga mansubligi, individualligi" bilan belgilanadigan konsept sohalarini hosil qiladi[14].

Tadqiqot metodologiyasi. Biz o'z fikr-mulohazalarimizda qat'iy mantiqqa amal qilgan holda shuni e'tirof etishimiz kerak bo'ladi, turli tillar jamiyatlari vakillarining ona tili tizimlari qay darajada farqlanadigan bo'lsa, ularning ongi va tafakkuri ham shu darajada turlicha tuzilma va tashkilotga ega bo'ladi. Demak, o'zbek tili ona tili bo'lib hisoblanadigan kishining ongi nemis yoki fransuzning ongidan farq qiladi. Unday bo'lsa, ikki yoki xatto uchta turlicha tillar muhitida masalan. Hindiston yoki Jazoiridagi kabi sharoitlarda o'sib-ulg'aygan kishining ongi va tafakkuri qanday bo'ladi? Har ikki til – hind va ingliz tillari ham ona tili bo'lib hisoblanadigan sharoitda vokelikning "ikkiga bo'linishi" qanday til tizimiga muvofiq yuz beradi? Agar kishi uchun ona tili bo'lib hisoblanadigan tillarning birida boshqa tilda mavjud bo'lgan grammatik kategoriya mavjud bo'lmasa nima bo'ladi (masalan, ingliz tilidagi gerundiy singari)?

Shaxs jarayoni- Shaxs hayoti
Bolalik-childhood
Yoshlik- youth
Go'daklik - infancy
O'rta yosh - Middle Ages
Kekcalik va hakoza- Old age

Mazkur semantik tarkib ingliz va o'zbek tillari qiyosidagi o'xshashliklar asosida tuzib chiqildi. Albatta, bu kabi semantik tarkib jahonning ko'plab tillarida uchraydi va shuning uchun ham konseptning universal birliklari sifatida qayd etishimiz mumkin. Umuman, nuqtai nazardan "Shaxs atamasi bizni o'rab turgan olam to'g'risidagi tasavvurlarimiz

Mutlaqo qat'iy qilib aytish mumkinki, tilsiz tafakkur ham, ong ham bo'lmaydi, chunki bunday holda odamning o'zi ham bo'lmaydi, lekin qanday qilib tilning qurilishi tafakkur yoki onging qurilishiga muvofiq kelishi haqidagi savolga hozircha javob olinmagan. Zamonaviy fanda inson miyasi unda kechadigan jarayonlar to'g'risidagi bilimlariing juda kamligi sababli til bilan ong o'rtasidagi bevosita muvofiqlik haqidagi masalaning qo'yilishi ham oson ish emas.

Shuningdek, ong, tafakkur va tilning turli fenomenologik sohalarga tegishliligi fakti ham tafakkur bilan onging tilga nisbatan izomorfililigi haqidagi tezisni tasdiqlay olmaydi. Masalan, muzlagan deraza oynasidagi naqshlar va ularni tashkil etadigan muz kristallchalari bir tuzilma sohasida joylashgan bo'lishiga qaramasdan baribir turlicha fenomenologik sohalarda amal qiladi; xuddi shuningdek kompyuter grafikasi mo'jizalari va bunda kompyuterning shartli birliklar va nullar ustida bajaradigan operatsiyalari ham – bir-biri bilan kesishmaydigan fenomenologik sohalardir. Biz o'zimiz sezmaganda turli fenomenologik sohalarda bevosita muvofiqliklarga amal qilinishini kutib, til hodisalari sohasida belgilab qo'yilgan muvofikliklar psixologiya yoki neyro-fiziologiya hodisalari sohasida ham to'g'ri bo'ladi, deb o'ylaganimizda muammolar xosil bo'la boshlaydi.

Tahlil va natijalar. R.Saloyevning dissertatsion ishida shaxs otlari bilan ismi foillar tushunchasi bir grammatik aspektda turishi ta'kidlanadi[15]. Bizningcha, bular bir-biridan farqlanadi. Ma'lumki, shaxs otlari shaxsni atab, uning ma'lum bir belgi-xususiyatlariga ishora etuvchi birliklardir.

Ma'lumki, "shaxs" konsepti universal konsept sifatida har bir lingvomadaniyatda o'ziga xos sqarashlarda shakllangan. Mazkur qarashlar ma'lum qardosh tillarda bir-biriga yaqin semantik tarkibga ega bo'lca, boshqalarida umuman semantik tarkib jihatdan, lingvomadaniy nuqtai nazardan tubdan farq qiladi. Bu kabi farqlanish har bir etnosning asrlar davomida to'plagan qadriyatlariga, kechimiga bo'lgan munocabatlari, falsafiy qarashlarining shakllanishi, shaxs va tabiat uyg'unligi, shaxs va hayot uyg'unligiga nisbatan diniy qarashlar kombinatsiyalarining mahsuli sifatida baholash mumkin. "Shaxs" konseptining universal hodisa sifatida ifodalanadigan semantik tarkibi "shaxs kechimi", "shaxs kamoloti" shuningdek, "o'tgan", "hozirgi", "kelasi" kabi subkonseptlar tashkil etadi. Ma'lum davr ichida takrorlanib turadigan hodisa, jarayonlarning vaqtda shakllanish tarkibi "inson hayoti (shaxsning yoshi o'tishi)", kabi tushunchalarda o'z ifodasini topadi. Shaxs konsepti, o'z navbatida, mustaqil birliklar doirasida yuzaga keladigan alohida konsept sifatida baholanadigan "inson", "qarilik", "o'lim" kabilarni ham qamrab oladi.

Shaxs jarayoni- Tabiat qonunlari
Yil-year
Oy-moths

Xafta-week
Bahor, kuz, yoz, qish va hakoza-

asosida shakllangan hamda makon bilan uzviy aloqador bo'lgan inson va uning ijtimoiy tushuncha sifatida tahlil qilinadi. Obyektiv borliqda hamma narsa serqirra, ko'ptomonli bo'lganligi uchun shaxs otlari ham shaxsni qaysi jihatdan tavsiflashiga ko'ra ichki guruhlarga bo'linadi.

O'zbek	English
Shaxs sifati ob'ekt tarzida ifodalanishi	
Bunda asosan inson nomlari keltirib o'tiladi: Navoiyxonlik kechasi; A.Oripov maktabi; Temuriylar bilim yurti;	Adams House (Harvard University). Biden School of Public Policy and Administration at the University of Delaware. Cleveland High School (Portland, Oregon)

Shaxsni tarixiy hodisa sifati tarzda ifodalanishi.	
Ya'ni tarixda shaxs nomlariga e'tibor qaratilgan jihatlari: Bibixonim madrasasi;	A I Dasent Speakers of the House of Commons; O C Williams Clerical Organisation of the House of Commons;

Aytish mumkinki, insonning emotsional holati bilan bog'langan barcha undov so'zlar bevosita "shaxs" konseptini yodga soladi. Buni ko'plab asarlarda ham uchratishimiz mumkin. Shunday ekan his-hayajon undovini eshitir ekanmiz, bevosita muayyan holatdagi inson ko'z oldimizda gavdalanadi. Shuningdek, hoy, o'v, ey kabi insonga qarata aytiluvchi buyruq-xitob undovlari ham, garchi undov so'z qaratilgan inson bir zum ko'zdan uzoqlashgan bo'lsa-da, assotsiativ tarzda "shaxs" konsepti bilan bog'lanadi. Bu holat insonning his-hayajoni yoki unga qaratilgan buyruq-xitob bildiruvchi barcha turdagi undov so'zlar orqali assotsiativ tarzda "shaxs" konseptining xotirada tiklanishini ko'rsatadi.

Shunday ekan: hoy, nima deyapsan, jinni? – deb so'rab qoldi. (G'.G'ulom. "Shum bola").

Ushbu gapda hoy undov so'zining bevosita odamga nisbatan murojaatni ifodalashda qo'llanganligi u orqali "odam" konseptining assotsiativ tarzda verballashuviga xizmat qilgan. Boshqacha aytganda, hoy undov so'zi "odam" konsepti bilan assotsiativ aloqaga kirishadi.

Ayvon tarafdin shivir-shivir eshitaman. Shivir-shivirda meni otim-da bo'ladi (T.Murod. "Otamdan qolgan dalalar"). Ushbu misolda qo'llangan shivir-shivir taqlid so'zi assotsiativ tarzda "odam" konsepti bilan bog'lanadi. Bu so'zni eshitgan til egalari xotirasida beixtiyor odam leksemasi tiklanadi. Bu o'rinda shuni aytish lozimki, inson tovushi yoki holatiga nisbatan hosil qilingan taqlid so'zlariga "shaxs" konsepti bilan bevosita bog'lana oladi. Masalan, nutqda lov-lov taqlid so'zi insonga nisbatan ham, atlas yoki biror boshqa matoga nisbatan ham ishlatiladi. Bu taqlid so'z insonga nisbatan qo'llangan "shaxs" konsepti bilan assotsiativ aloqaga kirishadi. "Yuzlarim lov-lov yonadi..." (T.Murod. "Otamdan qolgan dalalar") gapida qo'llangan lov-lov taqlid so'zi inson yuziga nisbatan ishlatilgani bois xotirada "shaxs" konseptini tiklaydi. Ammo "Atlas ko'ylak lov-lov yonadi" gapida qo'llangan taqlid so'zda bu xususiyat kuzatilmaydi. Bu holatda shaxs emas, mato nazarda tutulganini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Leksemalarni semantik jihatdan mazmuniy maydonlarga tasniflashda ma'no qirralari inobatga olinadi. Ushbu maydon o'z atrofida yana kichik maydonchalarni hosil qiladi: shaxs, o'simlik, hayvon, tog', adir, jangovar nomlarni anglatuvchi lug'aviy semalar, diniy tushunchani bildiruvchi lug'aviy birliklar kabi. Ularning o'ziga xos xususiyati shundaki, mazmuniy maydon asosini leksemalar va ularning semalari tashkil etadi. Masalan, "Temurnoma" asarida 500 dan oshiq shaxs nomlari keltirilgan. Birgina shaxs leksemasi atrofida bir necha semalarni birlashtirgan holda yangi mazmuniy maydonlarni hosil qilish mumkin: Asar markazida Amir Temur, ya'ni yagona shaxs, atrofida esa qon-qarindoshlar, amir rafiqalari, kanizaklari, farzandlari, quroldosh-do'stlari, lashkar askarlari, ayg'oqchilar, elchilar, dushmanlar va hok.

Xulosa. Demak, "shaxs" leksemasi atrofida (asarda keltirilgan shaxs nomlariga asoslangan) yuqoridagi mazmuniy maydonchalar yuzaga keldi. Mazkur semalar shaxs arxisemasiga nisbatan "maydoncha", biroq o'z ichida yana mavzuviy guruhlarga ajralganda har biri makro maydon vazifasini bajaradi. Masalan, Alqissa, Tarag'ay Bahodir nokli Qorayur nuyondin edi. Qozonxon andog' zolim erdiki, kishini talab qilsa, avval xotin va bolalariga vasiyat qilib, keyin Qozonxonni oldiga borur erdi. Amir Choku barlosda davlatmand erdi. Ammo Malikshox bahodir ko'p g'ani boy kishi erdi. Har ijnos mollari bor erdi. Chig'atoy odamlari ichida zo'r, andin pahlavon kishi yo'q erdi. Yuqoridagi misollardan ma'lum bo'ldiki, shaxs nomlarini ham antroposentrik tamoyil asosida ham mazmuniy maydon asosida mavzuviy guruhlarga birlashadi. Va o'z navbatida guruhlur guruhchalarga bo'linib, zanjir misoli bog'liqlikda tadqiq etiladi. Leksemalarni bunday yo'sinda tahlil qilinganda giperonim-giponim munosabatlari ham yuzaga chiqadi. Til inson va xalqsiz, binobarin, jamiyatsiz bo'lmaydi. Til jamiyat uchun xizmat qiladi va uning a'zolari muloqot qilishini ta'minlaydi.

Tilning barcha hodisalari insonga bog'liq (antroposentriklik) ligini ajratib ko'rsatish - hozirgi tilshunoslikning global an'anasidir. Ma'lumki, til oliy dalajada antropomarkazlashgan. Uning lug'atining ko'p qismi insonga - uning ichki dunyosiga, tashqi olamni anglashiga, jismoniy va aqliy faoliyatiga, uning maqsadlariga, boshqa kishilar bilan aloqalariga, ular bilan munosabatlariga, voqeyalarni baholashiga, qoida va vaziyatiga bag'ishlangan. Til antropomarkazlashgan, chunki u inson uchun mo'ljallangan va tashqi dunyodagi barcha obyektlarning hamda hodisalarning ifodalanishi unga mo'ljallangan; bu barcha tillarning umumiy xususiyatidir. Uning chegarasidan chiqmasdan, uning yaratuvchisiga, sohibiga, ishlatuvchisiga - insonga, aniq til shaxsiga murojaat qilmay turib tilni o'z-o'zidan bilib bo'lmaydi. Ta'kidlash zarurki, shaxsning til va madaniyatdagi o'zaro munosabati masalasi uni real "lingvistik ifodalangan til shaxsi" nuqtai nazariga aylantirilsa, u lingvomadaniyatshunoslikning predmetiga aylanib qoladi. O'zining til manzarasiga ega bo'lgan tilning yaratuvchisi, sohibi, ishlatuvchisi bo'lgan insonga, aniq til shaxsiga murojaat qilib, lingvomadaniyatshunoslik insoniy, to'g'rirog'i, tildagi madaniy omilga va insondagi til omiliga yo'nalganligini tasdiqlaydi. Demak, lingvomadaniyatshunoslik - haqiqatda inson haqidagi fanning antropologik paradigmasini tashkil etadi. Lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy fan sifatida antropomarkazlashganligi ijtimoiy bilimlar rivojining umumiy an'anasi bilan ifodalanadi. "Tilda shaxs omili" tushunchasi, unda hozirgi lingvistik tadqiqotlarda aniq til shaxsining ishtiroki yaxshi ma'lum bo'lgan "olamning lisoniy manzarasi" tushunchasidan ajralmasdir.

ADABIYOTLAR

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B.27.
2. Алексеева С.А. Этнография: культур-антропологические исследования, этнография, фольклористика и религиоведение сибери и сопредельных регионов. – 2013. – С. 30.; Евтушок Ю.Г. Языковая репрезентация концепта crime (на материале американского варианта английского языка) : дис. – Иркут. гос. лингвистич. ун-т, 2004.; Контримович А.А., Паюнона М.В. Развитие функциональной грамотности: из опыта преподавания иностранного языка //Baikal Research Journal. – 2013. – №. 2. – С. 36.
3. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – 2002.; Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как системное образование //Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2004. – №. 1. – С. 29-34.; Звада О. В. Фрейм "morality" и его объективация в языке (на материале английского языка). 2003.

4. Аскольдов С.А. Концепт и слово. Русская словесность. Антология. Москва: 1997. – С. 268.
5. Лихачев Д.С. Концепт русского языка // Иран Сля. -1993. -№1. –С. 25.
6. Лихачев Д.С. Концепт русского языка // Иран Сля. -1993. -№1. –С. 28.
7. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. М.: Академический проект. Изд. 2-е, испр. и доп. -2001. –С. 990.
8. Соломоник А. Семиотика и лингвистика. М.: Молодая гвардия, 1995. –С. 243.
9. Лихачев Д.С. Концепт русского языка // Иран Сля. -1993. -№1. –С. 281.
10. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З. Краткий словарь когнитивных терминов. –М, 1996: –С.90.
11. Залевская А.А. - Психолингвистические исследования Гнозис 2005. –С. 624.
12. Воркачев С. Г. Счастье как лингвокультурный концепт Текст.: монография. Москва: Гнозис, 2004. – С.51.
13. Givon N. Mind, code and context. Essays in pragmatics: Hilsdale, New Jersey. London: Thorsons, 1989. –P.263.
14. Лихачев Д.С. Концепт русского языка // Иран Сля. -1993. -№1. –С. 25-28.
15. Saloyev R. Ko'rsatilgan asar. –B.8.



Mahliyo VALIEVA,
Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika universiteti
E-mail: mali_nora@mail.ru

Filologiya fanlari doktori, dotsent S.Ismoilov taqrizi asosida

THE FIRST TERMINOLOGY SPECIFIC TO THE SYNTAX OF THE CHINESE LANGUAGE

Annotation

Information about the division of words in the language into certain groups according to their general grammatical meaning and functions and about word groups is presented.

Key words: Ancient Chinese language, word groups, examples, meaning, grammatical tasks, modern Chinese language.

XITOIY TILI SINTAKSISIGA XOS ILK TERMINOLIGIYASI

Annotatsiya

Xitoy tili dunyoning Tildagi so'zlarning umumiy grammatik ma'no va vazifalariga ko'ra ma'lum guruhlarga bo'linishi va so'z turkumlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qadimgi xitoy tili, so'z turkumlari, misollar, ma'no, grammatik vazifalar, zamonaviy xitoy tili.

ПЕРВАЯ ТЕРМИНОЛОГИЯ, СПЕЦИФИЧНАЯ ДЛЯ СИНТАКСИСА КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Даны сведения о делении слов в языке на определенные группы по их общему грамматическому значению и функциям и о группах слов.

Ключевые слова: Древнекитайский язык, группы слов, примеры, значение, грамматические задачи, современный китайский язык.

Kirish. Qadimgi xitoy tilida ham so'z turkumlari ikkiga bo'lingan: Mustaqil so'z turkumlari (实词shící) va yordamchi so'z turkumlari (虚词xūcí). Xitoy tilida aniq bir (real) ma'no ifoda etuvchi so'zlarga mustaqil so'z turkumlari deyiladi. Qadimgi xitoy tilidagi mustaqil so'z turkumlari 5 guruhga bo'lingan:

1. Ot – 名词 míngcí.
2. Fe'l – 动词 dòngcí.
3. Sifat – 形容词 xíngróngcí.
4. Son – 数量词 shùliàngcí.
5. Olmosh – 代词 dàicí.

Yordamchi so'z turkumlari – yakka holda ma'no anglatmaydigan, gap bo'lagi bo'la olmaydigan, grammatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladigan so'zlardir. Ular mustaqil so'zlar va ayrim gaplar orasidagi munosabatni anglatishga xizmat qiladi, so'zga va gapning mazmuniga turli qo'shimcha ma'nolar qo'shadi. Qadimgi xitoy tilidagi yordamchi so'z turkumlari 6 guruhga bo'lingan: 23 1. Ko'makchi – 介词 jiècí.

2. Bog'lovchi – 连词 liáncí.
3. Yordamchi so'zlar – 助词 zhùcí
4. Yuklama – 语气词 yǔqìcí.
5. Undov so'zlar – 叹词 tàncí.
6. Ravish – 副词 fùcí.

Maqolada yordamchi so'z turkumlari haqida bir oz ma'lumot berib o'tamiz. Ko'rishimiz mumkinki, qadimgi xitoy tilida son va hisob so'zlar bir turkumga kiritilgan. Zamonaviy xitoy tilida esa ular alohida so'z turkumlari hisoblanadi. Ravish so'z turkumi qadimgi xitoy tilida yordamchi so'z turkumi bo'lgan, hozir esa mustaqil so'z turkumiga aylangan.

Ot so'z turkumi Xitoy tilshunoslarining fikricha, inson, narsa-buyum, vaqt, joy nomini bildiruvchi so'zlar turkumi ot deyiladi. Qadimgi xitoy tilidagi otlarga quyidagilar misol bo'la oladi:

- 孔子 kǒngzǐ – Konfutsiy;
孟子 mèngzǐ – Meng-zi; 民 mín – xalq;

人 rén – odam;
天下 tiānxià – Osmon osti (Xitoy);
君子 jūnzǐ – oliyjanob inson;
江 jiāng – Yanzi daryosi;
河 hé – Xuangxe daryosi;
东 dōng – Sharq;
南 nán – Janub;
西 xī – G'arb;

Qadimgi xitoy tilidagi ot so'z turkumi grammatik vazifalari zamonaviy xitoy tili bilan deyarli o'xshash. Gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi bo'lib kelgan. Zamonaviy xitoy tilidan farqli tomoni – ba'zida hol gap bo'lagi vazifasini bajargan, fe'l o'rni qo'llanilgan. Quyida ushbu hodisalarni tahlilini o'tkazamiz: Ot hol vazifasida Qadimgi xitoy tilida ot quyidagi o'rnlarda hol bo'lib kelgan: Qiyoslash ma'nosini bildirganda Ot orqali kimsa yoki narsabuyumning ish-harakat belgisi, uslubi hamda holati tasvirlanadi. Bunda ot “像。。。一样” xiàng ... yíyàng, “像。。。似的” xiàng ... shìde (... –ga o'xshab) ma'nosini beradi. «Lyaochjay g'aroyibotlari» “Bo'ri hikoyasi” bo'limida (聊斋志异狼 Liáozhāi zhìyì • láng) hikoya qilinishicha: “其一犬坐于前”。 Qí yī quǎn zuò yú qián (Bo'ri go'yo it kabi tizzasida o'tirar edi). Bu gapda 犬 quǎn (it) ot so'z turkumiga oid, gapda hol vazifasini bajargan. Qiyoslash ma'nosini bildirgan.

1. Ish-harakatning uslubi, holatini bildirganda «Tarixnoma» ning “Syangyuy tarjimai holi” (史记·项羽本纪 shǐjì•Xiàngyǔ běnjì) bo'limida yozilishicha: “吴得兄事之” Wú dé xiōng shì zhī (Men unga xuddi akasi kabi g'amxo'rlik qilishim kerak). Bu gapda “兄” (xiōng – aka) hol vazifasini bajargan ot bo'lib, “事” (shì – g'amxo'rlik qilmoq) fe'lning holatini bildirmoqda. “Akasidek g'amxo'rlik qilmoq” tarzida tarjima qilinadi.

2. Jihoz va joy nomini bildirganda «Yuygun tog'ni surdi» hikoyasida (愚公移山 Yúgōng yíshān): “用箕畚把土石运到渤海边上”。 Yòng jībēn bǎ tǔ shí yùndào bóhǎi biān

shang (U hokandozdan foydalanib toshlarni dengiz qirg'og'iga oborib tashladi. “箕畚” (jībēn – xokandoz) oti hol bo'lib kelgan, ishlatilgan jihozni ifodalaydi. Gapda hol vazifasini bajargan. Ot hol bo'lib keladigan bu holatda, qadimgi xitoy tilidan zamonaviy xitoy tiliga tarjima qilganimizda eng yaxshisi otdan oldin “用” (yòng – foydalanmoq), “拿” (ná – olmoq) yoki “在” (zài – da, joylashmoq) kabi so'zlarni qo'shish kerak. Ot hol vazifasini bajarganda hech kanday alohida ko'rsatkich mavjud emas, asosiyi ikkala til ma'nosidan kelib chiqqan holda o'rganishimiz lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Otning fe'l o'rniida kelishi. Qadimgi xitoy tilida ko'pgina otlar fe'l sifatida ishlatilib, gapda kesim vazifasini bajarishi mumkin bo'lgan. Ot fe'l vazifasini bajarganda, otning ma'nosi butunlay yo'qolmaydi, balki qo'shimcha ma'no qo'shiladi. «Zojuan» “Saoguy munozarasi” (左传·曹刿论战 zuǒzhuàn·Cáo guì lùnzhàn) bo'limida: “齐人三鼓”。Qí rén sān gǔ (Chi askarlari uch marotaba do'mbira chalishdi) . “鼓” (gǔ – do'mbira) oti fe'l sifatida ishlatilgan, “do'mbiraga urmoq” ma'nosini beradi, kesim vazifasini bajargan. Otning qo'llanilish usullari Ot fe'l o'rniida kelganida, o'zidan keyin to'ldiruvchini oladi. Masalan: «Tarixnoma» “Syangyuy tarjimai holi” bo'limi (史记·项羽本纪 shǐjì·Xiàngyǔ běnjì): “先破秦入咸阳者王之”。Xiān pò qín rù xián yáng zhě wáng zhī (Avval Chin qo'shiniga xujum qilib, Syanyangni bu yerga olib kelamiz, keyin esa uni taxtga o'tqizamiz). “王” (wáng – qirol): ot so'z turkumiga kiradi, bu gapda “之” to'ldiruvchisidan oldin kelib, “qirol qilmoq, taxtga o'tqizamiz” ma'nosini beradi. “王之” - “uni taxtga o'tqizish” deb tarjima qilinadi.

Ot fe'l ma'nosini bildirganda, o'zidan keyin to'ldiruvchi olib, sub'ektiv “hisoblamoq” ma'nosini bildiradi. Masalan: «Syun-zi» “Fu” bo'limida (荀子·赋 Xúnzǐ · fù): “友风而雨”。Yǒu fēng ér yǔ (Shimolni o'z do'stim, yomg'irni esa farzandim deb bilaman). “友” yǒu (do'st) “子” zǐ (farzand) asli ot so'z turkumiga oid, bu gapda fe'l ma'nosini ifodalagan: “... do'st deb bilmok”, “farzand deb hisoblamok” deb tarjima qilinadi. Yo'nalish otlarining ishlatilishi. Qadimgi xitoy tilida, yo'nalish otlari odatda quyidagi hollarda ishlatilgan: odatda boshqa otlar bilan birga qo'llaniladi (shuningdek “之”, “以” kabi so'zlar orqali yasaladi), bunda joy nomini ifodalaydi. Zamonaviy xitoy tili bilan o'xshash. Masalan: 1) «Mulan she'ri» (木兰诗 Mùlánshī) da yoziladi: “东市买骏马”。Dōngshì mǎi jùn mǎ (Sharqiy bozorda yaxshi ot sotiladi). “东” dōng (sharq) yo'nalishni bildiruvchi ot “市” shì (bozor) bilan birikib, joy nomini bildirgan. 2) fe'ldan oldin kelib, bu ish-harakatqilingan joy yoki yo'nalishni ko'rsatadi. «Uzun ma'yus kuy» (长恨歌 shǎng hèn gē) she'rida: “上穷碧落下(穷)黄泉”。Shàng qióng bì luò xià (qióng) huáng quán (Yuqoriga chiqsang osmonni ko'rasan, pastga tushsang yer ostiga duch kelasan). Bu gapda “上” shàng, “下” xià so'zlari “穷” qióng (tugamoq, nihoyasiga etmoq) fe'lining yo'nalishini ko'rsatmoqda. 3) “于” yú (old ko'makchisi) ni fe'ldan keyin qo'yib, joylashuvni bildirish mumkin. «Lyaochjay g'aroyibotlari» “Bo'ri hikoyasi” bo'limida (聊斋志异·狼 Liáozhāi zhìyì · láng): “其一犬坐于前”。Qí yī quǎn zuò yú qián. (Bitta bo'ri go'yo it kabi old tomonda o'tirardi). “于” (old ko'makchi) va “前” (ot) birikib, “old tomonda” ma'nosini bildirgan. Gapda hol vazifasini bajargan. Vaqt otlarining qo'llanilishi. Qadimgi xitoy tilida vaqt otlari 3 turga bo'linadi: 1) fe'ldan oldin kelib, ish-harakatsodir bo'lgan vaqtni ifodalaydi. Masalan: Li Dao Yuanning «Uch tog' darasi» (三峡 sānxiá): “朝发白帝, 暮到江陵”。Zhāo fā Báidì, mù dào Jiānglíng. (Biz ertalab Baydi shahridan chiqib ketib, kechqurun Jyanlingga yetib bordik.)

Bu gapda ot so'z turkumiga oid 朝 (ertalab), 暮 (kechqurun) 发 (yo'lga chiqmoq), 到 (etib bormoq) fe'llariga bog'lanib, gapda hol vazifasini bajargan. 2) kun, oy, yil kabi so'zlar fe'ldan oldin ishlatilib, “har kuni” (每日 měirì, 日日 rìrì), “har oy” (每月 měiyuè, 月月 yuèyuè), “har yil” (每岁 měisui, 岁岁 suìsuì) degan ma'nolarni bildiradi. Masalan: «Syun-zi»ning “Ta'lim-tarbiya nazariyasi” bo'limida (荀子 劝): “君子博学而日参省乎己”。Jūnzǐ bó xué ér rì cān shěng hū jǐ. (Buyuk hukmdor ko'pgina ilmlarni o'rganadi hamda har kuni o'z-o'zini imtihon qiladi). Bu gapda 日 rì(kun) oti “har kuni” ma'nosini anglatib, 参 shēng (imtihon qilmoq) fe'liga bog'langan. Gapda vaqt holi bo'lib kelgan. 3) “日” rì (kun) so'zi sifatdan oldin kelib, ish-harakatning rivojlanish jarayonini bildiradi. “一天比一天” yì tiān bǐ tiān (kundan kunga, borgan sari) ma'nosini anglatadi. «Uchpodsholik» “Chju Ge-Lyang” hikoyasi(三国志·诸葛亮传 sānguózhī·Zhūgēliàng zhuàn): “于是与亮情好日密”。Yúshì yǔ liàng qíng hǎo rì mì. (Chju Ge-lyang va men o'rtamizdagi do'stlik kundan kunga ortib borardi). Ushbu gapda 日 (kun) so'zi 密 (yaqin) sifatidan oldin kelgan, “kundan kunga”, “borgan sari” ma'nosini bildirgan. Gapda hol vazifasini bajargan. Fe'l so'z turkumi Xitoy tilshunoslarining fikricha, inson yoki narsa-buyum ish-harakati, psixologik kechinmalari, rivojlanishi, o'zgarishi va boshqa harakatni bildiruvchi so'zlar fe'l deyiladi. Qadimgi xitoy tilidagi fe'l grammatik xususiyatlari va sintaktik vazifalari zamonaviy xitoy tili bilan o'xshash. Gapda kesim, hol gap bo'laklari vazifasini bajargan. Quyidagicha o'ziga xosliklari mavjud: Fe'l gapda hol bo'lib kelishi. Qadimgi xitoy tilida fe'l gapda ko'pincha hol vazifasini bajarib, ish-harakat holati yoki bajarilish usulini bildirgan. Bunda fe'l kesimdan oldin joylashgan. Ko'pincha ikki fe'l orasiga “而” ér bog'lovchisi qo'yilgan. «Syun-zi»ning “Ta'lim-tarbiya nazariyasi” bo'limida (荀子·劝学): “吾跂而望矣”。Wú qí ér wàng yǐ. (Men oyoq uchida turib, olislarga boqardim). “跂” qí (oyoq uchida turmoq) fe'li “望” wàng (nazar solmoq, qaramoq) fe'lining holatini bildirib, gapda hol vazifasini bajargan. Fe'lining gapda kesim bo'lib kelishi. Fe'l gapda kesim vazifasini bajarganda, u ifoda etgan ish-harakat ega tomonidan bevosita bajarilmaydi, balki bu vazifa to'ldiruvchiga yuklatiladi. Bunda fe'lining ortirma nisbati yasaladi. «Tarixnoma» “Syangyuy tarjimai holi” bo'limi (史记·项羽本纪 shǐjì·Xiàngyǔ běnjì): “项伯杀人, 臣活之”。Xiàngbó shā rén, chén huó zhī. (Syangbo odamlarni o'ldirib, jinoyat qildi, men esa uni hayotini saqlab qoldim). Bu gapda “活” (yashamoq, tirik bo'lmoq) “之” (unga) to'ldiruvchisi bilan birikib, “unga hayot baxsh etmoq” ma'nosini bildirgan. Sifat so'z turkumi Xitoy tilshunoslarining fikricha, inson yoki narsa-buyumning shakli, xususiyati va u ish-harakatining holatini bildiruvchi so'zlar sifat deyiladi. Ular quyidagilar misol bo'la oladi:

大 dà – katta; 小 xiǎo – kichik; 长 cháng – uzun; 短 duǎn – kalta; 高 gāo – baland 低 dī – past; 红 hóng – qizil; 白 bái – oq; 富 fù – boy; 贵 guì – qimmat; 美 měi – nafis; 恶 è – xunuk; 从 cóng – sekin; 仓皇 cāng huáng – xovliqqan; Venyandagi sifat grammatik va sintaktik xususiyatlari jihatidan zamonaviy xitoy tili (bayxua)dagi sifat bilan deyarli bir xil. Gapda asosan aniqlovchi, hol, kesim bo'lib kelgan. Ba'zida ega va to'ldiruvchi bo'lib kelishi ham mumkin bo'lgan, ammo bunday sifatlar sifatlik xususiyatlarini allaqachon yo'qotgan, otlashgan sifatga aylangan. Quyida bu holatni ko'rib chiqamiz: Sifatning otlashish hodisasi. Qadimgi xitoy tilida sifat gapda ega va to'ldiruvchi bo'lib kelishi mumkin bo'lgan, ya'ni sifat otlashish xususiyatiga ega bo'lgan.

Xulosa. «Zojuan» “Nang Gong hukmronligining 19-yili” (左传·囊公十九年 zuǒzhuàn·Nánggōng shíjiǔ nián): “

大毋侵小”。Dà wú qīn xiǎo. (Katta mamlakat kichik mamlakatni bosib olishi kerak emas.) “大”, “小”: asli sifatlar, ammo bu gapda “katta mamlakat”, “kichik mamlakat” ma’nosida kelgan, “侵” (bosib olmoq) fe’lining egasi va to’ldiruvchisi bo’lib kelgan. Sifatning fe’llashish hodisasi. Qadimgi xitoy tilida sifatning fe’llashish hodisasi ko’p uchraydi. Bunda sifat o’zidan keyin to’ldiruvchi oladi. Xitoy tilshunosligi o’z taraqqiyot bosqichlarida kuzatilgan ikkinchi ta’sir fanning barcha soxalariga kirib borgan. Ching sulolasi tugab, ozodlikka erishgunga qadar g’arb tilshunosligining

ta’siri, ayniqsa, kuchli bo’lgan. Afyun urushida mag’lubiyatga uchpagandan keyin, kator ziyolilar mamlakatni kutkarish uchun g’oya yangilanishi kerak, buning uchun esa chet elni o’rganish lozim deb hisoblashgan. Bu kabi siyosiy karashlar.ilm-fandah aks eta boshladi va G’arb ilmi Xitoyga “ko’chirib” o’tqazildi. Jumladan, tishunosligiga ko’chirib olib kirildi. Maqolada qadimgi xitoy tilida yordamchi so’z turkumlari va qadimgi xitoy tilidagi grammatik xususiyatlar, sintaktik vazifalar va zamonaviy xitoy tili bilan o’xshash tomonlari yoritib berilgan.

ADABIYOTLAR

1. Nosirova Saodat, “Xitoy tili tarixi”, 2012-yil.
2. Hashimova Saboxat, “Xitoy tili Qiyosiy Grammatikasi”, 2009-yil.
3. Mustafayeva Samida, “Xitoy tili tilshunoslik terminlari tizimining shakllanishi va taraqqiyoti”, 2016-yil.



Ilhom JUMAYEV,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: ijumayev12@gmail.com

TDSHU professori, f.f.d B.To‘xliyev taqrizi asosida

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDA SO‘Z QUDRATI HAQIDA MULOHAZALAR

Annotatsiya

Bu maqolada so‘zning qudrati va qadimdan ota-bobolarimiz so‘z qudratini teran anglab, unga amal qilganliklari, dunyoning yaralish asosi ham “Yaral!” (arabchasi “Kun!”) degan so‘zdan iborat ekanligi haqida fikr yuritilgan. Maqolada shuningdek, ilk turkiy yozma yodgorligimiz “Qutadg‘u bilig” asari muallifi Yusuf Xos Hojibning so‘z so‘zlash odobi haqidagi fikrlari talqini berilgan.

Kalit so‘zlar: Yusuf Xos Hojib, “Qutadg‘u bilig”, Imom G‘azzoliy, turkiy xalqlar, so‘z qudrati, sukut qilmoq, otalar so‘zi, maqollar.

РАЗМЫШЛЕНИЯ О СИЛЕ СЛОВА В "КУТАДГУ БИЛИГ" ЮСУФА ХОС ХАДЖИБА

Аннотация

В этой статье сила слова и то, что наши предки глубоко понимали силу слова и действовали на него издревле, основой сотворения мира был "Ярал!" Считается, что оно состоит из слова (по-арабски «Кун!»). В статье также дается интерпретация размышлений о речевом этикете Юсуфа Хос Хаджиба, автора нашего первого турецкого письменного памятника «Кутадгу Билиг».

Ключевые слова: Юсуф Хос Хаджиб, «Кутадгу билиг», имам Газали, тюркские народы, сила слова, молчание, изречения отцов, пословицы.

REFLECTIONS ON THE POWER OF WORDS IN "KUTADGU BILIG" BY YUSUF KHOS HAJIB

Annotation

In this article, the power of the word and the fact that our ancestors deeply understood the power of the word and acted on it since ancient times, the foundation of the creation of the world was "Yaral!" It is thought that it consists of the word (Arabic for "Kun!"). The article also provides an interpretation of Yusuf Khos Hajib's thoughts on speech etiquette, the author of our first Turkish written monument, "Kutadgu Bilig".

Key words: Yusuf Khos Hajib, "Qutadgu bilig", Imam Ghazali, Turkic peoples, the power of words, silence, sayings of fathers, proverbs.

Kirish. Qadimdan ma‘lumki, folklor adabiyotda so‘z magiyasi degan ibora mavjud bo‘lgan. Buni aynan olqish va qarg‘ish so‘zlar misolida ko‘rishimiz, ya‘ni so‘zning qanchalik sehrlil kuchga egaligini kuzatishimiz mumkin. Qadimda ota-bobolarimiz har bir aytilgan so‘zning kuchini, salmog‘ini anglay bilganlar va bunga amal qilganlar. So‘zimizning isboti sifatida qadimgi turkiy bitiklardan biri “To‘nyuquq” bitigtoshida “Tangri: “O‘l”, – dedi, barcha turkiy xalqlar o‘z begiga bo‘ysunmagani uchun o‘ldi, qirilib bitdi”[2] jumlasiga duch kelamiz. Bundan ko‘rinadiki, so‘z qudrati qadimdan insonlarni hayratlantirib, o‘ziga jalb qilib kelganligining guvohi bo‘lamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotshunoslikda an‘anaviy muammo va masalalar bilan bir qatorda, qadimiy manba va asarlar yo‘nalishda ham o‘z yechimini kutayotgan qator masalalar mavjud. Ma‘lumki, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari faqat O‘zbekistondagina emas, balki jahon turkiyshunosligida ham alohida diqqat va e‘tibor bilan o‘rganiladigan qadimiy va jiddiy adabiy manbalardan biri hisoblanadi. Hozirgacha bu borada jahon turkiyshunoslari juda katta hajm va ko‘lamdagi ishlarni amalga oshirishgan. Asar qo‘lyozmalarini manbashunoslik va matnshunoslik yuzasidan tadqiq va tahlil etish, uning adabiy hamda lingvistik nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy bahosini berish, asar matnini tarjima va nashr qilish borasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishildi. Bu borada, ayniqsa, V.V.Radlov, S.YE.Malov, R.R.Arat, Q.Karimov, YE.E.Bertels, O.A.Valitova, I.V.Stebleva, Fitrat, Q.Karimov, B.To‘xliyev, Q.Sodiqov singari olimlarning alohida xizmatlari e‘tiroflarga sazovor.

Tahlil va natijalar. XI asr turkiy adabiyot namoyondasi Yusuf Xos Hojib ham so‘zning qudratini teran anglay olgan adibdir. Shoir til va uning ofati, so‘zning foydali, foydasiz jihatlariga “Qutadg‘u bilig”ning boshlang‘ich qismlarida, uning fazilatlariga haqida “Tilning fazilati, foydazararlari haqida so‘zlaydi” bobidagi o‘g‘ilga otaning pand-nasihatlari batafsil to‘xtalib o‘tgan bo‘lsa, asar davomidagi Kuntug‘di elig va Oyto‘ldi o‘rtasidagi savol-javoblarda esa tildan chiqqan har bir so‘zning salmog‘ini, uning buyukligini “So‘zlamog‘ yaxshiroqmi yoki so‘zlamay jim turmog‘ (yaxshiroqmi) ekanligini aytadi” deya nomlangan alohida bir bobda Oyto‘ldi javobi misolida o‘zining ezgu qarashlarini keltirib o‘tgan.

Yash‘l kəkđn indı yag‘yz yerke soz
Sezi birlə yañluq ag‘yr qıldıy öz(207)
Tabdili:
So‘z bo‘z yerga yashil ko‘kdan tushdi,
So‘zi tufayli inson o‘zini ulug‘ qildi[1].

Yuqorida aytganimizdek, so‘z ma‘lum qudratga ega hodisa sanaladi. Tangri o‘zining qudrati va jamoliga ko‘zgu bo‘ladigan yaratq barpo etishni istaydi, kunlarning birida: “Yaral!” (arabchasi “Kun!”) degan so‘zni aytadi. Yaratgan amrining ifodasi bo‘lmish ana shu birgina so‘zning kuchi bilan o‘n sakkiz ming olam va undagi jamiki narsalar dunyoga keladi. Shoir ham yuqoridagi misralar orqali so‘zning qudratini va barcha Xudoning yaratqilari birgina jumla orqali vujudga kelganligini isbot etgan. Shoir til xosiyatlari haqida fikrlarini davom ettirar ekan, uning ijtimoiy hodisa ekanligini, jamiyatning asosini tashkil etishini va tilni tilmoch deya atab, til orqali kishi ro‘shnolikka chiqqanligini keltirib o‘tadi:

Uqushqa biligkə bu tilməchi til
Yaruttachy erni yorəyq tilni bil (158)

Uquvga, bilimga tilmoch – bu til,

Kishini ro'shnolikka chiqargan ravon til deb bilgin[1].

Yusuf Xos Hojib tilni bejiz tilmochna qiyoslamaydi, chunki til orqali biz ichki tuyg'ular, o'y-xayollar, mulohazalarimizni bildira olamiz. Bu haqda Imom G'azzoliy o'zining "Til ofatlari" kitobida "Olloh inson qalbini ilmlar xazinasi bilan to'ldirib, uni rahmat pardasi bilan yopdi. So'ngra inson botinni zohirga tarjima qiladigan til bilan quvvatlantirdi. Yopilgan parda ko'tarildi, til haqni dedi, nutq ravon bo'ldi. Bu e'tibor, bu fazldan marg'ub tildan faqat shukronalar sochildi" [3] degan yuqoridagi misralarga monand jumalarni keltirib o'tgan:

Kishig til ag'rlar bulur qut kishi

Kishig til ujuzlar yar'r er bash (159)

Tabdili:

Kishini til e'zozlaydi, kishi (u tufayli) baxtga erishadi, Kishini til qadrsiz qiladi, er boshini yoradi[1].

Yusuf Xos Hojib asarda fikrlarini asoslashda she'riy san'atlardan o'z o'rnida, mohirona foydalana olgan. Yuqorida esa tazod san'atidan foydalanib til insonni e'zozlashi, yaxshilikka xizmat qilishini va baxtga erishishini, aksincha bo'ladigan bo'lsa, til orqali boshga qanchalar kulfat kelishini aytib o'tadi.

Quyidagi misralar orqali tashbeh san'atini qo'llab, tilni arslonga mengzaydi: agar boshing til kulfatidan yorilmasin desang, uni qafasda saqla, degan ibratomuz fikrni keltirib o'tadi.

Til arslan turur ker eshikdə yatur

Aya evlyg ars'q bashynny yeuyr (160)

Til hovlida [ya'ni qafasda] yotgan arslon kabidir,

Ey, qafasdagi (makkor) vahshiy boshingni eydi[1].

Yusuf Xos Hojib so'z va so'zlash odobi haqidagi fikrlarini davom ettirar ekan, ortiqcha so'zlash foydasiz bo'lib, barcha ishning me'yori, o'z yo'rig'i bo'lganidek nutq so'zlashning ham me'yori bo'lgani yaxshi deydi. Har bir aytilgan so'zning so'qirlarga ko'z bo'lib yo'l ko'rsatgani yaxshi. Sulaymon ibn Dovud alayhisalloom aytdi: "Gap kumush bo'lsa, sukut oltindir"[3]. Agar so'zlash qo'ldan kelmas ekan, unda sukut qilishni ham bilish lozim.

Burunduqlug'-ul sөz tevə burn-teg

Barur qancha yatsa tetir boynы-teg(203)

Bilib sözlədəchi kishi bar ökysh

Аны buldəchi er meңə kəd kəshysh (204)

Tabdili:

So'z tuya burnidek jilovlangan bo'ladi,

Tuya bo'ynidek qaerga bursa, shu tomonga boradi.

Bilib so'zlovchi kishilar talay bor,

Buni biluvchilar mening nazdimda juda qadrli[1].

So'zni ham o'z o'rnida va me'yorida, ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda qo'llay olish so'zlovchining bilim va salohiyatini ko'rsatib beradi. Har bir so'z salmoqdor va hayotiy tajribalarni o'zida mujassam qilsa, insondan kelajak avlodga meros bo'lib qoladi hamda uzoq yashay oladi. Shoir so'z haqidagi fikrlarini xulosalar ekan, bularning barchasini ota o'g'liga bildirishni maqsad qilganligini ta'kidlaydi:

Sөzym og'luma sözlədim men toңa

Og'ul mendə altyn meңəni тыңа (183)

Seңə sözlədim men sözym ey og'ul

Seңə berdi bu pand özym ey og'ul (184)

Kүmysh qalsa altun meniңdin seңə

Аны tutmag'ыл sen bu sözkə teң-ə (185)

Kүmysh ishkə tutsa tugər alqынur

Sөzym ishkə tutsa күmysh qazg'anur (186)

Tabdili:

So'zimni men bahodir o'g'limga so'zladim,

O'g'lim, mendan tubandagi miyani [ya'ni aqlni] tingla.

Men so'zimni senga so'zladim, ey o'g'il,

Bu pandni o'zim senga berdim, ey o'g'il.

Mendan senga kumush, oltin qolsa,

U(lar)ni sen bu so'zga teng tutmagin.

Kumushni ishga solsang tugaydi, olqinadi,

So'zimni ishga tutsang, (sen uchun) kumush qozonadi[1].

Shoir bu so'zlarni keltirishdan maqsadi o'g'il-(farzand)ga pand-nasihat qilish ekanligini ochiqaydi va har bir so'ziga amal qiladigan bo'lsa, zarar ko'rmasligini, har bir aytilgan so'zi oltin va kumushdan ham a'lo ekanligini, oltin kumush tugagan taqdirda ham ota nasihatlarini unga umrbod yo'ldosh bo'lib, to'g'ri yo'lga boshlashini, hayoti farog'atda o'tishini ta'minlashini aytib o'tadi. Ota nasihatlarini deganda asosan maqol, matallar nazarda tutilgan bo'lib, ular ajdodlarimizning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini o'zida mujassam etadi. Yusuf Xos Hojib ham asarni o'sha davrda qo'llangan hikmatli so'z va maqollar bilan boyitishga harakat qilgan:

Masal keldi tyrkchə muңar meңzətyr

Ane sözlədim men munu yənzatur (270)

Uqush kərki sөz-ul bu til kərki sөz

Kishi kərki yuz-ul bu yuz kərki kəz(271)

Tili birlə yəñluq sözi sözləyür

Sөzi yaxshы bolsa yuzи suvlanur(272)

Tabdili:

Bunga o'xshatadigan turkcha masal bor,

Bunga moslab shu (masal)ni so'zladim:

Zakovat ko'rki so'zdir, bu tilning ko'rki so'zdir,

Kishining ko'rki yuzdir, bu yuzning ko'rki ko'zdir.

Inson o'z so'zini tili orqali so'zlaydi,

So'zi yaxshi bo'lsa, yuzi suvlanadi (ya'ni obro' qozonadi)[1].

Va o'z navbatida asarda keltirilgan jumalarning ko'pchiligi bugungi kunda ham o'z salmog'ini yo'qotmagan va maqollar ko'rinishida xalqimiz ma'naviyatini, tafakkur olamini boyitishga xizmat qilmoqda. Ularni quyidagicha qiyoslashimiz mumkin:

Sөzyңni kədəzgil bashың barماسun

Tiliңni kədəzgil t'shyң sымماسun(163)

Esənlik tiləsə senin bu özyң

Tiliңdə chыqarma yarag'sыз sөzyң(166)

Tabdili:

So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin,

Tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin.

Sening o'zing esonlik tilasang,

Tilingdan yarog'siz so'zingni chiqarma[1].

Yusuf Xos Hojib keltirgan ushbu ibratomuz fikrlar bugungi kunda ham xalqimiz maqollar xazinasida o'z holicha yoki biroz o'zgarishlarga uchragan holda mavjudligining guvohi bo'lamiz:

Izzat tilasang, ko'p dema,

Sihat tilasang, ko'p ema[4].

Tilingni tiy, tishing sinmasin.

Tishginamdan roziman,

Og'izginamning qal'asi.

Tilginamdan qo'rqaman,

Boshginamning balosi[4].

Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub o'lmas obidada bizni hayotda to'g'rilikka, halollikka, o'z nafsimizning quli bo'lmaslikka chorlovchi mazmun va mohiyati jihatidan turfa xil maqollar va hikmatli so'zlarga duch kelamiz.

Өlyg'din tirigkə qumaru sөz-ul

Qumaru sözi tutsa asg'ы yuz-ul(187)

Tabdili:

O'lgan(lar)dan tirik(larga) meros so'zdir,

Meros so'zi [ya'ni otalar so'zi]ni tutilsa, nafi yuz-yuzdir[1].

Xulosa. Bu yerda "qumaru", ya'ni "meros" so'ziga e'tibor qiladigan bo'lsak, ota o'z farzandiga boylik, uy-joy, mol-mulkni meros qilib qoldirishi mumkin. Ammo ota

merosini o'z o'rnida tejab-tergab ishlatgan farzand umrida zavollik ko'rmaydi, aksi bo'lsa, farzand ota o'tgandan keyin qiynaladi. Yusuf Xos Hojibning o'zi ham avlodlarga nodir so'z: pand-nasihatlar, hikmatli so'zlar, maqollar jamlangan tengsiz kitobni qoldirdi. Bu benazir merosdan qancha foydalansak, shuncha ko'payadi. Insoniyat esa millati, irqi, qaysi hududda yashashidan qat'i nazar undan beminnat, beg'araz bahramand bo'la oladi.

Kishi ellsə andyn qumarı qal'r
Munuqı qumarum seņə ey bilir(1446)
Sevərim sen erdiñ ey eliğ meņə
Aсығ'l'g' qumarumn' qodtum seņə(1447)
Aсығ'lyğ' qumarı kishikə sөz-ul

Qumarı sözi tutsa asg' yuz-ul(1448)
Munu söz bitib qodtum emdi ch'n'
Un'tma bu sözni un'tma meni(1449)
Tabdili:
Kishi o'lsa, undan esdalik meros qoladi,
Mening senga esdaligim mana shular, ey dono.
Men uchun sen sevikli kishi eding, ey elig,
Foydali esdalik senga qoldirdim.
Qishi uchun foydali esdalik so'zdir,
Esdalikka amal qilinsa, foydasi yuz-yuzdir.
Mana, men chin so'zlarni yozib qoldirdim,
Bu so'zlarni va meni unutmam[1].

ADABIYOTLAR

1. Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг” (Саодатга йўлловчи билим), транскрипция ва хозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Каримов Қ. - Т.: Фан, 1971.
2. Исҳоқов М., Содиқов Қ. ва Омонов Қ. «Мангу битиглар». Тошкент, 2009.
3. Абу Ҳомид Ҳаззолий. Тил офатлари китоби.”Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси. Тошкент. 2011.
4. O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar Mirzayev T. va boshqalar. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, Toshkent. 2005.
5. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва унинг “Қутадғу билиг”асари. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 1991, – 64 б.
6. Абдурахмонов Ғ. «Қутадғу билиг» асари хақида. Научные труды ТашГУ им. Ленина В.И. и Ферганского Госпединститута им. Улугбека вып. 377. гуманитарные и естественные науки. Ташкент-Фергана, 1970. с. 186-190.
7. Асланов В.И. О лексических параллелях в «Қутадғу билиг» и азербайжанском яхыке. Сов. Тюрк., 1970 №4 43-47-с.
8. Баролина И. поэма «Қутадғу билиг». В кн.: Наука быть счастливым...с 101-115.



Феруза ЖУМАЕВА,

Доцент Навоийский государственный педагогический институт

E-mail: feruzaruziyevna68@mail.ru

Рецензент: профессор Эргашева Г.И., доктор филологических наук, Узбекский государственный университет мировых языков

ЭМИГРАЦИОННЫЙ ТРАНСФОРМАЦИОННЫЙ ПОТЕНЦИАЛ ЧИСЛИТЕЛЬНОГО “ОДИН”

Аннотация

Данная статья посвящена описанию эмиграционного потенциала числительного “один” в русском и узбекском языках. Сделан сопоставительный анализ функционирования слова “один” в исследуемых языках.

Ключевые слова: Анализ, транспозиция, переход, часть речи, транспозит, падежная форма, один.

EMIGRATION TRANSFORMATIONAL POTENTIAL OF THE NUMERAL “ONE”

Annotation

This article is devoted to the description of the emigration potential of the numeral “one” in the Russian and Uzbek languages. A comparative analysis of the functioning of the word “one” in the studied languages was made.

Key words: Analysis, transposition, transition, part of speech, transit position, case form, one.

“БИР” СОНИНИНГ ЭМИГРАЦИОН ТРАНСФОРМАЦИЯ ПОТЕНЦИАЛИ

Аннотация

Ушбу мақолада рус ва ўзбек тилларида “бир” сонини эмиграцион трансформация потенциали турлари кўрилган. Тадқиқ қилинаётган тилларда “бир” сонини ишлатилиши қиссий таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Таҳлил, транспозиция, ўтиш, сўз туркумлари, транспозит, келишик шакли, бир.

Введение. Вопрос о транспозиции, классификация всех случаев переходности в области частей речи рассматривался в трудах Л.Л. Буланина, В.Н. Мигирова, В.И. Чуглова, М.Ф. Лукина, Е.П. Калечица, Т.М. Николаевой, Л.Д. Чесноковой. Важным для теории переходности на уровне морфологии можно считать установление признаков проявления переходности в области частей речи, частично описанных ранее в лингвистической литературе, но систематизированных, уточнённых и дополненных В.Н. Мигириным. Теорию переходности развивали также М.Ф. Лукин, Н.А. Каламова, Е.П. Калечиц, А.Я. Баудер, Ю.Г. Скиба и другие, но и до настоящего времени многие из важных вопросов остаются нерешёнными.

Узбекские лингвисты: Т. Турдибоев, Г. Абдурахмонов, А. Гулямов, С. Облокулов, Ж. Хамдамов, О. Ким, З.С. Исоков, А.Е. Ботирова, А.Б. Пардаев, С. Маматкулов, Я.Д. Эльтазаров, А. Бегматова, И.И. Расулов – изучали проблемы классификации частей речи и явления переходности.

В зависимости от направления диахронной трансформации различают два типа: иммиграционную, пополняющую какую-либо часть речи за счёт других частей речи, и эмиграционную. при которой какая-либо часть речи “отдаёт свои слова в другие части речи, иммиграционная трансформация, в свою очередь, включает следующие процессы”: субстантивацию – переход в имена существительные, адъективацию – в прилагательные, нумерализацию – в числительные, прономинализацию – в местоимения, адвербиализацию – в наречия, предикативацию – в безличию – предикативные слова, препозиционализацию – в предлоги, конъюнкционализацию – в союзы, партикуляцию – в частицы, интеръективацию – в междометия.

В лингвистической литературе можно найти семантические, морфологические и синтаксические характеристики количественного числительного “один”. Нужно отметить, что процесс транспозиции слова “один”

является неполным на нынешней стадии развития русского языка.

Kirish. Dramatik asarda voqea kechayotgan joy, vaqt, sahnadagi dastlabki holat kabilar haqidagi muallif qaydlari ham muhim g'oyaviy-estetik ahamiyatga ega. Zero, ular shunchaki sahnalashtiruvchi rejissyor yoki bezakchi rassomga mo'ljallangan yo'riqnomi bo'lib qolmay, balki eng avval o'quvchiga sodir bo'lajak voqea mohiyatiga kirish, ishtirok etuvchilar haqidagi (ijtimoiy maqomi, turmush tarzi, fe'l-xo'yi) ilk tasavvurlarini konkretlashtirishga yordam berishga safarbar etilgandir. Masalan, “Temir xotin”dagi voqea yuz beradigan joy tavsifi “Qishloq. Oddiy, kamtarona hovli” degan so'zlar bilan boshlanadi. Bu esa, Qo'chqorni tip deganimiz kabi, hovli ham tipik ekanini ta'kidlashga xizmat qiladi. O'sha tipik – kosasi oqarmaydigan o'zbek ishchisi xonadonidagi “har bir jihoz, har bir buyumda nimadir etishmaydi”ki, bu – ham voqea mohiyatini ochish, ham unga muayyan g'oyaviy-hissiy munosabatni shakllantirish vositasi” [15]. Darhaqiqat, dramada g'oyaviy-estetik mazmunning hayotiyiligi voqea-hodisalar jarayonida kechayotgan joy, vaqt, sahnadagi holat, qahramonlar ruhiyatining harakatida yaqqol aks etadi. Drama janrida biror bir hayotiy voqea-hodisalar to'liq tasvirlanmaydi, unda inson hayotining eng muhim qirralari namoyon bo'ladi, ya'ni dramaturg g'oyaviy-estetik niyatiga qarab asarda butun bir voqealarni shunday ifodalaydiki, tomoshabin yirik hajmdagi voqealar mohiyatini kichik tasvirlardan ham tushunib etadi.

Zamonaviy turk dramaturgiyasining yirik ijodkorlaridan biri Haldun Taner dramalarida ham g'oyaviy-estetik mazmunning hayotiyiligi yaqqol ko'zga tashlanadi, tasvirlanayotgan voqea-hodisalar mohiyati kitobxonni o'ziga jalb etadi, kechayotgan jarayonga qiziqtiradi, fikr-mulohazalar tug'diradi va kuchli hayajonga soladi. Shu sababli ham dramaturg dramalari ko'p tillarga tarjima qilindi, qayta-qayta sahnaga qo'yildi, tomoshabinlar tomonidan sevib tomosha qilindi, shu bilan birga qator ilmiy-nazariy tadqiqotlar amalga oshirildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turk adabiyotshunosligida H.Taner dramaturgiyasiga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Turkiyada H.Taner ijodida dramatik janrlarning o'rni [3] dramatik janr imkoniyatlari va uslub masalasi [2] haqida monografik tadqiqot va ilmiy risolalar nashr etilgan. Ukrain adabiyotshunoslari Y.A.Oganova “Традиции народной драмы в современной турецкой драматургии” [9] nomli nomzodlik dissertatsiyasida an'anaviy turk teatri xususiyatlarining Taner dramalarida qanday shaklda aks etganligi masalasida to'xtalgan. L.N.Starostov “Новый жанр в турецком театре (о театре-кабаре Х.Танера и его пьесе «Шабан, спасающий ватан»)» [11] hamda “Современная турецкая пьеса” [10] nomli ilmiy asarlarida Tanerning kabare teatri xususiyatlariga qisman diqqat qaratgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy turk dramaturgiyasining yirik namoyandasi Haldun Taner ijodini o'rganishda qiyosiy-tipologik va psixologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Dramaturgning "Keshanlik Ali dostoni" ("Keşanlı Ali Destanı") asarini tadqiq etishda qiyosiy-tipologik tahlil metodidan, "Bugunning odami" ("Günün Adamı") va "Eshakning soyasi" ("Eşeğin Gölgesi") asarlaridagi qahramonlar o'rtasidagi konfliktli vaziyat va holatni tahlil qilishda psixologik metod tamoyillari va usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Haldun Taner ijodiga nazar solsak, u XX asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar davrini boshidan o'tkazdi. Ikkinchi jahon urushi, uning oqibatlarini, Turkiyadagi iqtisodiy tanglik, ijtimoiy og'ir vaziyat, xalqning maorifsizligi va madaniy jihatdan qo'rqoqligi, millat taqdirining xavf ostida qolishi Taner dramalarining asl g'oyasini belgilaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, islohotchilik, ma'rifatparvarlik g'oyalari ijodkor uchun har doim g'oyaviy asos bo'lib xizmat qilgan. Haldun Taner o'z davrining dolzarb va muhim g'oyalarini adabiy jarayonga olib chiqdi.

Shubhasiz, Tanerning zamonaviy teatrni an'anaviy teatr bilan birlashtirgan eng muvaffaqiyatli asari "Keshanlik Ali dostoni" ("Keşanlı Ali Destanı")dir. Ushbu asarda u epik teatrning xususiyatlaridan foydalangan holda, tomoshabinni ko'p qirrali intellektual jarayon ichiga qo'yadi va u qahramon yaratish, dialoglarni tuzish, spektakldagi o'yin sahnalari, so'z o'yinlari va kuldirish effektlari bilan xalq teatri an'anasidan, xususan turk milliy o'rta o'yinidan foydalanadi [7].

Asarda ijro etiladigan qo'shiqlarning ba'zilar O'rta o'yinining an'anasini ifoda etsa, ba'zilar orasida Brextga oid epik teatrning uslubi ko'rinadi. Asarda turklarning O'rta o'yini xarakteridagi olti misrali qo'shiq sahna ortidan kuylanib, Sharifaniding sahnaga kirib kelishi bilan boshlanadi:

Avvalo salomdan boshlaylik so'zni,

Qissadan hissa olish sizga havola.

Keshanlik Ali surati nigohingizda,

Dovrug'i etti iqlim ichra doston tillarda.

Marhamat ko'ring, ne bitilmish dostonda

O'n besh fasl ila tinglang, aylay bayonin! [14]

Ijodkor dramada buzilayotgan kulbalarda yashaydigan insonlar olamini, turmush tarzini, hayotga bo'lgan muhabbatini qalamga oladi.

Asarning asosiy g'oyasi shundan iboratki, xo'rlangan kambag'al insonlar o'zlari uchun qahramon qidiradi, muammolarini echa oladigan, tashabbuskor qahramon kutadilar. Chorasiz, kambag'al insonlar o'zlari xayolan yaratgan qahramonlar ortidan yurishga mahkum edilar. Xalq qahramon yaratishga moyil. Nima bo'lishidan qat'iy nazar, insonlar o'zlariga tegishli bo'lmagan narsalarga o'ralashib qolmasligi va ikkiyuzlamachi, ta'magir insonlarning foydasiga xizmat qilmasliklari kerak. Odamlar rostgo'y va oriyatli bo'lishi, jamiyat esa qoloqlik va xayoliy qahramonlar ortidan quvishdan qutilishi lozim.

Dramaturg asarlarida g'oyaviy-estetik mazmunning hayotiyligini ta'minlash maqsadida konfliktli vaziyat va xarakterlardan unumli foydalana oldi. Ma'lumki, "Konflikt, avvalo, estetikaning go'zallik muammosi bilan mustahkam bog'liq. Hayotda go'zal narsa va hodisalar orasida doimiy ziddiyatlar bor. Xunuk voqealarning fosh qilinishi, qoralanishi go'zal voqealarni ulug'lash vositalaridan biridir. Ijtimoiy voqealarning go'zal sifatleri konflikt tufayli to'laroq namoyon bo'ladi" [1].

Darhaqiqat, hayotdagi har bir yaxshi va yomon tushunchalar ziddiyatlar fonida yanada yaqqol aks etadi, shunday qarash asosida mukammal hayot haqiqati namoyon bo'ladi. Inson xarakteridagi qarama-qarshiliklar esa uning asl qiyofasini aks ettiradi, o'zbek dramaturgi A.Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida ta'kidlaganidek, bir tomondan diyonat, bir tomondan xiyonat singari yaxshi va yomon

xulqlar inson hayoti va taqdirida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, dramatik konfliktning spetsifik xususiyati, hayotdagi konfliktidan farqi shundaki, unda hayotdagi kurashni bir kunlik hodisa sifatida ifodalaganda ham, uzoq yillar davomidagi turmush konfliktini tarzida aks ettirganda ham, o'z mohiyatini va xususiyatini saqlab qoladi [6].

Jumladan, dramaturgning "Bugunning odami" ("Günün Adamı") nomli birinchi pesasida muxolifat partiyasidan vakillik taklifini olgan professor, bu masala bo'yicha o'z qarorini chiqarishda qiynalayotgan bir vaqtda, uning atrofidagi barcha kishilar professorning qaror qabul qilishiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi. Assistenti, dotsent uning davlat vakili bo'lishiga qarshi bo'lsa, professorning xotini, bolalari va qaynotasi uni shu lavozimni egallashi uchun qo'llab-quvvatlaydilar. Asardagi dastlabki ichki konflikt shu yerdan boshlanadi. Professorning ikkilanishi, qaror qabul qilishda qiynalishi, uning ichki kechinmalarida aks etadi.

Dramada professorning turli xarakterlar, xususan, o'z assistenti, o'g'li, qaynotasi, qaynisi va kotibasi o'rtasidagi mavda konfliktlar ham aks ettirilgan bo'lib, bularning barchasi asosiy konflikt — ichki konfliktga zamin sifatida xizmat qiladi. Dramaturg "Bugunning odami" ("Günün Adamı") asari bosh qahramoni professorning ayanchli taqdiri orqali asar qahramonlari bilan ular yashayotgan hayotiy sharoit orasidagi konfliktini yuksak mahorat bilan aks ettiradi.

"Keshanlik Ali dostoni" ("Keşanlı Ali Destanı") dramadasida epik uslubni sinab ko'rgan Haldun Taner, qoloq bir hududda yuz bergan buzilishlarning barcha qirralarini turli konfliktlar orqali ochib beradi. Asarda mafiya davlat hududlarini bo'lib yuboradi va ularni fuqarolarga sotadi, bulardan bexabar bo'lganlarning uylarini buzadilar yoki buzmaslik uchun pulini oladilar. Pulni to'lamanlarga zo'ravonlik qiladilar yoki o'ldiradilar. Ali ismli yigit ushbu mafiya a'zolaridan birini o'ldiradi, qamaladi va xalq qahramoniga aylanadi. Odamlar qonun bilan hal qilinmaydigan muammoning yechimini qonunbuzarlikdan izlashadi. Ali jazoning bir qismini o'tab, amnistiyadan foydalanib, mahallaga qaytib keldi. Mahalla uni mukofotlash uchun bo'lajak saylovlarda muxtor qilib saylashga qaror qiladi. Alida shakllangan qarama-qarshi tushunchalar uning o'z so'zlari bilan berilgan: "Hayotda yo ezilib, oyoq ostiga tushasiz yoki tepaga chiqib, birovni ezasiz. Ikkala vaziyatning o'rtasi yo'q" [13]. Qahramon nutqida ham "ezilgan" – "ezgan" ikkita bir-biriga zid xarakterlar hayotiy misollar asosida ochib berishga harakat qilingan. Asar qahramoni ta'kidlaganidek, dramada xarakterlar ikki tabaqaga ajratilgan holda tasvirlanadi. Bir tabaqa vakillari ezilgan, aldangan, xo'rlangan, haqoratlangan va iymon-e'tiqiddi poymol etilgan jabrdiyda qishloq odamlari bo'lsa, ikkinchi tabaqa xalqni ezib kelgan, aldagan, xo'rlagan, haqoratlagan, ishonchini suiste'mol qilgan amaldorlardan iborat edi.

Tanerning barcha dramalarida bo'lgani kabi, ushbu dramadasida ham asosiy konflikt – bu mavjud tuzum bilan mamlakat fuqarolari o'rtasidagi ziddiyat, muallifning hayotiy sharoitdan noroziligidir. Bu konflikt oddiy xalqning og'ir turmush tarzi, uning bir to'da zo'ravonlar tomonidan ezilib kelishiga davlat hokimiyatining beparvo munosabati, nohaq talon-taroj qilinayotgan odamlarning o'z haloskorini izlashi voqealari orqali aks ettiriladi. Xalqning o'zaro keskin bir-biridan farq qiladigan ikki tabaqaga ajratib ko'rsatilishi, boylar (O'naranan sulolasi) va kambag'allar (Ali va uning tarafdorlari) sinfi o'rtasidagi shiddatli kurash xarakterlararo konflikt orqali namoyon bo'ladi. Hokimiyatni o'z qo'lga olgan Ihyo O'naranan istaganicha yerlarni "sotib olib", u yerga qurilish qilib, qayta xalqqa sotish bilan shug'ullanadi. Ihyo o'z tarafdorlarining muxtorlikka saylanishi uchun qo'llab-quvvatlaydi, saylovlarda har qanday egri yo'llarni sinab ko'radi, o'z maqsadiga erishish yo'lida qotil yollab, odam o'ldirtirishdan ham toymaydi. Taner bu xarakterga Ali obrazini qarama-qarshi qo'yadi. Dramada asosiy qahramonlar

o'rtasidagi konflikt tasodif tufayli paydo bo'ladi, ya'ni Ihyo O'naran yollanma qotil Ja'farga o'z yo'lida to'g'anoq bo'lgan mafiya a'zosi Balchiq Ehsenni o'ldirtiradi. Qotil jinoyat joyidan qochgach, Ali shu yerda paydo bo'ladi va butun shubhalar unga tushib, sevgilisining tog'asi bo'lgan Balchiq Ehsanning qotilligida ayblanib to'qqiz yilga qamaladi. Qamoqdan chiqqunga qadar asl qotilning kim ekanligini bilmagan Ali, haqiqatni qotilning o'z og'zidan eshitadi:

Z u l a y h o (*kiborlik bilan jirkanib*). Yo'qol bu yerdan, iflos, razil! Biz senga qo'ziqorinmizmi, ezasan? Tarbiyasiz hayvon!

J a ' f a r. Tiling kesilsin. Sizning mamlakingizda erkaklar yashirilib, ayollar maydonga tushadimi? Chiq, zinodan bo'lgan! Men qilgan qotillikni "Buni men qildim!" deb dunyoga jar solibsang. Xalqni laqillatibsan! Qani, mard bo'lsang, maydonga chiq! Balchiqni kim o'ldirganini xalq bilsin[14].

Asardagi konflikt Alining Ja'farni o'ldirishi bilan yechim topadi. Bu safar Ali haqiqatdan ham qotil bo'ladi. U yana qamoqqa qaytadi, ammo Keshanli Ali dostoni umrining oxirigacha davom etadi.

Ali va Ihyo o'rtasidagi konflikt ikki yo'l bilan yechiladi: siyosiy-iqtisodiy jihatdan Ali Ihyoni inqirozga yuz tuttiradi, lekin Ihyo ham Alining qotilga aylanishiga, sevgilisiga yetisha olmasligiga sabab bo'ladi. Epik teatrga xos bo'lgan tomoshabinga xulosa chiqartirish xususiyati shunda namoyon bo'ladi. Kim g'olib-u, kim mag'lub, buni tomoshabin hal qiladi.

"Eshakning soyasi" ("Eşeğin Gölgesi") dramasi syujeti boshdan oxirigacha konflikt asosiga qurilgan. Dramada Obid va Zohid ismli boy savdogarlarning qo'lida ishlaydigan Shaban va Maston ismli shogirdlarining o'zaro tortishuvi sud, davlat parlamenti, siyosiy partiyalar miqyosiga ko'tarilib, butun Abdalya nomli xayoliy mamlakat fuqarolari ikki o'zaro dushman tarafga ajralib ketishiga olib keladi. Dramada Mastonning Shabanga minish uchun eshakni ijaraga berishi, ularning birga yo'lga chiqishi, yo'lda havoning issiqligi tufayli ikkisinin eshak soyasini talashib qolishi va natijada Maston, Shabanga eshakning soyasini emas, balki uning o'zini ijaraga berganini aytib, eshakning soyasi uchun bir tanga so'ragani uchun yuzaga kelgan tortishuv voqeasi konfliktning tuguni bo'lib xizmat qiladi. Shaban bir tanga to'lashdan bosh tortadi. Ushbu bahs-munozara natijasida boshlangan to'qnashuv sud zaligacha etib boradi.

Shaban va Maston sud jarayonida kelib chiqqan xarajatlar tufayli, da'vodan voz kechishni istaydi. Biroq, ularga sud jarayoning boshlangani va orqaga qaytish mumkin emasligini bildirib, ikkalasiga ham advokat yo'llatiradi.

Ushbu jarayondan sud ham, ikki da'vogarning xo'jayinlari ham, advokatlar ham o'z manfaatlari uchun foydalanadi. Bitta majlisda tugashi mumkin bo'lgan bu masala uzayib boradi va butun Abdalyaga tarqaladi. Asar syujeti konfliktning yechimini orqaga surib boradi. Konfliktning sababchilari bo'lgan Shaban va Maston da'vo qilgani uchun pushaymon bo'ladi, lekin endi voz kechishning iloji bo'lmaydi. Davlat miqyosida o'zaro muholif bo'lgan ijtimoiy va siyosiy guruhlar ham eshak va uning soyasi bahonasida o'zaro kurashni boshlaydilar, voqea odamlarni soyachilar va eshakchilar kabi ikki guruhga bo'linishiga olib keladi. Hodisa avj olayotganligi sababli Oliy Sud hech qanday qaror qabul qilmaydi va ish Oliy Kengashga yuboriladi. Asar epik dramaga xos bo'lgan element – hikoyachi tomonidan izoh bildirilishi orqali quyidagi she'riy parcha bilan yakun topadi:

*Ozan: "Böyle biter masalımız
Onlar ermiş muradına
Biz... Çıkalım kerevetine
Ve kafa kafaya
Verip düşünelim
Biz çözüm bulalım bu Derde"[12].
(O'zan: Ertagim shunday tugar,
Hamma murodga etar.
Biz esa... supaga chiqib,
Boshlarimiz qovushtirib
O'ylab ko'raylik birga,
Echim topaylik bu Dardga.)*

Taner dramalari orasida eng kuchli siyosiy tanqid aynan "Eshakning soyasi" dramasi o'z aksini topgan. Yozuvchi ochiqchasiga sud, parlament, partiyalarning nomaqbul faoliyatini achchiq kulgu orqali fosh etadi. Demak, asarning asosiy konflikti fuqarolarning mavjud davlat siyosatiga qarshiligidir.

Xulosa va takliflar. Haldun Taner dramalarida xarakterlararo konfliktlar vositasida o'z davrining bir-biriga qarama-qarshi odamlar hayotini aks ettirishga erishdi. Shuning uchun ham dramaturg dramalarining syujeti hayotiy konfliktlar asosiga quriladi, hayotda shiddat bilan kechayotgan xarakterlararo kurashlarni, ziddiyatlarni asosiy maqsad qilib oladi. Asarlar misolidagi tahlillarga ko'ra, dramatik asar asosidagi konfliktning xarakteri va xarakterlarning o'ziga xosligi bilan nasriy asarlardan ajralib turadi. Dramatik asarlarda konflikt shiddatli va keskin bo'lishi bilan birga, aksariyat hollarda ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot, jamiyatning yetuk ma'naviy hayot tarzi bilan bevosita bog'liq holda aks ettiriladi. Haldun Tanerning yuqorida tahlil qilingan "Bugunning odami", "Eshakning soyasi", "Keshanlik Ali dostoni" singari dramalari ana shunday asarlari sirasiga kiradi.

ADABIYOTLAR

1. Адабиёт назарияси. II томлик. I том. Т., Фан, 1978.
2. Akarsu G. Kabare Tiyatrosu'nu Haldun Taner Anlatiyor. // Varlık, 1967, №11.
3. Akatlı F. Haldun Taner'e mektup. Haldun Taner Kitabı.– İstanbul: Yapı Kredi Yay., 1993.
4. Akyüz Ç. Haldun Taner'in "Keşanlı Ali Destanı" ve Axel Olric'in Epik Yasaları.// Adıyaman Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, 2012. Yıl:5, Sayı:8, Ocak.
5. Anamur H. Haldun Taner'in Tiyatrosunda 'Oyun İçinde Oyun' Uygulamaları ve Kişilik Sorgulamaları Üzerine. Haldun Taner Kitabı. – İstanbul: Yapı Kredi Yay.,1993.
6. Имомов Б. Хаёт ва драматик конфликт (ўзбек драматургияси мисолида).-Т.: Фан, 1968.
7. İpşiroğlu Z. Yüzyıl Sonra Brecht.-İstanbul: Yirmi Dört Yay., 2009.
8. Yüksel A. Haldun Taner Tiyatrosu. – Ankara: Bilgi Yayinevi, 1996.
9. Оганова Е.А. Традиции народной драмы в современной турецкой драматургии. Дисс... док., н. –М., ИСАА МГУ, 2006.
10. Современная турецкая пьеса. Составитель Старостов Л. М., 1977.
11. Старостов Л.Н. Новый жанр в турецком театре (о театре-кабаре Х.Танера и его пьесе «Шабан, спасающий ватан») // «Театр», №10, 1968.
12. Taner H. Eşeğin Gölgesi.-Ankara: Bilgi Yayinevi, 1995.
13. Taner H. Keşanlı Ali Destanı. –İstanbul: İzlem Yayınları, 1964.
14. Танер Х. Кешанлик Али достони. Каюмова М.таржимаси. Т.:ТДШУ, 2021.
15. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari [Matn]. Akademnashr, -T.: 2018.



Nargis QURBONNAZAROVA,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi (PhD)

E-mail: qurbonnazarovan@mail.ru

Maloxat JUMAYEVA,
Termiz davlat universiteti magistranti

E-mail: jumayeva@mail.bk.ru

Filologiya fanlari doktori, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida

O'ZBEK MAROSIM FOLKLORINING TIL XUSUSIYATLARI

Аннотация

O'zbek marosim folklorining o'rganilishiga hamda tasnif masalalariga e'tibor qaratdik. Mavsum marosim, oilaviy marosim hamda so'z magiyasiga asoslangan marosimlar folklori haqida fikr yuritilgan. Ilmiy maqolalarda keltirilgan marosim qo'shiqlaridan ham namunalar keltirib o'tilgan. Ushbu ma'lumotlar, kelgusida, ushbu sohada izlanish olib borayotgan soha vakillari uchun zarur manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Mavsum marosim, oilaviy marosim, leksik xususiyati.

ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКОГО ОБРЯДОВОГО ФОЛЬКЛОРА

Аннотация

Мы сосредоточимся на изучении и классификации узбекского обрядового фольклора. Рассматривается фольклор сезонных обрядов, семейных обрядов и ритуалов, основанных на словесной магии. В статьях также приводятся примеры обрядовых песен. Информация послужит полезным ресурсом для будущих исследователей в этой области.

Ключевые слова: Сезонная церемония, семейная церемония, лексическая особенность.

LINGUISTIC FEATURES OF THE UZBEK RITUAL FOLKLORE

Annotation

We focus on the study and classification of Uzbek ceremonial folklore. Discusses the folklore of seasonal ceremonies, family ceremonies, and rituals based on word magic. Examples of ceremonial songs are also cited in the articles. The information will serve as a useful resource for future researchers in this field.

Key words: Season ceremony, family ceremony, lexical feature.

Kirish. Ushbu maqolada muallif folklor janrlarining ilmiy tasnif qilishning ikki yo'li borligini aytib o'tadi. Birinchisi-mavjud janrlarni g'oyaviy-badiiy jihatlari asosida, ularning o'zaro munosabatini nazarda tutmagan holda tasnif qilish. Bunday tasnifda mavjud janrlarning o'ziga xos tabiati, uning janrlar tarkibidagi tutgan muayyan o'rni belgilanadi. Ikkinchisi-folklor janrlarini janrlararo munosabat nuqtai nazaridan tasnif etish. Har ikkala jihatda ham o'zbek marosim folklori tasnif etilmaganini, marosim folklori janrlari ham to'la aniqlanmaganini ham ta'kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Rus folklori marosim folklorini ikki katta turkumga – mavsum marosim folklori hamda oilaviy marosimlar folkloriga ajratilgan. Marosim folkloriga mansub barcha janrlar mana shu ikki turkum doirasida tahlil etilgan [1].

Bundan tashqari yana bir qator rus folklorshunoslarining marosim folklori tasnifiga doir qarashlaridan hamda fikrlarning bir-biriga mutanosib yoki nomutanosibli haqidagi fikrlarini ilgari suradi. Jumladan, 1962-yilda S.F.Baranov tomonidan yaratilgan, 1977-yilda N.I.Kravtsov bilan S.G.Lazitinlar hamkorlikda yozgan qo'llanmalarda ikkinchi turkum "oilaviy marosim poeziyasi" tarzida emas, balki "oilaviy-maishiy marosim poeziyasi" deb nomlanganligini ko'rsatib o'tadi. Rus folklorshunoslaridan V.Ya.Propp rus marosim folklori janrlarini mavsum-marosim lirikasi hamda oilaviy marosim lirikasiga ajratadi [2]. B.Sarimsoqov ushbu tasnifni to'g'ri tasnif deb qarashda undagi lirika atamasini noo'rin qo'llanganligini, ushbu atama o'rnida "marosim folklori" atamasi qo'llanishini to'g'ri deb baholaydi. Bizning nazarimizda ham "lirika" atamasi kengroq tushuncha bo'lib, adabiy turning biri hisoblanadi. Balki, V.Y.Propp ushbu atamani ko'chma ma'noda qo'llagan bo'lishi, ya'ni marosim

folklori janrlari ham ichki kechinmalarga, his-tuyg'ularga boy bo'ladi va qolaversa marosim folklori janrlari aynan insonning u qanday bo'lishidan qat'iy nazar kechinmalari bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham ana shunday nomlangan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Tadqiqot metodologiyasi. "Lirika" atamasi aynan bir shaxsning ichki kechinmasini bildiradi. Lirik turga mansub janrlar she'riy tarzda bo'ladi. Marosim folklori janrlari esa hammasi ham she'riy tarzda bo'lmasligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari yana rus folklorshunosligi bilan aloqador ko'plab ma'lumotlar ushbu kitobdan joy olgan. Shu bilan birgalikda Qoraqalpoq marosim folklori tasnifiga ham to'xtalib o'tilgan.Unda Q.Ayimbetovning "Qoraqalpoq folklori" nomli kitobida ham, jamoaviy mualliflar tomonidan yaratilgan Qoraqalpoq folklori tarixiga doir ocherklarda ham ko'zga tashlanadigan [3] marosim folklori besh turga – cho'pon qo'shiqlari, mavsum qo'shiqlari, to'y qo'shiqlari, motam qo'shiqlari va diniy tasavvurlarga asoslangan qo'shiqlarga ajratiladi-ki, bu narsa marosim folklori tabiatiga u qadar mos kelmasligini aytib o'tadi. B.Sarimsoqov fikrlariga ko'ra o'zbek folklorshunosligida boshqa xalqlar folklorshunosligida bo'lganidek, marosim folklori izchil ilmiy tasnif qilingan emas. B.Sarimsoqovning "O'zbek marosim folklori" kitobida marosim folklori tasnifi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsada, aynan o'zbek marosim folklori o'rganilmaganligini, shu davrgacha umuman tasnif qilinmaganligini ta'kidlaydi. Biroq 1974-yilda chop etilgan M.Alaviyaning "O'zbek marosim qo'shiqlari" nomli monografiyasida o'zbek marosim folkloriga daxldor fikrlar ilgari surilganligi e'tibordan chetda qoldirilgan. Bundan tashqari olim M.Alaviya o'zbek qo'shiqlarini tasnif qilishda ham o'z xissasini qo'shgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Folklorshunos olim M.Jo'rayevning

“O'zbek mavsum marosim folklori” asarida ham o'zbek marosim folklorining tasnif masalalariga daxldor fikrlar keltirilib o'tiladi. Unda har qanday marosim, urf-odat, irim-sirimlar, inonchlar tarkibida u yoki bu darajada arxaik yoki zamonaviy diniy elementlar mavjudligini ma'qullab, o'zbek marosim folklori janrlarini tasnif qilish bilan bog'liq ilmiy qarashlar orasida professor T. Mirzayev tomonidan ilgari surilgan klassifikatsiya har jihatdan asosli ekanligi ta'kidlanadi. Prof. T. Mirzayev qayd qilishicha, o'zbek marosim folklori “mavsumiy marosimlar folklori”, “oilaviy-maishiy marosimlar folklori” va “diniy-ibodat marosimlari folklori”ga bo'linadi [4]. O'zbek folklorshunos B. Sarimsoqov o'zining marosim folkloriga bag'ishlangan monografiyasida mavsumiy marosimlar folklorini quyidagicha tasniflagan:

1) Qishki marosimlar folklori (yas-yusun va gap-gashtaklar);

2) Bahorgi marosimlar folklori (shoh moylar, qo'shchiqarish, loy tutish, navro'z bayrami, “Sust xotin”);

3) Yozgi marosimlar folklori (“Choymomo”);

4) Kuzgi marosimlar folklori (“Oblo baraka” va shamol chaqirish). Marosim folklorining tasnif masalalari bo'yicha ilmiy adabiyotlarni kuzatishlarimiz davomida O. Madayev, T. Sobitova muallifligida chop ettirilgan “Xalq og'zaki poetik ijodi” (akademik litsey uchun darslik, 2003-2010-yillardagi nashrlar) kitobiga ham nazar tashladik. “O'zbek marosim folklori” deb nomlangan sahifada marosim folklorining tasnifi (kitobda “turlari” deb yozilgan) haqida fikr yuritilganda, mavsum marosim haqida to'liqroq to'xtalib o'tilgan. Oilaviy marosimlar haqida fikr yuritilganda to'ylardan, aza-marakalardan va so'zning mo'jizali quvvatiga asoslangan odatlardan tashkil topadi deyiladi [5].

Tahlillar Va Natijalar. Oilaviy marosimlar haqida qisqacha ma'lumot berilgan bo'lsa-da, so'zning mo'jizali quvvatiga asoslangan odatlar deya ta'riflangan jumalarning qanday marosimga xosligi, ularda qanday janrlar kiritilishi haqida ma'lumot berilmagan. Masalan shamon aynimlari bilan bog'liq kinnalar, badiklar, afsunlar, olqishlar va qarg'ishlar marosim folklorining qaysi turiga mansubligi haqida fikr yuritilmagan. Bu esa o'quvchida mavzu bilan bog'liq ikkilanishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Folklorshunos olim O. Safarovning “O'zbek xalq og'zaki ijodi” kitobida marosim folklorining tasnifiga va ularning tarkibiy qismlariga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lsada, marosim folklorini tasniflashda ularni uchta katta guruhga bo'lib ko'rsadi:

1. Mavsum marosim folklori ;

2. Oilaviy-maishiy marosim folklori ;

3. So'z magiyasiga asoslangan marosimlar folklori.

Marosimlar biror sababsiz yoki asossiz yuzaga kelmeydi. Ular maxsus uyushtiriladi. Marosimlar etnografik mohiyat kasb etib, xalqning ijtimoiy- madaniy munosabatlarini o'zida aks ettirib turadi. Shu bilan birga, ular xalqning qadimiy animistik, totemistik, fetishistik qarashlari hamda zardushtilik va islomiy e'toqodlari izlarini o'zida saqlab qolgan. Bu xususiyat xatto tirikchilikning asosiy vositasiga aylangan mehnatga munosabatni ifodalovchi qator an'analar va ularning verbal qismini tashkil etuvchi aytim-qo'shiqlarda ham o'z ifodasini topgan. Shu xususiyatlari, qolaversa, o'tkazilish vaqti, o'rni, tarzi, tartibi, ijodkorlari, ishtirokchilari tarkibi va vazifalariga ko'ra o'zbek marosim folklori quyidagi katta guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Mavsumiy marosim folklori ;

2. Oilaviy-maishiy marosimlar folklori ;

3. So'z magiyasiga asoslangan marosimlar folklori.

1. Mavsumiy marosim folklori. O'zbeklar mavsumiy marosimlarga boy xalqlardandir. Bu marosimlar –yilning to'rt fasliga oid xalqning yashash va mehnat tarzi bilan aloqador bo'lib, fasllarga qarab, to'rt turga bo'linadi: Bahor mavsumi bilan bog'liq marosimlar, asosan, kishilarning mehnati faoliyatiga aloqadorlikda o'tkaziladi. Bahoriy marosimlar sirasiga “Shoh moylar”, “Navro'z”, “Yomg'ir chaqirish”

singarilarni kiritish mumkin. Yozgi mavsum bilan bog'liq marosimlar. Folklorshunos olimlarning ta'kidlashlariga ko'ra bu mavsum bilan bog'liq marosimlardan atigi bittasi saqlanib qolgan. Bu “Choy momo”-shamol to'xtatish marosimi va unga aloqador aytimdir. Bu marosim surunkali davom etgan qattiq shamolni to'xtatish maqsadida o'tkazilgan. Kuzgi mavsum bilan bog'liq marosimlar. Ushbu marosim bilan bog'liq faqat ikkita, oxirgi tutam bug'doyni o'rib olish (“Oblo baraka”) va shamol chaqirish “Yo, haydar” marosimlarigina saqlanib qolgan. Qishki mavsum bilan bog'liq marosimlar. Bu marosimlarga “gap-gashtak” va “yas-yusun” marosimlari kiradi. 2. Oilaviy-maishiy marosimlar folklori. O'zbek folklorida oilaviy-maishiy marosimlar folklori katta o'rin tutadi. Chunki insonning asosiy umri oilada kechadi. Insonning tug'ilishi, kamolotning ma'lum bosqichi, vafotini oilada maxsus marosimlar orqali qayd etish esa o'ziga xos an'anaga aylangan. Bu an'ana barcha xalqlar orasida bor. Inson hayotiga aloqadorligiga ko'ra oilaviy-maishiy marosimlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. To'y marosimlari.

2. Motam marosimlari.

Oilada o'tkazilgan marosimlar oilaviy maishiy marosim hisoblanadi. Ular rang-barang bo'lib, kattagina qismi to'y marosimlarini tashkil qiladi. To'y marosim folklori. To'y so'zi “to'ymoq” to'liqsiz fe'lidan olingan bo'lib, katta ziyofatli yig'in ma'nosini anglatadi. Beshik to'yi, o'g'il (sunnat yoki xatna) to'yi, nikoh to'yi, hovli to'yi, yosh to'yi kabi nomlari bilan umumlovchi har bir to'y tadbiri inson hayotidagi eng quvonchli muhim nuqtasini qayd qilishga qaratilgan bo'ladi. Motam marosim folklori. Motam marosimi katta, ommaviy, oilaviy, maishiy marosim. U o'lim yuz berganda o'tkaziladi va inson umrining oxirini qayd etadi. Shuning uchun mungli marosimdir. Undagi hamma narsa: ijro etiluvchi folklor aytishuvlari, marosim ishtirokchilari va azadorlarning kiyim-boshi motamsaroligi bilan ko'zga tashlanib turadi. Xotin-qizlar orasida motam marosimida turli mavzulardagi yig'i va yoqlovlar, o'lim allalari (marhumning abadiy uyqusidagi oromini ta'kidlovchi), motam yor-yorlari (turmush qurmay, pok, beg'ubor ketgan qiz-yigitlarga nisbatan) kabi folklor namunalari keng ijro qilinishi kuzatiladi. 3. So'z magiyasiga asoslangan marosimlar folklori. Badiiy tafakkur taraqqiyotining tadarriy rivoji davomida yaratilgan ma'naviy qadryatlarimiz tizimida xalqimiz turmush tarzi, ruhiy dunyosi, g'oyaviy va estetik qarashlarini teran aks ettirgan so'z magiyasiga aloqador janrlar alohida o'rin tutadi. So'z sehriga asoslanuvchi o'zbek marosim folklori janrlariga kinna, badik, afsunlar, olqishlar va qarg'ishlar kiradi. Ular qadimiy e'tiqodiy asoslarga ega bo'lib, xalq orasida keng ommalashganligi, hududiy-etnografik lokal belgilari, voqeilikni badiiy aks ettirish usuli, ijro shakli, maishiy estetik va poetik vazifalariga ko'ra bir-biridan farqlanib turadi. Qadimgi odamlar o'zlarini turli-tuman kasalliklar, ziyon-zaxmatlar, ofat-falokatlar, yomon, yovuz ruhlarning tazyiqidan xalos etish uchun maxsus marosimlar tashkil qilganlar va unda so'z sehridan unumli foydalananganlar. So'z magiyasiga bog'liq janrlarni ijrochilari tarkibiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Homiy ruhlar tomonidan tanlangan iqtidorli shaxslar ijro etuvchi janrlar: kinna, badik, shaman aytimlari;

2. Professional ijrochilar tomonidan tanlangan alohida qobiliyatli shaxslar ijro etuvchi janrlar: avrashlar ;

3. Keng ommaviy tarzda ijro etuvchi janrlar: olqishlar va qarg'ishlar.

Insoniyat ongining rivojlanib borishi natijasida yaratilgan folklor namunalari aksari marosim folklorining bir bo'lagidir desak mubolag'a bo'lmaydi [6]. Xalqimizning eng qadimiy epik yodgorliklaridan biri “Alpomish” dostonida ham biz bugun murojaat qilayotgan marosim folklorining sara namunalari berilganligiga guvoh bo'ldik.

Xulosa. Biz o'rgangan mavzu, ya'ni o'zbek marosim folklori avvallari M.Alaviya, B.Sarimsoqov, M.Jo'rayev, A.Musoqulov, O.Qayumov, M.Murodova singari folklorshunos olimlar tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa-da, o'zbek marosim folklorining ayrim janrlari hududiy tomondan olib qaraydigan bo'lsak, hali chuqur o'rganilmagan, yoki umuman tadqiq etilmagan mavzular borligiga ham guvoh bo'lamiz. Marosim qo'shiqlari nuqtai nazaridan olib qarasa, har bir viloyatning, qolaversa har bir tumanning o'ziga xos

marosim bilan bog'liq qarashlari mavjud. O'zbek xalqi marosimlarga boy xalq hisoblanadi. Shuning uchun ham bo'lsa kerak har bir viloyatlarda o'tkaziladigan marosimlar mazmunan bir-biriga o'xshasa-da, ayrimlarining verbal qismida, o'tkaziladigan vaqtida farqli jihatlari borligi e'tiborlidir. Ana shunday farqli jihatlarni aniqlash, qiyosiy darajada taqqoslab o'rganish soha vakillarining oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. –T.: “Fan”, 2009 y.
2. Jo'rayev M. Folklorshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDMI, 2008 y.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –T.: “Mumtoz so'z”, 2010 y.
4. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. Mirzayev T va boshqalar. –T.: “Aloqachi”, 2008 y.
5. Abdulla Qodiriy va folklor. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent. №3, 2014 y.



Miraziz RAUFOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi
E-mail:m.raufov@tsul.uz

O'zDJTU f.f.d (PhD), Z. Abdusamadov taqrizi asosida

SINXRON TARJIMA TUSHUNCHASI VA TARIXI

Аннотация

Ushbu maqolada og'zaki tarjima turlaridan biri bo'lgan sinxron tarjima tushunchasi va uning muammolari yoritilgan. Maqolada og'zaki tarjimaning asosiy va murakkab turlaridan biri hisoblangan sinxron hamda ketma-ket tarjimaning asosiy farqlari, nazariy va amaliy ahamiyati kabi masalalar ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tarjima, tushunish, og'zaki tarjima, sinxron tarjima, ketma-ket tarjima, tarjima modellari, original matn tili, tarjima tili, tinglash-tushunish-yetkazish

THE CONCEPT OF SIMULTANEOUS INTERPRETING AND ITS HISTORY

Annotation

This article highlights the concept of simultaneous translation, which is one of the types of interpretation, and its problems. The article also mentions issues such as the main differences, theoretical and practical importance of simultaneous and consecutive translation, which are considered to be one of the main and complex types of interpretation.

Key words: Interpretation, translation, simultaneous interpreting, consecutive interpreting, translation models, source language, target language, comprehension, listening-understanding-speaking

ПОНЯТИЕ СИНХРОННОГО ПЕРЕВОДА И ЕГО ИСТОРИЯ

Аннотация

В данной статье освещается понятие синхронного перевода, являющегося одним из видов устного перевода, а также его проблемы. Также в статье затрагиваются такие вопросы, как основные отличия, теоретическое и практическое значение синхронного и последовательного перевода, которые считаются одними из основных и сложных видов устного перевода.

Ключевые слова: Перевод, понимание, устный перевод, синхронный перевод, последовательный перевод, переводческие модели, язык оригинала, язык перевода, аудирование-понимание-говорение.

Introduction. Interpreting in the modern world is a serious professional activity. In addition, like any professional activity, "interpreting is a fusion of technology and art" (Alekseeva 2005: 3). It can be defined as the activity that consists in conveying to the target language the most accurate and natural equivalent of the source language's oral message (As-Safi 2013: 50). Interpreting is the process of interpreting speech or text from one language to another based on invariant requirements depending on the type of speech or text to be translated and the context in which the translation takes place; as well as the result of this process, since the product of such a transition is perceived by the target audience as a translation (Dukate 2009: 36).

According to D. Seleskovich, the following three stages of interpretation can be distinguished:

- 1) Listening to a linguistically significant signal that is perceived, analyzed and understood at an intellectual level;
- 2) After the implementation of the first stage, this signal is deliberately forgotten, leaving only a mental image;
- 3) In another, translating language, a new linguistic signal is created.

There are two types of interpretation: consecutive and simultaneous. In consecutive translation, the interpreter begins to voice the text of the TL only after the end of the speaker's speech or part of it (Komissarov 1990: 100). Thus, this type of translation can also have a paragraph-phrase implementation model and, if necessary, be accompanied by record keeping.

All types of interpreting involve the active involvement of mental mechanisms, as they require the interpreter to simultaneously implement different types of activities, make quick decisions, store large amounts of

information in memory, a high degree of concentration and the ability to properly distribute attention.

Simultaneous translation involves the skill of simultaneous perception in the source language and reproduction in the target language while maintaining the pace of the speaker's speech. Simultaneous translation involves the hard work of memory, the ability to concentrate, make decisions instantly, make predictions regarding the further development of the utterance, perform speech compression if necessary, and so on. (Osokin 2008: 29). However, in the first place, consecutive interpreting differs from simultaneous interpreting by the so-called ear-voice span (EVS) - the time separation between the perception of the source text and the reproduction of the translated one. Consecutive interpreting is also characterized by a much greater load on working memory, the presence of active interpersonal relationships with communication participants, a different scope, as well as the use of cursive translation.

Simultaneous translation is a special type of professional interlingual activity carried out in extreme linguistic and psychological conditions, in an environment hostile to the simultaneous interpreter. Certain conditions are necessary for the success of this activity. First of all, it is the objective semantic discourse redundancy of the message in the source language and its subjective semantic redundancy for the translator. And if the first follows from the repetition and interdependence of discourse components at all levels of speech (syllable, word, phrase, syntagm, utterance, discourse, communicative situation), then the latter - the subjective redundancy of the message - requires certain conclusions (cognitive, pragmatic, contextual, situational) (Chernov, Setton, Hild 2004: 200).

History. The need for a new kind of translation became apparent in the 20th century, when many international organizations appeared, such as the League of Nations in 1919, the UN in 1945, etc. The idea of simultaneous translation was put forward by Eduard Filein, an American businessman. He noticed that consecutive translation in the League of Nations takes a very long time, and began to search for a solution to this problem. In 1925, E. Filein wrote to the secretariat of the League of Nations with a proposal to use a new method of translation, which could significantly save time. According to Filein's design, the interpreter had to sit in a booth equipped with a telephone and a microphone.

The simultaneous translation had a number of advantages over other types of interpretation. Consecutive interpreting was time-consuming, while "whispering" was inconvenient for both the interpreter and the listener, and did not fit well with the format of higher-level meetings. To successfully implement the idea of E. Filein, special equipment was needed, and, according to various sources, in 1926 or 1927 a patent for equipment for simultaneous translation was issued to the Boston radio engineer Gordon Finlay and the president of IBM, Thomas Watson [Minyar-Beloruhev, 1999, With. 124].

Prior to 1945, simultaneous translation was used sporadically. In the USSR, simultaneous translation with equipment was tested in 1928 at the VI Congress of the Comintern. According to E.A. Hoffman, the first simultaneous interpreters sat in the stands, they had uncomfortable equipment with a microphone around their necks, and there were no headphones [Hoffman, 1963, p. 20].

The second stage in the development of simultaneous translation came after the end of the Second World War. The SI again became an integral part of multinational meetings and events in 1944, at the General Conference of the International Labor Organization, and then at the Nuremberg Trials in 1945, where there were two groups of interpreters - the Soviet team and the Allied team. There were four working languages: Russian, German, English, and French. Leon Dostert, the personal interpreter for Dwight Eisenhower, the 34th President of the United States, ran the simultaneous translation service. It was he who arranged a demonstration of simultaneous translation at the UN in 1946, and in 1947 the organization purchased equipment for the joint venture.

In 1948, the Geneva School of Translators began training professional simultaneous interpreters.

Main body. The need for the simultaneous perception of the original and reproduction of the translation predetermines other characteristic features of simultaneous translation. First of all, among them one can single out a rigid time frame corresponding to the duration of the speaker's speech. To interpret the same speech in consecutive interpreting mode, the interpreter has twice as much time at his disposal as in simultaneous interpreting mode. Compared to written translation, this difference can be twenty or even thirtyfold. In addition to tight time limits, there is also a factor in the pace of the speech delivery by the speaker, which the interpreter must comply with. Simultaneous translation is characterized by a "segmental nature" of its implementation, that is, the implementation of translation in parts (segments) as they arrive, in contrast to consecutive and / or written translation, where it is possible to familiarize yourself with the text or its fragment in its entirety (Shiryayev 1979: 6-7).

The interpreter is busy simultaneously performing the following actions:

- 1) listening to information spoken by the speaker, that is, receiving a message;
- 2) understanding the meaning, that is, decoding the message;
- 3) converting the value into the target language, i.e. encoding the message;

4) voicing the translated version, that is, the release of the message.

Each of these actions has a complex hierarchical structure. All of them are produced in real time, taking into account the lack of time.

A.F. Shiryayev distinguishes three phases of simultaneous translation. Prior to the start of translation, based on his knowledge, the translator builds a "probabilistic model of oratory", which is tested with the start of the actual speech of the speaker. Provided that the "presetting" of the translator was adequate, he can choose the right solution from those already prepared. If a mistake was made in the presetting, then the search for a solution is carried out on the basis of experience, knowledge, and reference points highlighted in the translation.

From the point of view of cognitive psychology, both consecutive and simultaneous interpreting are at the very end of the hierarchical structure of complex cognitive tasks, which should be resorted to only after other, more pragmatic tasks have been mastered, for example, translation, paraphrase, sight translation and other. However, if it is possible to process information "in silence" in consecutive interpreting, then rely on the notes made, which stimulate the reproduction of information, provided that the translator masters special cursive writing, then with simultaneous interpreting, which is at the top of this hierarchy, there is no longer a privilege to process information "in silence", just like taking notes, except for individual names, dates, and terms (Ilg, Lambert 1996: 76-77).

Among the differences between simultaneous and consecutive translations, the following are also distinguished:

1) in the mode of simultaneous translation, the text is characterized by predominantly linear development, repeating the structure of the original utterance. In the mode of consecutive translation, on the contrary, two levels can be distinguished: the priority level of logical-semantic progression and the level of transitional and complementary elements;

2) consecutive translation, due to the characteristic features of its functioning, may contain omissions and/or distortions of information, however, it usually does not contain logical gaps, which are more typical for simultaneous translation. In the mode of simultaneous translation, there may be a break in the logical-thematic progression of the text due to a complex of reasons due to factors of perception or the rate of reproduction of the TL statement. This is not typical for consecutive translation in most cases (Miram 1999: 108-109).

G.V. Chernov describes the mechanism of simultaneous translation as follows: "in the mind of an interpreter, there appear, as it were, voids of a certain form, which are constantly filled with the expected, predictable parts of the unfolding message, the speech of the speaker. The configuration of these voids is extremely dynamic - it is constantly changing and becomes more and more defined as the message unfolds.

In the case of simultaneous translation, an increase in tempo with a growing time gap between perception and reproduction is aimed primarily at meeting the needs of the interpreter himself: the need to "follow" the speaker without a serious lag for the normal functioning of speech-thinking activity. The simultaneity of listening and speaking is also accompanied by a semantic analysis, however, not as deep as in consecutive translation due to lack of time. Semantic analysis is accompanied by the operation of a probabilistic forecasting mechanism, which in some cases helps to build correct hypotheses regarding the semantic and syntactic development of the original message, while facilitating and speeding up the construction of the translated message.

Conclusion. After reviewing the opinions of scientists and interpreters we can conclude that oral translation (as a

form of interlingual communication and the process of transferring understanding) is characterized by a number of linguistic and extralinguistic factors that determine the possibility of its functioning. For this reason, consideration of the translation process, taking into account only linguistic factors, allows us to describe only some of its aspects. A more holistic description and deep understanding of this process are only possible when considering interpretation as an act of communication. Nevertheless, none of the created interpretation models can claim to be universal but only contribute to a better understanding of the processes underlying this type of translation activity.

In addition to the universal characteristics necessary for the implementation of oral translation, for this type of activity, the totality of the components of non-verbal behavior is of great importance, since the interpreter is a direct participant in communication, who is in the eyes of the speaker and listeners. The translator has the possibility of

feedback from the participants in the communication, but it is highly undesirable to resort to it. An important role is also played by the ability to memorize and retain in memory the necessary amount of information with the possible use of a translation record, which also needs to be able to build in a competent way. The so-called EVS (ear-voice span) factor is one of the determining factors in the consecutive translation mode, since it determines:

a) the amount of information to be memorized and the model of distribution of attention between its components;

b) the rate of submission of the text of the translation and the variation of the information to be compressed.

Distinctive features of simultaneous interpreting are the possession of speech compression skills, the factor of a hard time limit, the impossibility of feedback from the speaker and listeners, and the implementation of the probabilistic forecasting mechanism.

REFERENCES

1. Alekseeva I.S. Professionalnyy trening perevodchika. Uchebnoe posobie po ustnomu i pismennomu perevodu dlya perevodchikov va prepodavateley. – SPb.: Soyuz, 2001. – p. 288.
2. Komissarov V.N. Rossiya lingvisticheskoe perevodovedenie. – M.: ETS, 2002. – p. 184.
3. Lapshina M.N. Stanovlenie inoyazychnoy kommunikativnoy kompetentsii i obuchenie sinxronnomu perevodu // Materialy XXXIV Mejdunarodnoy filologicheskoy konferentsii 14–19 March 2005. – Vyp. 2: Aktual muammolar perevodoveniya. Prakticheskie aspekty perevodovedeniya. Muammo xudojestvennogo perevoda. – SPb.: 2005. – pp. 74–78.
4. Minyar-Beloruhev R.K. Obshchaya nazariya perevoda va ustnyy perevod. – M.: Voenizdat, 1980. – p. 237
5. Chernov G.V. Sinxronnyy perevod: rechevaya kompressiya — lingvisticheskaya problema. Tetradi perevodchika. Pod redaktsiey Barxudarova L.S. Vypusk 6. – M.: Mejdunarodnye otnosheniya, 1969. – pp. 52-65.
6. As-Safi A.B. Translating vs Interpreting. Interface and Divergence. – Jordan: Petra University, 2013. – p. 49-60.
7. Beaugrande R. Consultations, conferences and proceedings: their role as 165 discourse translation // Language, discourse and translation in the West and Middle East. – Amsterdam: Benjamins, 1992. – 256 p.
8. Chernov G.V. Conference interpretation in the USSR: history, theory, new frontiers. Meta 37 (1), 1992. – p. 149-162.
9. Ilg G., Lambert S. Teaching consecutive interpreting // John Benjamins Publishing Company. Interpreting. Vol.1 (1) 1996. – p. 69-99.



Svetlana SAMADOVA,
Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: svetlana@mail.ru

Filologiya fanlari doktori, dotsent A.Orifjonov taqrizi asosida

INGLIZ TILIDA TEMPORAL MA'NOLI BIRLIKLARNING MORFOLOGIK VA SINTAKTIK USULLAR ORQALI IFODALANISHI

Аннотация

Ushbu maqolada temporallikning ot, sifat, olmosh, fe'l so'z turkumlari hamda sifatdosh, gerundiy, predloglar shuningdek ergash gapli qo'shma gaplar orqali ifodalanishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Temporal, deytik, iboralar, konstruksiya, vaqt, prefiks, predlog, ergash gapli qo'shma gaplar.

EXPRESSING TEMPORAL UNITS THROUGH MORPHOLOGICAL AND SYNTACTIC WAYS IN ENGLISH

Annotation

This article talks about the expressing temporality through nouns, adjectives, pronouns, verbs and participles, gerunds, prepositions as well as by complex sentences.

Key words: Temporal, deictic, phrases, construction, time, prefix, preposition, complex sentences.

ВЫРАЖЕНИЕ ЕДИНИЦ ТЕМПОРАЛЬНОГО ЗНАЧЕНИЯ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ МОРФОЛОГИЧЕСКИМИ И СИНТАКСИЧЕСКИМИ СПОСОБАМИ

Аннотация

В данной статье говорится о выражении темпоральности посредством таких частей речи как существительные, прилагательные, местоимения, глаголы, а также причастий, отглагольных существительных, предлогов и сложноподчинённых предложений

Ключевые слова: Темпоральность, дейктик, словосочетания, конструкция, время, приставка, предлог, сложноподчинённые предложения.

Kirish. Temporallik tushunchasini olimlar bir necha yillardan buyon o'rganib kelmoqdalar. Y. A. Levitskiy va G.A. Shamova "Vaziyatni ko'rsatuvchilar. Olmoshlar" nomli ishlarida vaqt xususiyati o'zgarishi bilan ko'pincha joyni ko'rsatuvchilar ham almashishini ta'kidlab o'tadilar. [Левицкий, Шамова 1985: 52]. Shuningdek R.I. Ro'ziyeva o'zining ilmiy ishida rus tilida vaqtni ifodalovchi til vositalarini o'zbek tili bilan taqqoslagan holda lingvo-uslubiy mulohaza olib borgan. Temporal ma'noni anglatuvchi leksik birliklar orasida fe'l zamonlari va ravish so'z turkumiga xos so'zlar yetakchi o'rinni egallaydi, ammo ushbu maqolada biz temporallikni ifodalashda ot, olmosh, sifat, fe'l so'z turkumlarining qo'llanishi hamda sifatdosh, gerundiy, predlogli temporallik shuningdek ergash gapli qo'shma gapli temporallik haqida so'z yuritmoqchimiz.

Asosiy qism. Sifatdosh va gerundiylar temporallik. N.A. Kozinseva o'zining "Sifatdoshli konstruksiyalar taksis kategoriyasini ifodalash vositasi sifatida" maqolasini atributli konstruksiyalarni tahliliga bag'ishlaydi. Muallif fikriga ko'ra sifatdoshning o'ziga xosligi va vaqt ma'nosini bera olishi taksisli munosabatlarni hosil qila oladi. [Козинцева 2002: 113]. Ingliz tilidagi Participle o'zbek tilidagi sifatdoshga to'g'ri keladi. Sifatdosh bilan ishlatilgan konstruksiya odatda ish harakatni bir vaqtda bo'lganlik ma'nosini anglatadi. Biroq ingliz va o'zbek tillarida bir vaqtda sodir bo'lishlik sifatdosh II bilan ham anglanishi mumkin.

He watches the children growing up. / He watched the children grown up.

Participle I orqali hosil qilingan konstruksiyalar barcha turdagi vaqt munosabatlarini bera oladi ya'ni oldin sodir bo'lganlik, bir vaqtda sodir bo'lganlik va birin-ketin sodir bo'lganlik. Bu predikatning semantic xususiyati va turli nisbat shakllari tufayli sodir bo'ladi. Ko'p hollarda Participle I fe'l bilan bir xil vaqtni ifodalaydi. Agar fe'l hozirgi zamonda turgan bo'lsa, Participle I bilan ifodalangan ish-harakat hozirgi

zamonga tegishli bo'ladi; agar o'tgan zamonda tursa, o'tgan zamonga; kelasi zamonda tursa kelasi zamonga tegishli bo'ladi. [Качалова, Израилевич 1957: 346].

She is looking at the woman sitting at the window. U deraza oldida turgan ayolga qarab turibdi.

When I entered the room, I gave the letter to the woman sitting at the window.

Menga xonaga kirganimda, xatni deraza oldida turgan ayolga berdim.

When you enter the room, you will give the letter to the woman sitting at the window. Xonaga kirganingizda, xatni deraza oldida turgan ayolga berasiz.

Yuqorida keltirilgan misollarning barchasida Present Participle (sitting) zamonga bog'liq bo'lmagan holda qo'llangan bo'lib, fe'l ifodalagan ish-harakat bilan bir xil vaqtni ifodalagan. Shunday qilib, Present Participle shartli deb hisoblanadi. Oldin sodir bo'lgan ish-harakatni bildirish uchun ingliz tilida Participle I ning perfekt shaklidan foydalaniladi. Masalan:

Having collected all the material he wrote a full report on the work of the commission. Barcha ma'lumotni yig'ib bo'lgach, u komissiya ishi haqida bildiruv yozdi.

Qachonki ikki ish-harakat haqida gap ketsa, biridan darhol keyin ikkinchisi sodir bo'ladi va bunday hollarda Perfect Participle emas, Present Participle ishlatilishiga urg'u berishimiz joiz. Bunday ergash gaplarda fe'l-kesim Past Indefinite da qo'llanadi. Masalan:

Arriving at the station we called a porter = We arrived at the station and called a porter. Vokzalga kelib, yuk tashuvchini chaqirdik = Biz vokzalga keldik va yuk tashuvchini chaqirdik.

Yuqorida keltirilgan misol birin-ketin bo'lgan ish-harakatni ko'rsatadi. Participle II bilan ifodalangan, fe'lga bog'liq bo'lgan taksisli konstruksiya bir vaqtda sodir bo'lganlik yoki ilgariroq sodir bo'lgan ish-harakatni

ifodalaydi. Aytishimiz joizki, oldinroq sodir bo'lganlikni anglatuvchi konstruksiya ancha kam uchraydi. Masalan: I was reminded of a portrait seen in a gallery. Meni suratlar galleriyasida ko'rgan surat esimga tushdi.

His sister's eyes fixed on him with a certain astonishment, obliged him at last to look at Flew. Singlisining hayrat bilan unga tikilgan nigohi va nihoyat uni Flerga qarashga majbur qildi.

Birinchi misol fe'ldan biroz oldin sodir bo'lgan voqeani anglatsa, ikkinchi gap asosiy harakat bilan bir xil vaqtda bo'lganlikni ifodalaydi.

Ingliz tilida Gerundiy ish-harakatni nomini anglatadi, ham fe'l ham ot xususiyatiga ega bo'lib, fe'lning shaxsiz shaklini ko'rsatadi. Uning Participle I va Participle II dan asosiy farqi gerundiy gapda ega, kesim va to'ldiruvchi vazifalarida kelishi mumkin. Boshqa egalar singari u predloglar bilan birga kelishi, egalik olmoshi, qaratqich kelishigidagi otlar bilan aniqlanishi mumkin. Gerundiyning fe'llik xususiyati ravish bilan aniqlanishi, zamon va nisbat shakliga egaligidadir. Gerundiyl zamon shakllari odatda ish-harakatga nisbatan bir vaqtda sodir bo'lganlik yoki ilgariroq bo'lganlikni ko'rsatadi[2]. Bir vaqtda sodir bo'lganlikni ko'rsatish uchun Gerundiyning indefinite shakli aniq va majhul nisbatlarda qo'llanadi. Fe'lning zamon shakliga bo'g'liq bo'lgan holda gerundiy hozirgi, kelasi yoki o'tgan zamonga tegishli bo'lishi mumkin.

She walked on without turning her head. U boshini burmasdan yurib ketdi.

No one could pass in or out without being seen. Hech kim ko'rinmasdan kirolmasdi ham, chiqolmasdi ham.

Gerundiyning perfekt shakli fe'ldan ilgari sodir bo'lganlikni ko'rsatadi.

She denies having spoken to him. U u bilan gaplashganini rad etadi.

Biroq ilgari sodir bo'lganlikni anglatishda perfekt shakli gerundiy qo'llanmasligi ham mumkin. Bu holat quyidagi fe'llar va predloglardan keyin kuzatiladi: to remember, to excuse, to forgive, to thank, shuningdek on(upon), after, without.

I don't remember hearing the legend before. Men bu afsonani ilgari eshitganimni eslolmayman.

After walking about ten yards, he found the hat among the leaves. Taxminan o'n yardlarcha yurgandan keyin u barglar orasidan shlyapani topib oldi.

Shuningdek Gerundiy before predlogi bilan ishlatilib, fe'l ifodalagan ish harakatga nisbatan keyin sodir bo'lgan harakatni ifodalaydi.

She washes her hands before having a meal. U taom taovul qilishdan oldin qo'lini yuvadi.

Ergash gapli qo'shma gaplarda temporallik

Ingliz tilida turli vaqt belgilari qo'shma gaplarda ham o'z ifodasini topadi. Bunda katta o'rinni fe'l shaklining semantik jihatdan o'ziga xosligini ta'kidlab turgan bog'lovchilar egallaydi. Vaqtni ifodalovchi bog'lovchilarga quyidagilar kiradi: when – qachon, while - ... da, mobaynida, whenever – har qachon, as - ...da, qachon, after - ..dan keyin, before - ..dan oldin, till, until – , toki, toki... maguncha, as soon as – bilanoq, as long as - qadar, since – ...dan buyon.

While bog'lovchisi ish-harakat boshqa bir ish-harakat bilan bir vaqtda sodir bo'lganligini ko'rsatadi.

While father was watching TV, mother was looking through their family album. Otasi televizor ko'rib turganda, onasi oilaviy albomni ko'rib chiqayotgan edi.

As bog'lovchisi ham fe'l bilan birgalikda bir vaqtda sodir bo'lgan ish harakatni anglatadi.

As I was going down the road, I met your sister. Man ko'cha bo'ylab ketayotganimda, singlingizni uchratib qoldim.

When bog'lovchisi esa ma'lum bir vaqtda bir ish harakat sodir bo'lishi bilan boshqasi sodir bo'lishini bildiradi.

When we arrived at the port, the steamer was being loaded with wheat. Biz portga yetib kelganimizda, paroxodni bug'doy bilan to'ldirishgan edi.

Before bog'lovchisi ergash gapda harakat bosh gapdan keyin sodir bo'lganligini ta'kidlaydi.

Before she went to the hotel Mrs. Gerhardt cautioned George that he must bring enough coal from the yards to last over Christmas day (T. Dr., 27). Missis Gerhardt mehmonxonaga borishdan oldin Jorjni hovlidan rojdestvo bayramiga yetarli ko'mir olib kelib qo'yishi haqida ogohlantirdi.

After bog'lovchisi bilan ishlatilgan ergash gap bosh gapdagi voqeadan oldin sodir bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi.

Lester called Mr. Gerhardt after she had left (T. Dr., 113.) Lester mister Gerhardtni u ketgandan keyin chaqirdi.

Sifatli temporallik

Ingliz tilida predmet va obyektiv voqelik orasida vaqt ma'nosini anglatishda ba'zi sifatlar ham ishtirok etadi. Ularni temporal ma'nosiga ko'ra 3 guruhga bo'lish mumkin. Bu guruhga pre- prefiksi orqali hosil bo'lgan yasama sifatlar ham kiradi.

Oldin sodir bo'lganlikni anglatuvchi sifatlar

former- oxirgi, past-o'tgan, previous-ilgarigi
anterior-oldingi, preceding-oldingi, behindhand-kechikkan, orqada qolgan
bygone-o'tgan, premarital-nikohdan oldingi, predawn-erta tong
precursory-dastlabki, prehistoric-tarixdan oldingi

Holat va predmetlarga obyektiv voqelik bilan bir vaqtda sodir bo'lganlik tushunchasini beruvchi sifatlar:

modern- zamonaviy, simultaneous- bir vaqtda, present- hozirgi
contemporary- zamon bilan hamnafas, zamonaviy, current- davriy,

Mr. Slawson owned the property adjoining, and was going to put up a modern office building (Sist.Car., 318). Mister Slosan qoshib olingan mulkka egalik qilardi va zamonaviy ofis binosini barpo qilmoqchi edi.

3) Keyingilik ma'nosini beruvchi sifatlar: bu guruh sifatlariga post- prefiksi orqali hosil bo'lgan sifatlar ham kiritish mumkin.

following- keyingi, future- kelgusi, next- keyingi
 oncoming- kelayotgan, subsequent- keyingi, posthumous- vafotidan keyingi
 postnatal- tug'ruqdan keyingi, postmeridian- tushdan keyin
 postglacial- muz davridan keyingi, postprandial- ovqatdan keyin

antedate-ilgarigi kun bilan qo'yilgan sana, forefather-ajdod
 foreknowledge- oldindan bilish, forerunner- darakchi, oldindan xabar beruvchi
 foreword- muqaddima, preview- oldindan ko'rib chiqish,
 foresight-bashorat, preaudience- boshqalardan oldin eshilitish huquqi (yuridik)
 preliminary-dastlabki tadbir, precognition- oldindan bilish
 predecessor- salaf, ajdod, predestination-oldindan belgilash,

Thus, after a few more preliminaries, this visiting acquaintance was well launched, and in the young Mrs. Vance Carrie found an agreeable companion. (Sist. Car., 294).

Shunday qilib, bir necha dastlabki tadbirlardan so'ng bu tanishuv yaxshi qabul qilingan edi va yosh Missis Vens bilan Kerri yoqimli suhbatdosh bo'lib qolishdi.

Ikkinchi guruhga hozirgi manoli otlar kiradi: present – hozirgi payt, coexistence – birga mavjud bo'lish.

Uchinchi guruhga birin ketinlikni bildirgan morrow (ertangi kun, biror bir ish harakatdan so'ng sodir bo'ladigan vaqt) so'zini kiritisa bo'ladi.

Ingliz tilida time – vaqt so'zi o'z ma'nosiga ko'ra keng va umumiy ma'noda qo'llanadi va mana shunday semantik maydonda qo'llanuvchi so'zlar uchun yadro vazifasini o'taydi. Time tabiiy vaqtning bildirib keladi:

There, minutes seemed to go very slowly. An hour was a long, long time in passing (Sist.Car., 330). Xuddiki

minutlar juda sekin o'tayotgandek edi. Soat juda uzoq va uzoq bo'lib o'tardi.

Ravish vazifasida keluvchi so'z birikmalarida qo'llanadi: at the same time – bir vaqtning o'zida, at a time – bir vaqtda, at a time when - ... bilan bir vaqtda (qachonki), this time – bu marta, that time – o'sha payt, for the first time – birinchi marta.

“What is it?” said the manager to Carrie, apparently noticing her for the first time (Sist.Car., 242). “Nima u?” dedi ish boshqaruvchi Kerriga, xuddi uni birinchi marta sezayotgandek.

Time grammatikada zamon ma'nosida qo'llanmaydi uning o'rnida tense ishlatiladi.

Ot so'z turkumi ichida oraliq m'noli temporallikni anglatuvchi so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi.

aniq vaqtning anglatuvchi otlar

second-sonya, minute-daqiqa, hour-soat, day-kun, week-hafta, month-oy, year-yil, century-asr

aniq bo'lmagan vaqtning anglatuvchi otlar

epoch- epoxa, era- era, period- davr, moment- soniya instant- bir zumda, January- yanvar, February-fevral March-mart, Sunday-yakshanba, Monday-dushanba winter-qish, spring-bahor, summer-yoz, autumn-kuz, morning-ertalab, afternoon-tushdan so'ng, evening-kechqurun night-tun, midnight-yarim tun

... the first rehearsal was set for the following Friday evening... (Sist.Car., 157).

Birinchi repetitsiya kelayotgan juma kechqurunga kelishilgan edi.

Temporallik ma'nosi chegaralangan otlarga quyidagi so'zlar misol bo'ladi: breakfast – nonushta, lunch – ikkinchi nonushta, dinner – tushlik, supper – kechki ovqat, dawn - tong, sunset – quyosh botishi, twilight – g'ira-shira; childhood – bolalik, youth – yoshlik, adolescence – o'rta yoshlik, anility – keksalik.

Fe'llarda temporallik. Vaqtning ko'rsatib turgan holda, fe'l so'zlovchiga nisbatan uzoqlashgan yoki yaqinlashgan vaqtning ko'rsatishi mumkin. Fe'l so'z turkumiga xos temporal ma'noga ega so'zlarni biz uch guruhga bo'ldik:

1. Ilgarilik, oldin yuz berganlikni anglatuvchi fe'llar (lug'atlarda ular beforehand, in advance – oldindan so'zlari bilan aniqlashtiriladi): preconceive – oldindan tasavvur qilish, presuppose – faraz qilmoq, foreknow – oldindan bilish, forecast – oldindan aytish, foresee – bashorat qilish, anticipate – bashorat qilmoq, oldindan ko'rish.

He didn't foresee serious consequence of any sort, and yet he rather hesitated to begin (Sist. Car., 216). U hech qanday jiddiy oqibatni oldindan ko'ra olmadi, lekin boshlashga ikkilanardi.

2. Bir vaqtda sodir bo'lganlikni anglatuvchi fe'llar (at the same time vaqtning aniqlashtiruvchi bilan ishlatilishi mumkin.): coincide – mos kelmoq, coexist – birga mavjud bo'lmoq, occur – sodir bo'lmoq.

3. Birin-ketin sodir bo'lganlikni bildiruvchi fe'llar (afterwards – so'ng, after, later, keyinroq kabi aniqlik kirituvchilar bilan kelishi mumkin): postpone – kechiktirmoq, ensue – natijada kelib chiqmoq, survive – omon qolmoq, delay – kechiktirmoq, follow – ergashmoq.

A short conversation on the subject of the country followed (J.Aus., 57).

Song esa mamlakat mavzusidagi qisqa suhbat bo'lib o'tdi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, temporal ma'noni anglatuvchi fe'llar ko'pchilikni tashkil etmaydi. Temporal ma'no ko'pincha zamon shakllari bilan beriladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, temporal ma'noni anglatuvchi leksik birliklar ifodalanishi juda keng va zilma xildir. Sifatdosh, gerundiy va payt ergash gapli qo'shma gap zamonga bog'liq holda temporallik ma'nosini ifodalaydi. Ko'rsatish olmoshi temporal ma'noli ot bilan birikkan holda vaqt tushunchasini anglatadi. Vaqt ma'nosini ba'zi sifatlar ham ifodalaydi. Ularni uch guruhga bo'lish

mumkin: 1) oldin sodir bo'lganlikni ifodalovchi, 2) bir vaqtda sodir bo'lganlikni ifodalovchi, 3) keyin sodir bo'lganlikni ifodalovchi.

Vaqt ma'nosini ifodalovchilar orasida ot so'z turkumiga mansub so'zlar salmoqli o'rin egallaydi ammo

temporallikni ko'rsatuvchi fe'llar ko'pchilikni tashkil qilmaydi. Ularni ma'nosiga ko'ra o'tgan vaqtni ifodalovchi, bir vaqtda sodir bo'lganlikni ko'rsatuvchi va keyin sodir bo'lganlikni bildiruvchi fe'llarga ajratish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirsanov G'.Q. "Aspektual va temporallik mazmuni ifodasining kognitiv-pragmatik asoslari" Dis. -2020.
2. Качалова К.Н., Израилевич Е.Е. Практическая грамматика английского языка. М., 1957.
3. Козинцева Н.А. Конструкции с причастными оборотами как средство выражения категории таксиса // Современные проблемы русской аспектологии. СПб., 2002.
4. Левицкий Ю.А., Шамова Г.А. Указатели ситуации. Местоимения. Пермь, 1985.
5. Петрова О.В. Местоимения в системе функционально-семантических классов слов. Воронеж, 1989.
6. Рузиева Д.И. Развитие Русской речи учащихся – узбеков 7-9 классов при дифференцированном подходе к обучению. Дис.1994.



Zayniddin SANAKULOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD
E-mail: z.sanakulov@cspi.uz

O'zDJTU professori, f.f.n. X.Raximov taqrizi asosida

COMPARATIVE ANALYSIS OF PROPER AND COMMON NAMES (BY THE EXAMPLE OF THE GERMAN LANGUAGE)

Annotation

This article was written within the framework of traditional research theories of linguistics, within which a comparative analysis of German proper names and common nouns was carried out based on the scientific findings of a number of linguists. Also, on the material of the German language, the semantic features of common nouns and proper names are revealed.

Key words: Common noun, proper name, onomastic literature, reference.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИМЕН СОБСТВЕННЫХ И НАРИТСАТЕЛЬНЫХ (НА ПРИМЕРЕ НЕМЕСКОГО ЯЗЫКА)

Аннотация

Данная статья написана в рамках традиционных исследовательских теорий языкознания, в рамках которых был проведен сравнительный анализ немецких имен собственных и нарицательных на основе научных выводов ряда лингвистов. Также на материале немецкого языка выявляются семантические особенности имен нарицательных и собственных.

Ключевые слова: Имя существительное нарицательное, имя собственное, ономастическая литература, референция.

ATOQLI OTLAR VA TURDOSH OTLAR QIYOSIY TAHLILI (NEMIS TILI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqola tilshunoslikning an'anaviy tadqiqot nazariyalari doirasida yozilgan bo'lib, unda nemis tili turdosh va atoqli otlarining qiyosiy tahlili qator tilshunoslar ilmiy xulosalari asosida olib borilgan. Shuningdek, turdosh va atoqli otlarning semantik xususiyatlari nemis tili materialida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Atoqli otlar, turdosh otlar, onomastik adabiyot, referensiya.

Kirish. Atoqli va turdosh otlar farqlari borasida fikr yuritgan V.Flaysher yozadiki, "Atoqli ot (AO) va turdosh ot (TO) o'rtasida nafaqat ular (miqdor) darajasida, balki funktsiyasida ham asosiy farq mavjud: Tolar obyektini *xarakterlasa (tavsiflasa)*, Aolar ularni *identifikatsiyalaydi*" [7]. Aynan AO va Tolar o'rtasidagi muhim funktsional farqlar shu darajada ko'pki, ularni ba'zan alohida so'z turkumlari ekanligi haqida qarashlar ham ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, ular o'rtasida qator grammatik differensial jihatlari ham mavjud.



Asosiy qism. AO va TO orasida muayyan o'xshashliklar mavjud: ular nolisoniy obyektlarga ishora etishidan tashqari ular bir xil grammatik xususiyatlar ham ko'zga tashlanadi. Shuningdek, ular tashqi tomondan ham juda o'xshash. Ba'zan ular o'z turini almashishi mumkinligi sababli ularni aniq farqlash qiyinchilik tug'diradi: *Schäfer (cho'pon)* ham ism, ham *cho'pon* kasbini, *Neustadt (yangi shahar)* shaharning biror yangi qismini yoki shahar nomini (mas., o'zbek tilida Yangi Sergeli va b.) ham anglatishi mumkin. Bu kabi bog'liqlik diaxron aspektida ham ko'zga tashlanadi. Qator Aolar tarixan TOlardan kelib chiqqan. Ular nafaqat toponimlar (*Hauptstraße-bosh ko'cha, Feldberg-dala tog'*) yoki ismlar (*Schäfer-cho'pon, Weber-tuquvchi*), balki tarixan

TO bo'lsa-da buni hozirda bilib bo'lmaydigan (*Wolfram* 'Wolf-bo'ri + 'Rabe'-quzg'un) yoki ushbu TO shevadan yo o'zga tillardan o'zlashtirilgan AO (*Köln* < lot. *koloniya, Vera* < rus. *ishonch, Theodor* < grek. *Theodōros* 'Xudoning in'omi'). Manbalarda yozilishicha, nemis tilida Aolar yasalishida Tolar eng muhim manba hisoblanadi. Ular ba'zan sifat (*Jung-yosh, Braun-jigar rang* kabi familiya yoki *Hartlieb* <'qattiq' + 'sevimli' kabi laqab) yoki erkin harflar birikmasi (*Fa, Maoam, Tchibo, Kodak*) bo'lishi ham mumkin.

Yuqorida AO va TO qator o'xshash jihatlarga egaligi tilga olingan bo'lsa-da, ular orasida aniq farqlar ham ko'zga tashlanadi [4].

Referensiyalash darajasi. Atoqli ot uni ifodalagan so'z leksik ma'nosini anglatmagan holda yoki leksik ma'nosidan mustaqil holda bevosita bitta/yagona obyektlarni, turdosh ot esa o'zi ifodalayotgan tushuncha leksik ma'nosini bildirishga xizmat qiladi.

Ma'no deganda muayyan so'z, shuningdek, leksema (lug'atga kiritilgan)ning leksik ma'nosi nazarda tutiladi. Har bir TO shunaqa ma'noga egadir. Ammo ular ko'p ma'noli ham bo'ladi (bunday ma'no kontekstga bog'liq bo'ladi) va muayyan ifoda jarayonlarida yana boshqa okkazional ma'nolar ham kuzatiladi [3].



1-rasm. a) Turdosh va b) atoqli otlarning semiotik atash modellari.

1-rasmda tasvirlanganidek (ushbu jihat chizib qo'yilgan) AOlarda leksik ma'no mavjud emas. Buni F.Debus

quyidagicha ifodalaydi: "- Ifoda (*signifiant*) ham turdosh, ham atoqli otlarda belgining moddiy tomoni sanaladi: u ot hatto

harf yoki tovush orfali ifodalangan, shuningdek, agar imo-ishora til haqida so'z bors, imo-ishora qilingan bo'lsa. Obyekt (denotat, referent, ism/nom sohibi) esa so'zlovchi ism bilan murojaat qiluvchi ekstralingvistik, nolisoniy predmetdir"[3].

TO va AOlarning farqli referensilash imkoniyatlari, ya'ni ularning ekstralingvistik obyekt/referentga ishora qilishi eng muhim aspekt sanaladi. Yuqorida keltirilgan 1-rasmda TO va ATlarning asosiy farqlar ko'rinib turibdiki, uzuq chiziqlar tegishli ot turi muayyan xususiyatga ega emasligini, ya'ni ucburchak qismlari o'rtasida nofaol munosabatni bildirsa, uzuqsiz chiziqlar uning aksini ifodalaydi. Shuningdek, ushbu rasm a)da ko'rsatilganidek, Tolarning ma'nosi/semantikasini hamma biladi, mas., *Hund, ya'ni it* "vovillaydigan, huradigan, tishlaydigan to'rt ayoqli jonivor". TOlar muayyan "ma'noviy maydon"da birlashuvchi (ushbu kontent bilan bog'liq mezonlarga javob beradigan) obyektlar sinfi, turini ifodalashi yuqoridagi misolda o'z aksini topadi: "it" – barcha "vovillaydigan, huradigan, tishlaydigan jonivor"ni anglatadi. TO ma'nosini bilish orqaligina (1-rasmdagi a) da berilgan to'g'ri uzuqsiz o'q/chiziqqa qarang) ifodalangan ma'noviy sinfga referensiya, ishora qilish mumkin. Shuningdek, agar TO yakka o'zi aniq ko'rsatilgan bo'lsa, bunday holda yagona obyektga referensiya, ishora qilinadi. Sof ifoda orqali obyektga to'g'ridan-to'g'ri ishora qilish imkonsizdir. Chapdagi ikkitomonlama strelka "it" tasavvuri har doim bevosita uning ifoda, nomi yordamida "ro'yobga chiqariladi": itni ko'rishimiz bilan uni nomlashimiz, atashimiz mumkin. Aksincha, o'sha itning ismi otini atay olmaymiz, bu uchun uning otini bizga oldinroq boshqa bir shaxs aytgan bo'lishi talab etiladi. Odatda, ko'pchilikda AOlarga qaraganda TO haqida kengroq "bilim" bo'ladi, shuning uchun biz TO ma'nosi haqida emas, balki AO obyekt haqida ko'proq savol beramiz. Mazkur xususiyatlar AOlarda tubdan farq qilishini 1-rasmdan bilishimiz mumkin. Jumladan, AOlarda aniq bir obyektga faqat moddiy (fonik, grafik) ifoda orqali munosabat bo'ladi: diaxronik nuqtai nazardan ma'noviy "qavat, qoplam"dan xoli bo'ladi (diaxronik jihatdan **a**) **TO** > **b**) **AO** tarzda shakllanadi) – bunda mono- va bevosita referensiya kuzatiladi. Lekin ba'zan "shaffof" ismlarda leksik-semantik tuzilma saqlanib qolganidek tuyuladi, mas., nemischa familiya nomi *Schäfer*, ya'ni *Podachi*. Bu erda ba'zi odamlar qatori diaxronik ma'noni bog'lashimiz mumkin bo'lsa-da, aslida, ushbu ism obyekt (podachi)ga umuman (ortiq) ishora qilmaydi, obyekt ma'nosi bilan bog'liq munosabatni ifodalamaydi. Shu sababdan 1-rasm b)da o'ng o'q nafaqat uzuqli, balki ustidan chizib ham qo'yilgan. Agar biz janob *Schäfer – Podachi/Cho'ponni* yaylovdan qidirsak, bu xato yondashuv bo'lar edi. Chunki nemis tilida *Schäfer–Cho'pon* eng keng tarqalgan familiya, lekin u TO sifatida juda kam uchraydi va *Müller–Tegirmonchi* va *Meier–Fermer/G'isht teurvchi usta/Sut firmasi soxibi* kabi so'zlar bilan bir qatorda kontekstdan tashqarida asosan ism sifatida qabul qilinadi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, agar janob *Schäfer–Cho'ponning* kasbi hisobchi yoki informatik bo'lsa ham ajablanmasak bo'ladi. Ba'zi "shaffof" ismlar tabassum qilishimizga sabab bo'ladi: mas., advokatning ismi *Mörder–Qotil*, qassobning ismi *Hunger–Ochlik* yoki yashillar partiyasining rahbari *Roth–Qizil* ismli bo'lsa. O'rganishlarimiz shuni ko'rsatadiki, barcha "shaffof" ismlar ham Tolardan kelib chiqmagan, chunki ba'zan xalq etimologiyasi ham bunga sabab bo'ladi: mas., *Hunger – Ungar (vengr)*, *Augustin* esa *Augustin (Avgustin)* so'zlaridan kelib chiqqan. Xulosa qilib aytganda, "AOning vazifasi (muayyan obyektga) ishora, murojaat qilishdir, bunda unga biror semantik xususiyat kerak bo'lmaydi – [D]ie alleinige Funktion des Eigennamens ist, zu referieren und dass er dazu kein einziges semantisches Merkmal braucht"[11].

1-jadval.

Monosemantik va atoqli otlarning ko'plik qo'shimchasi qiyosi

Monosemantikalar

Nemis tilshunoslarining TO va ATlar qiyosi yoritilgan adabiyotlari tahlil etilgach, ularning yana qator farqli jihatlari yanada ko'zga tashlandi. Jumladan, bunda intensiya va ekstensiya ahamiyatli rol o'ynaydi. "Bir lingvistik ifoda orqali murojaat, ishora qilish mumkin bo'lgan predmetlar to'plami ekstensiya (yoki denotat) va konseptual mazmun esa intensiya deb ataladi[15]. Leksik ma'no (intensiya) qanchalik keng bo'lsa, ekstensiya shunchalik tor bo'ladi va aksincha. Shu sababli TO "*Hund-it*" nisbatan tor intensiya (dumini silkilatuvchi to'rt oyoqli uy hayvoni)ga va keng ekstensiya (shu turdagi itning har qanday namunasi)ga ega bo'lsa, TO *Schwarzer Norwegischer Elchhund-Qora Norvegiya los iti* (it zoti) keng intensiya va tor ekstensiyaga ega. Demak, AOlarda intensional ma'no umuman mavjud emasligi sababli ular maksimal ekstensional hisoblanadi. Nemis olimi Gerhardt bu borada to'xtalib "bunga o'ta semantik ehtiyoj, zarurat yetishmasligi"ni tilga olib, "Chunki hamma AOl bir xil ma'noni anglatadi: bu bizning dunyomizdagi yagona narsadir" deb yozadi[7].

TO va AOl o'rtasidagi qator farqlarga qaramasdan ba'zi o'xshashliklar ham uchrashi manbalar tahlilidan ma'lum bo'ldi. Jumladan, qo'shimcha individual va shaxslararo (ijtimoiy, madaniy) ma'noviy bog'lanish, assotsiatsiyalar sifatida konnotativ ma'no maydonida TO va AOl o'rtasida farqlar ko'zga tashlanmaydi; ular ko'pincha ta'sirchan xarakterga ega bo'lib, referens obyektga nisbatan (aldamchi) tasavvur va qarashlar, tajriba va kechinmalardan kelib chiqadi. Misol uchun, kimnidir *it* qopgan bo'lsa, u uchun *it* boshqa konnotativ ma'noni hamda yana bir "*itni uy hayvoni*" deb hisoblaydigan odam uchun esa yana boshqa konnotativ ma'noni anglatadi, ularning *it* haqidagi tasavvurlari farqli bo'ladi. Yoki *Bertani* yoqtiradigan, uni tanimaydigan va uni yoqtirmaydigan uchala shaxs uchun konnotativ ma'noda uch xil bo'lishi ham sir emas. *Osvensim* (tarixdagi fashistik konslager), *Chernobel*, *11 sentyabr* kabi AOl ijtimoiy qatlam uchun konnotativ ma'noni ifodalaydi.

Sohaga oid tadqiqotlar tahlilidan ma'lum bo'ladi, ma'lum bir Tolarni AOlardan ajratib olishda muammolar uchraydi. Jumladan, *Grippe-gripp*, *Krebs-rak*, *Gicht-podagra* kabi kasallik nomlari aslida nomlar hamda ko'plik shakliga ega emas bo'lsa-da, ular AOl emasligi o'z-o'zidan tushunarli. Kasallik nomlari mavhum otlar qatoriga kiradi, shu sababdan ko'plik shakliga ega emas (xuddi *Trauer-motam*, *Fleiß-mehnatsevarlik*, *Verstand-idrok*, *fahm* so'zlari kabi). Bundan tashqari hafta kunlari, oy hamda bayram nomlari ham TOlar sanaladi: *Montag-dushanba*, *Mai-may*, *Ostern-pasxa* va *Weihnachten-rojdestvo* kabi ma'lum vaqt birliklari vaqti-vaqti bilan takrorlanadi. Shuning uchun ular TOlar qatoriga kiritiladi. Shunday bo'lsa-da, aniq vaqt yoki davrni o'ziga xos xususiyatlari va aniq belgilangan nuqtasini ifodalovchi vaqt nomlari (xrononimlar) ham mavjud: *die Steinzeit-tosh davri*, *das Mittelalter-O'rta asrlar*.

Yuqoridagi muammalar yoritilgan asarlarda tadqiqotchilarning yozishicha, monosemantika yoki dunyoda yolg'ich uchrovchi "predmet"lar deb ataluvchi va yakka denotatga ega *Sonne-quyosh*, *Mond-oy*, *Erde-yer*, *Paradies-jannat*, *Hölle-do'zax* kabi so'zlar otlarning qaysi turiga borasida bahsli fikrlar qayd etilsa-da, D.Nyubling va b. bunday otlarni TO deb hisoblaydi: chunki bu so'zlarning har biri mazmun jihatdan aniq ta'riflanishi mumkin va ular muayyan semantik belgiga ega[13]. Leys esa ularni "monosemantik emas, balki ko'proq monoreferensial TO deb atashni taklif etadi" [11]. Biz ham ushbu fikrni qo'llab-quvvatlaymiz, chunki bu kabi monosemantikalar o'z ko'plik shaklini ham odatiy TO kabi yasaydi va bu orqali AOl ajralib turadi (1-jadvalga qarang):

Atoqli otlar

Birlik
(die) Sonne
(der) Mond

Ko'plik
die Sonnen
die Monde

Birlik
(die) Anna
(der) Simon

Ko'plik
die Annas
die Simons

TO yoki AOLardan biriga tegishlilikni aniqlashdagi muammasalar boshqa so'zlarda ham uchraydi. Jumladan, o'z tarkibida morfologik jihatdan AO ega bo'lgan, lekin ular kabi vazifani bajarmaydigan xalq va qabila nomlari ham Tolar hisblanadi: *Engländer-angliyaliklar, Polen-polshaliklar, Türken-turklar. England-Angliya, Polen-Polsha va Türkei-Turkiya* so'zlari AO sanaladi, lekin u erda istiqomad qiluvchi xalq, elat nomlari ham funksional, ham shaklan xuddi TOLarga o'xshaydi (qiyos. *ein/der Engländer - die Engländer*)[4]. Ularni *heißen-deb atalmoq/nomlanmoq* fe'lini qo'llash orqali aniqlab olish pragmatik echim siftida taklif etiladi: *Dieser Mann heißt *Engländer (*Pole, *Türke)* shaklida qo'llash noto'g'ri bo'lardi (*dieses Land heißt Polen, Türkei* shaklida qo'llash to'g'ri sanaladi).

Yuqorida TO va AOLar farqli va o'xshash jihatlari ilmiy xulosalar bilan asoslangan bo'lsa-da, ular onomastik adabiyotga ham tegishli deb aytish asossiz fikr sanalishini sohaga oid adabiyotlar tahlili ko'rsatadi. Onomastik adabiyotda terminlar ma'nosi, semantikasi, mazmuni, referensiyasi, konnotatsiya va dennotatsiyasi va shu k. borasida terminalogik chalkashliklar ko'zga tashlanishi, ushbu terminlarni aniq sharhlash, so'ngra ularni bir xilda va imkon qadar ularning omonim va sinonim variantlaridan voz kechish va ularni lingvistik me'yorlar doirasida qo'llash, qisqa aytganda, ularni tartibga solish zarurati borligi, ammo bunga e'tibor qaratilmayotganligi qayd etiladi. Shu tarzda, ismlarning sof referens potensiyali ko'pincha ularning ma'nosi bilan tenglashtiriladi, ya'ni qator izlanishlarda ismlar

ma'nosi yoki "individual ma'nolar" haqida so'z boradi[8]. TO va AO ma'nosini o'rgangan nemis olimi Ye.Hanzakning yozishicha, ular "turli xil ma'nolar"ga egadir va ismlarning yangi "egasi" paydo bo'lishi bilan ismlar ma'nosi ham o'zgaradi yoki bu jarayonda ko'p sonli omonimlar qatori namoyon bo'ladi[8]. Shuningdek, dennotatsiya va konnotatsiya terminlari bunda ko'pincha lingvistik nuqtai nazardan emas balki, falsafiy an'analardan kelib chiqib tushuniladi. Bundan tashqari, ko'pincha belgi, xususiyatlarni o'z ichiga olgan aniq referens obyekt ismlar ma'nosi sifatida qaralishi hamda bir necha sathlarning chalkashtirilishi qator tilshunoslar tomonidan salbiy tanqid qilinadi[9]. Leysning fikriga qo'shilgan holda ismlarni lingvistik nuqtai nazardan tadqiq etish talab etiladi: *"Suqrot obyektining shartli yoki zaruriy sifatlarini bilish – ushbu ismning qo'llash uchun zarur shart sanalmaydi. Demak, bu sifatlarning hech biri Suqrot ismining o'ziga xos ma'noviy belgilarini ifodalay olmaydi. Darvoqe, Suqrot haqidagi bilimlarimiz tarix davomida butunlay o'zgarishi, hattoki, Suqrot aslida mavjud bo'lmaganligi ma'lum bo'lishi mumkin. Shunda ham bu ism o'z referensiyasini yo'qotmaydi. Shuningdek, obyektning faqat atributlariga o'zgaradi, lekin ushbu ismning referensiyasi o'zgarimasdan qoladi"* [11].

Nemis TO va AOLari farqli va o'xshash tomonlari yoritilgan qator adabiyotlar tahlili hamda yuqorida keltirilgan xulosalarga tayanib ushbu ot turlari o'rtasidagi semantik munosabatni quyidagicha ifodalash mumkin bo'ladi (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

Turdosh va atoqli otlar o'rtasidagi farqli va mushtarak semantik jihatlari

	Turdosh ot	Atoqli ot (ism)
Etimologik ma'no	+	+
Leksik ma'no/semantika	+	-
Intensiya	turli xil	minimum
Ekstensiya	intensiyaning aksi	maksimal
Konnotatsiya	+	+
Kategoriyaga oid ma'lumotlar (rod, so'z turkumi, ot sinfi/turi...)	+	(+)

Agar biz *Mayer, Bello, Freiburg, Türkei* kabi so'zlarni eshitasak, ularni AOLarga hamda AO turlari: familiya nomi, it nomi, shahar nomi, davlat nomi kabi sinflarga kiritamiz. AO turlari haqidagi bu bilim hayratlanarli darajada ishonchli, bu orqali esa AOLar [ot], [AO], [AO turi], [turlanish turi], [rod]

kabi kategorik (semantik emas) ma'lumotlarga ega bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, bir ko'ppakni *Juliane, Köln* yoki *Campari* deb atash ismlar funksiyasiga zid emas (2-jadvaldagi qavslari qo'shuv belgisi "(+)" shu sababdan).

ADABIYOTLAR

1. Blunar V. Zum Prozess der Onymisierung // Eichler/Walther, 1980. Bd. 1, – S. 50-57.; Hoffmann G. Namen und Namengebung in der Astronomie. // Eichler et al. 1996, – S. 1627-1637.
2. Debus F. Aspekte zum Verhältnis Name - Wort. – Steger. 1977. – S. 3-25.
3. Debus F. Namen-Bedeutsamkeit und Namen-Inhalt. Zur Semantik der nomina propria // Kleinere Schriften, Bd. 3. – Hildesheim. 2007. – S. 447-455.
4. Fleischer W. Namen als sprachliche Zeichen und ihr besonderer sprachlicher Charakter // Namenforschung heute. Ihre Ergebnisse und Aufgaben in der DDR. – Berlin: –S. 7-37.
5. Fleischer W. Zu den Prozessen der Motivation und Semantisierung bei den Eigennamen. Vorschläge zur Terminologi // Christoph et al., 1984. – S. 59-61.
6. Fleischer W. Zum Verhältnis von Name und Appellativum im Deutschen // Wissenschaftliche Zeitschrift der Karl-Marx-Universität Leipzig. – Leipzig: 1964. –S. 377.
7. Gerhardt D. Über die Stellung der Namen im lexikalischen System. BNF 1, 1949-50, - S. 5.
8. Hansack E. Das Wesen des Namens // Brendler/Brendler, 2004.– S. 61.
9. Kleiber G. Problèmes de référence. Descriptions définies et noms propres. – Paris, 1981.
10. Koß G. Namenforschung. Eine Einführung in die Onomastik. – Tübingen. 2002.
11. Leys O. Was ist ein Eigenname? // Debus/Seibicke. 1989. –S. 143-165.
12. Lötscher A. Von Ajax bis Xerox. Ein Lexikon der Produktnamen. – Zürich. 1995.
13. Nübling D., Fahlbusch F., Heuser R. Namen. Eine Einführung in die Onomastik. 2., überarbeitete und erweiterte Auflage. – Tübingen: Narr Francke Attempto Verlag. 2015. – S. 35.
14. Schippan T. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. – Tübingen. 2002.



Nasiba XAKIMOVA,
Buxoro davlat universiteti magistri
E-mail: n.x.xakimova2022@buxdu.uz

BuxDU dotsenti, f.f.d.(PhD) M.B.Akhmedova taqrizi asosida

DETEKTIV ASARLARNING INGLIZCHA- O‘ZBEKCHA TARJIMASIDA IJODKOR USLUBINI QAYTA YARATISH TAMOYILLARI

Annotsatsiya

Maqolada detektiv asarlar haqida umumiy ma'lumotlar, shu bilan birga bu asarlarning inglizcha-o'zbekcha tarjimasi, va tarjimada ijodkor uslubining qayta yaratilish tamoyillari haqida batafsil yoritilgan. Bundan tashqari tarjima davomida qanday usullardan foydalanish mumkinligi haqida tushunchalar keltirilgan va misollar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Detektiv asarlar, tarjima usullari, analitik detektiv hikoya, interyer detallari, landshaft detallari, lingvistik vositalar.

PRINCIPLES OF CREATING THE CREATIVE STYLE IN ENGLISH-UZBEK TRANSLATION OF DETECTIVE WORKS

Annotation

The article provides general information about detective works, as well as the English-Uzbek translation of these works, and the principles of re-creating the artist's style in the translation. In addition, concepts of what methods can be used during translation are given and illustrated with examples.

Key words: Detective works, translation methods, analytical detective story, interior details, landscape details, linguistic means.

ПРИНЦИПЫ СОЗДАНИЯ ТВОРЧЕСКОГО СТИЛЯ В АНГЛО-УЗБЕКСКОМ ПЕРЕВОДЕ ДЕТЕКТИВНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

Аннотация

В статье даны общие сведения о детективных произведениях, а также англо-узбекский перевод этих произведений и принципы воссоздания стиля художника в переводе. Кроме того, даются понятия о том, какие методы можно использовать при переводе, и иллюстрируются примерами.

Ключевые слова: Детективные произведения, приемы перевода, аналитический детектив, детали интерьера, детали пейзажа, языковые средства.

Introduction. In the text of an analytical detective story, "one's own space" (the space of a detective-analyst; "enclosed space") is formed by interior details that are implemented by vocabulary with the semantics of comfort and have a positive evaluative orientation. "Alien space" (the space of a criminal; "open space") is formed by landscape details, which are realized by lexical units with a negative evaluative orientation. Details of the interior and details of the landscape form an opposition, opposing "one's own space" to "foreign space".

Literature review. In the text of a hard detective story, the linguistic means involved in the formation of interior details ("one's own space") and landscape details ("foreign space") are loaded with negative evaluative connotations, which means blurring the boundaries between spaces. In the conditions of cruel reality, the actions of the detective often approach the actions of the criminal, and his image - to the image of the anti-hero. The details of the "enclosed space" and the details of the "open space" often imply the inner emptiness, fatigue and loneliness of the detective, his cynical attitude towards the world, being realized by vocabulary with the appropriate semantics.

Research methodology. In the text of a spy detective story, "one's own space" on a foreign territory is formed by the details of the transformed localizer "house" (Headquarters, temporary apartment, hotel room). The inclusion of "one's own space" in "foreign space" is actualized through interior details implemented by lexical units with the semantics of artificiality, secrecy and anonymity. Landscape details, often of a leitmotif character, are included in personalized descriptions and are associated in the reader's mind with the image of the enemy. The connection between "one's own" and

"foreign spaces" is depicted by means of such elements of an external event series as messages, telegrams or ciphers from the Headquarters.

In the text of any detective story, temporal details fix the time of the crime, the stages and circumstances of its investigation. The text-typological markedness of the temporal components of the text is as follows: in the text of an analytical detective story, these details, nominating the duration of the detective's mental activity, can imply its intensity; in the text of a hard detective - to indicate his feelings and experiences, the state of loss and emptiness. In the text of a spy detective story, temporal details directly or indirectly point to the connection of the plot with the historical course of events, and imply the high professionalism of the agent who follows the instructions exactly.

The key concepts of the work were recognized as the concepts of "invariant", "type of text" and "artistic detail". All analyzed text types were treated as variant realizations of one invariant. An invariant is an ideal abstract pattern present in all variants. Accordingly, the invariant of the detective was understood as such a variant of the detective, which fully reflected the content of all variants of the detective. He called the text type "analytical detective" as the earliest in time of its appearance, while the subsequent types of text of the detective ("hard" and "spy") were perceived in an associative connection with the original model. Stable features of the invariant, thus, formed the basis for the study of variant textual implementations.

Analysis and results. The "type of text" is traditionally understood as a unit of a higher level of abstraction compared to a real speech manifestation, which includes an invariant of the semantic, pragmatic and

grammatical structures of the text and acts as a productive model on which the vast majority of specific texts are built. At the same time, the regularity and repetition of lexical means are among the main criteria for determining the textual typological affiliation of the text.

At the same time, the regularity and repetition of lexical means were among the main criteria for determining the textual typological affiliation of the text. The artistic model of a person - a character - is in the center of an absolutely anthropocentric artistic text and, according to the author's intention, exists in a system of spatio-temporal coordinates. In the work after M.V. Nikitin and I.R. Galperin emphasized the primacy of the category of "space" as a more accurate category than the category of "time".

The analysis of text-typological characteristics of various types of English-language detective text was carried out:

a) based on the understanding of an artistic detail as an element of an artistic image that has a certain degree of aesthetic significance and a representative of the universal categories "man", "space" and "time";

b) relying on the universal opposition "us/them", which realizes the conflict between "good" and "evil", which underlies the plot of the detective story, and is actualized through language units with the opposite emotional and evaluative orientation;

c) taking into account the historical and cultural context to which the text "belongs", since any knowledge can be adequately interpreted only through its inclusion in the context as an integral structure of knowledge.

The paper proposed a scheme for describing a character's portrait, including four types of details: details describing the professional qualities of the protagonist, details of appearance, details of the "inner world" and speech details. It should be emphasized that the boundaries between the identified types of details are blurred, which is explained by the specifics of the poetic language, the absolute anthropocentricity and complexity of the literary text.

The key conclusion of the article research was the conclusion about the typological markedness of the artistic detail. Based on the analysis of portrait, spatial and temporal details in 14 works of detective prose of the 20th century with a total volume of 3278 pages, a set of distinctive characteristics of three types of detective text was identified.

The text of the analytical detective story (XIX-XX centuries) reflects in an artistic form the interest of society in cultural development, scientific and technological progress and the ideas of logical positivism. The portrait details of the detective-analyst reflect his erudition, extraordinary intellectual abilities and are formed by means of lexical units

denoting mental activity. The speech of the detective is represented by terms from the field of chemistry, medicine and forensics, the names of scientists, poets and philosophers.

The spatial details of this text type implement the opposition "one's own or someone else's" in its traditional sense: the details of "one's own space" (the detective's space) are formed by lexical units of a positive evaluative orientation with the semantics of safety and comfort, and the details of "foreign space" (criminal's space) are formed by lexical units negative evaluative orientation with the semantics of danger and bad weather. Temporal details are often functionally directed to the implication of the features of the detective's mental activity - its duration in time and, as a result, its intensity or effectiveness.

The text of the hard detective story (30s of XX century) reflects the events of the Great Depression and the global economic crisis. Portrait details of a detective are formed by means of lexical units that denote active physical actions necessary for a detective to perform professional activities, as well as personal qualities represented by vocabulary with the semantics of severity, fatigue and loneliness. In the speech of the detective, lexical units of reduced vocabulary are presented: slangisms, jargonisms and vulgarisms. The image of the protagonist approaches the anti-hero, as a result of which the boundaries between "one's own space" and "alien space" are erased, which is confirmed by the inclusion of lexical units with a negative evaluative orientation in the description of spaces. Temporary details are functionally aimed at implication of the detective's feelings and are implemented by vocabulary with the semantics of emptiness, loss and loneliness.

The text of the spy detective (60-70s of the 20th century) reflects the events of the Second World War and the Cold War, which become the background for depicting the activities of the special services.

Conclusions and suggestions. The portrait details of the detective-agent are formed by linguistic units denoting his professional qualities: the ability to hide emotions, conspiracy, phenomenal memory, strong physical data, etc. In the speech of the detective agent, professionalism and political terms are widely used. The details of "one's own space", included in the "foreign space", are realized through the vocabulary of various evaluative orientations with the semantics of artificiality, secrecy and anonymity. The details of time emphasize the conjugation of the political intrigue of the work with specific historical events and are represented directly (calendar dates) or indirectly (names of political figures, nominations of political parties and organizations, modern technical means in the arsenal of special services).

REFERENCES

1. Belza S. Masters of Detective Text. / Belza S. [foreword]. M. : Press, 1992. - Issue. 6. - pp. 4-11.
2. Vaganova E.Y. Aphorism as a type of text in the aspect of intertextuality Text. : autoref. . cand. philol. Sciences: No. 10.02.04: 12.11.2002 / Vaganova Ekaterina Yurievna. SPb., 2002. - 20 p.
3. The genesis of the mythological characters which express faith to "cult momo" and their peculiarity. ISJ. Theoretical & Applied Science. -Philadelphia, USA, Impact Factor, 2018. № 10 (66). - P.334-341. The nature and genesis of "Bibisheshanba" and "Bibimushkulkushod" ceremonies.
4. Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking. - Vol. 24, No. 12, 2021. <https://www.cyberpsychologybehaviorsocialnetworking.net/P.781-788>. (Web of Science).
5. Момо култига ишончни ифода этувчи мифологик образлар генезиси. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific journal Impact Factor. ORIENS Volume 2, Issue 12. ISSN 2181-1784. SJIF 2022: 5.947. ASI Factor = 1.7 Desember 2022. 909-916. www.oriens.uz.
6. Система и генезис мифологических образов, выражающих веру в культ момо (бабушка) Central Asian journal of theoretical and applied sciences. Volume: 03 Issue: 12 | Dec 2022. - P.47-52 ISSN: 2660-5317 <https://cajotas.centralasianstudies.org>.
7. Rakhmonova Dilfuza Mahmudovna The concept of pedagogical technology, its definitions and differences from the methodology. International Journal on Integrated Education. Copyright (c) 2022 Author (s).
8. Rakhmonova Dilfuza Mahmudovna Socio-pedagogical foundations of using the principle of cross-culturalness in the process of teaching a foreign language. Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3).



Firuz XALIMOVA,
Samarqand davlat chet tillar institute dotsenti, PhD
E-mail: firuzahalimova@mail.ru

Samarqand davlat chet tillar instituti professori, f.f.d Sh.S.Safarov taqrizi asosida

POETIK IDIOSTILNING KOGNITIV-DISKURSIV BELGILARI

Аннотация

Ushbu maqolada poetik matnning kognitiv, diskursiv xususiyatlari hamda muallif idioshtilining kognitiv belgilari o'rganilgan. Poetik matnda, boshqa badiiy matnlardan farqli o'laroq, muallif tomonidan badiiy vositalar, murakkab kognitiv tuzilmalarning keng qo'llanilishi natijasida voqelik hissiy, ta'sirchan ifodalanadi. Shu o'rinda muallifning o'ziga xos uslubi, idioshtili voqelanadi. Idioshtilning belgilanishi muallifning kognitiv bilim darajasiga bog'liqligi ko'pgina olimlar tomonidan tavsiflangan. Shuningdek, poetik diskurs shakllanilishi, voqelanish tavsifi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Semantik va sintaktik struktura, kognitiv diskurs, idioshtil, tafakkur, idrok, konsept, poetik matn.

КОГНИТИВНО-ДИСКУРСИВНЫЕ ПРИЗНАКИ ПОЭТИЧЕСКОГО ИДИОСТИЛЯ

Аннотация

В данной статье рассматриваются когнитивные, дискурсивные характеристики поэтического текста, а также когнитивные симптомы авторского идиостиля. В поэтическом тексте, в отличие от других художественных текстов, в результате широкого использования автором художественных средств, сложных когнитивных структур реальность выражается эмоционально, впечатляюще. Здесь же и вступает в игру собственный стиль автора, его своеобразие. Зависимость обозначения идиостиля от уровня когнитивных знаний автора была описана многими учеными. Также представлено формирование поэтического дискурса, описания реальности.

Ключевые слова: Семантико-синтаксическая структура, когнитивный дискурс, идиостиль, когниция, восприятие, концепт, поэтический текст.

COGNITIVE-DISCURSIVE FEATURES OF POETIC IDIOSTYLE

Annotation

This article discusses the cognitive, discursive characteristics of a poetic text, as well as the cognitive symptoms of the author's idioshtile. In a poetic text, unlike other literary texts, as a result of the author's extensive use of artistic means, complex cognitive structures, reality is expressed emotionally, impressively. This is also where the author's own style, his originality, comes into play. The dependence of the designation of the idioshtile on the level of cognitive knowledge of the author has been described by many scientists. The formation of a poetic discourse, a description of reality is also presented.

Key words: Semantic-syntactic structure, cognitive discourse, idioshtyle, cognition, perception, concept, poetic text.

Kirish. Zamonaviy kognitiv tadqiqotlarning muhim yo'nalishi konseptni lisoniy voqelantirish tizimida badiiy matnning ahamiyatini aniqlashdir [Krasных, 1998: 53-70]. Badiiy matn juda murakkab hodisa bo'lib, u lisoniy belgilarning semantik aloqa yordamida ketma-ket joylashuvidan iborat [Alefirenko, 2007: 4]. Matnning asosiy birligi – bu bitta asosiy mavzu yoki g'oyani rivojlantiruvchi bir nechta semantik va sintaktik jihatdan bog'liq jummalarning kombinatsiyasi bo'lgan iboraviy birlikdir.

Matn bog'liqligini ta'minlovchi quyidagi psixolingvistik vositalar ajratiladi [Gibbs, 1999: 263-270]:

a) Grammatik (shaxs-son birligi, fe'l shakllarining xususiyatlari, modallik va h.k.);

b) Aloqaning lisoniy vositalari (takrorlar, sinonimlar va boshq.);

v) Tema va rema ketma-ketligi;

g) Koreferensiya (barcha elementlarning bir mavzuda birlashishi) [Belyanin 2000; Sorokin, 1985; Mostovskaya, 2006: 481-483].

Ushbu xususiyatlar tufayli matn shakl va mazmun birligi bilan ajralib turadi [Alefirenko, 2007: 4-5].

Matnning asosiy belgilarini tasvirlanayotgan voqeliklarning yaxlik matn sistemasida mujassamlashtirish qonuniyatlari belgilaydi [Chernyavskaya 2005].

Badiiy matndagi konseptual ma'no og'zaki va vaziyatli ifodalar tizimi orqali yetkaziladi [Novosel'seva, 2003: 27], tilning konseptual tizimi shakllantiriladi [Proskuryakov, 2002], matnning propozitsion tizimi ob'ektiv olamni aks

ettirishga va uning sub'ektiv fikriy tasviriga asoslanadi [Lotman, 1996].

Badiiy matni konseptual tahlil qilish va uning tabiatini konseptlar to'plami sifatida tushunish, kognitiv tilshunoslikning asosiy qoidalaridan biri – matni yaratish va qabul etishning ikki tomonlama jarayoni sifatida tushunishga asoslanadi.

Butun matn va uning qismlarini tushunishga bilish (kognitsiya) yordam beradi. Bilish deganda, biz, bilimning o'zini emas, balki "oldindan bilish"ni qabul qilish va undan foydalanish jarayonini (shu jumladan oddiy "tafakkur"), idrokka xizmat qiladigan va unga hamroh bo'lgan aqliy hodisalarning turlarini (xususan, qayta ishlashni) hamda bilim va lisoniy iboralarni ishlab chiqarishni nazarda tutamiz [5].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. "Bilish" va "kognitiv" tushunchalari mutlaqo boshqacha ma'nolarga ega, ba'zida kognitiv artefaktlardan foydalanish idrokni tushunishga yordam beradi [Nemeth and others, 2004: 726-735]. Insonning olamni va o'zini bilish jarayoni sifatida bilishni an'anaviy tushunish eng maqbuldir [KSKT, 1997: 81-83].

Sh.S. Safarovning fikriga ko'ra, dunyoni, voqelikni bilish, uni idrok etish oddiy hodisa emas. Ayrim hollarda bilishni to'g'ridan-to'g'ri fahmlash, tushunish harakatlari bilan bog'lab qo'yishadi. Ammo hayvonlarga ham qisman (oddiy shaklda bo'lsa ham) fahmlash, tahlil qilish va umumlashirish qobiliyati xos ekanligi ma'lum. Shu sababli bilish bilish faoliyati haqida gap ketganda, faqatgina "cogitation"

(lotincha), ya'ni "aql, tafakkur" hodisasini tasavvur qilish bilan cheklanmasdan, balki "cogitatorium" – tafakkur faoliyati shaxsini hamda bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi nomenal (ijtimoiy, madaniy, lisoniy) hodisalarni ham inobatga olish kerak bo'ladi [Safarov, 2006:10].

Matni tushunishga uning elementlarining zohiriy va botiniy aloqalarining birligi sifatida lisoniy tahlil qilish [Galperin, 1981; Minyar-Beloruhev, 1996; Moisyeva, Ogneva, 2003; Shanskiy, 1984] va psixologik tahlil [Zorkina, 2003: 205-210]ni amalga oshirishga ko'maklashadi. Badiiy matni tahlil qilishda kognitiv yondashuvning asosi sifatida quyidagi omillar aniqlangan:

1) Ontologik xususiyatlar: matn faoliyatining kommunikativ tabiati va uning tuzilishi;

2) Badiiy voqelikning g'oyaviy va gnosiologik tabiati;

3) Badiiy so'zning o'ziga xosligi: badiiy asarlar tili, milliy tilning barcha ijodiy salohiyati qamrab olgan, maksimal darajada namoyon bo'lishi;

4) Yozuvchining voqelik haqidagi uning asarida individual muallifning olam manzarasi shaklida mujassamlangan bilimlarini ifodalovchi murakkab semantik belgi sifatida namoyon bo'ladigan badiiy matn antropotsentriзмining yuqori darajasi [Babenko, 2006: 39-42].

Badiiy matnning lisoniy tahlili badiiy nutqda ko'p darajali birliklardan foydalanishning individual-muallifiy xususiyatlarini ochib beradigan stilistik vositalarni aniqlashga qaratilgan. Matnning kommunikativ maydoni proyeksiyalar va dominantlar tizimi asosida tashkil etilgan bo'lib, uni bir yoki bir nechta o'quvchi tomonidan talqin qilish imkoniyatlari va yo'nalishlarini belgilaydi [Rodionov, 1986: 23-27; Shveyser, 1988; Sulimov, 2006: 47]. Ifoda ma'nosi qanchalik noaniq bo'lsa, o'quvchi kognitiv bo'shliqlarni to'ldirishda shunchalik erkinlik oladi [Beaugrande, 1997]. Ya'ni har bir o'quvchida turlicha tafakkur faoliyati sodir bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, o'zaro bog'liq munosabatlarda bo'lgan matnlarning ko'p o'lchovli makonda matn mazmunini o'rnatishning kognitiv jarayoni sifatida talqin qilish ko'p hollarda nima sababdan insonni o'rab turgan voqelik matnda ma'lum bir tarzda aks ettirilganligini tushuntirishga zamin yaratadi [Karpuxina, 2001].

Muhokama va natijalar.

Voqelikning ongda aks etishi nafaqat lisoniy shaklda, balki nolisoniy tarzda ham amalga oshadi. B.A. Serebrennikov tafakkurning quyidagi turlarini ajratadi [Serebrennikov, 1983: 104-110]:

1) Aniq tafakkur – aniq, konkret muhitda yuzaga keladigan voqelikning umumlashtirilgan obrazi (aksi);

2) Ramziy tafakkur – xotirada mavjud bo'lgan butun bir voqelik yoki predmet-hodisalarni alohida bir muhit-sharoitga bog'liq bo'lgan holda qayta eslash;

3) Amaliy tafakkur – bevosita maqsadli harakatlar bajarilishi bilan bog'liq fikr;

4) Lingvokreativ yoki lisonni shakllantiruvchi tafakkur – tafakkur harakatlari bevosita til tizimi zahiralari bilan bog'liq;

5) Nolisoniy tushuncha tafakkuri – voqelik haqidagi tushunchaning paydo bo'lishi nutqiy harakatdan oldingi bosqichga oid.

Poetik nutqda tafakkurning asosan ramziy va lingvokreativ turlari aks topadi va ular muallifning o'ziga xos g'oyaviy uslubi, ya'ni idiostili hamda konseptual tanlovi asosida voqelanadi. Bilish va konsept intuitiv "bashorat" sohasida yotadi, tushuncha esa intellektual yoki diskursiv maydonda shakllanadi [Demyankov, 2005: 6].

I.V. Vyidinaning fikriga ko'ra, "poetik matn bu shunday nutqiy ifodaki, birinchidan, ma'lum bir konseptni, ya'ni muallifning maqsadini aks ettiruvchi va matnning yaxlitligini shakllantiradigan g'oyani ob'ektivlashtiradigan, ikkinchidan, pragmatik ta'sirga ega, ya'ni adresatga estetik ta'sir ko'rsatadi" [Vyidina, 2005: 46]. Yozuvchi badiiy

olamining aqliy va lisoniy tuzilmalarining umumiyliги poetik idiostil sifatida qaraladi. Uni o'rganish kognitiv matnshunoslik nuqtai nazaridan aqliy hodisalardan ularni faollashtirish usullariga, muallif konseptual tizimi birliklaridan ularning lisoniy tizimi yo'nalishida aniqlanadi [Baranov, 1997].

D. M. Potsepnyaning so'zlariga ko'ra, olamning individual-muallifiy manzarasi badiiy asarda ochiladi va tilning estetik vazifasining aksi hisoblanadi [Potsepnyaya, 1995]. Ko'pgina tadqiqotchilar, olamning individual-muallifiy manzarasi tushunchasiga nisbatan, muallif idiostili tushunchasini ishlatadilar [Butakova, 2000, Tarasova, 2003].

Idiostilning asosiy kognitiv va kommunikativ xususiyati "lisoniy shaxs" tushunchasidir, ya'ni:

1) Nutqiy ifoda qobiliyatiga ega ma'lum bir tilda so'zlovchi shaxs [Babushkin, 1999: 11];

2) Shaxsning psixofizik xususiyatlari majmuasi (nutq shaxsi), ya'ni nutqiy asarlarini yaratish va idrok etish qobiliyatiga ega;

3) Tilni aloqa vositasi sifatida ishlatadigan shaxsning og'zaki xatti-harakatlarining xususiyatlari to'plami [Suxix, 1997: 64];

4) Shoirming individual-muallifiy talqinidagi badiiy konseptlar tizimi.

Bizning badiiy konsept haqidagi tushunchamiz N.F. Alefirenko ta'rifiga asoslanadi. "Konsept, deb yozadi muallif, bu murakkab va ko'p bosqichli mental shakl bo'lib, uning aniq tarkibiga ba'zi semantik tarkibdan tashqari, shuningdek, shaxsning aks ettirilgan ob'ektga munosabati haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan baholovchi va munosabat-baholovchi semantika kiradi" [Alefirenko, 2005: 59-60]. N.F. Alefirenko tomonidan talqin qilingan konseptning tuzilishi mazmun va baholovchi komponentlarni yagona sinergetik yaxlitlik sifatida o'z ichiga oladi.

Konseptning shakllanishi bir nechta o'zaro shartli xususiyatlar bilan shartlangan:

1) Universallik – umuminsoniy qadriyatlar va tasavvurlarni ifodalaydi;

2) Idiostil;

3) Ijtimoiylik – etnolisoniy shaxsning ijtimoiy mavqei ni ifodalovchi;

4) Guruhlilik – gender, yosh va kasbu-kori jihatidan;

5) Individual-shaxsiy, shoirming shaxsiy tajribasini, nutq uslubi va estetik qobiliyatini aks ettiradi. Agar biz konseptning tuzilishini maydon modeli shaklida tasavvur etsak, unda uning yadrosini dastlabki ikkita xususiyat deb hisoblash lozim. Qolganlari uning yaqin va uzoq sarhadini ifodalaydi.

Badiiy konsept ushbu xususiyatlarning barchasiga ega, yagona farq shundaki, tanlangan xususiyatlar unda semantik mohiyatining aks yo'nalishi bilan tavsiflanadi. Bu badiiy konseptda lisoniy shaxsning ta'siri ortib borishi bilan bog'liq. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, konseptning boshqa turidan farqli o'laroq, badiiy konseptni belgilashda, har qanday konseptning mohiyatini belgilaydigan odatiy va shaxsning dialektik birligi sifatida qarash yetarli emas. Shuning uchun badiiy konseptning o'ziga xos xususiyatlarini uning lisoniy shaxs bilan tarkibiy aloqasidan izlash kerak. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, poetik matnning konseptual tarkibi, diskursiv xususiyati – uning muallifi idiostiliga, shuningdek kognitiv dunyoqarashiga bog'liq.

Ushbu mohiyatni tushunishda biz N.F. Alefirenkoning ta'rifiga nazar solamiz: "nutqiy janrlardagi badiiy tabiat – og'zaki san'atning artefaktlaridir. Undagi individual va noindividual o'zaro aloqasi, konsepsiyat va diskurs o'rtasidagi munosabatlar qonuniyatlari bo'yicha tadqiqotlar jarayonida aniqlanishi mumkin. Bu holda konsept nutqiy tafakkur arxetipi, bilishning eng qadimgi modeli, metanarrativlik (yetakchi, global diskurs) sifatida qaraladi" [Alefirenko, 2005: 50].

Konseptlarni tasniflashda mavjud tajribani hisobga olgan holda (A.P. Babushkin, N.S. Bolotnova, L.V. Miller), L.G. Zolotых poetik asarda badiiy konseptlarning quyidagi turlarini ajratadi:

a) Idiostilistik ahamiyati – yozuvchi idiolektini belgilovchi asosiy konseptlar;

b) Ifoda vositalari – nominativ (leksik-frazeologik), supernominativ va diskursiv;

c) Idiostilistik xususiyati – etno-madaniy va individual–muallifiy;

d) Tuzilishi bo'yicha – aloqasiz ("o'z-o'zini ta'minlovchi" badiiy konseptlar) va aloqali (freym tarkibidagi konseptlar);

y) Derivatsion potensial bo'yicha – nutqni shakllantiradigan badiiy konseptlar va diskurs tomonidan shakllangan badiiy konseptlar [Zolotых, 2006: 86].

"Yozuvchi – matn – o'quvchi" tizimi o'zaro ta'siriga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda ushbu tizimni qamrab olgan diskurs tushunchasi yetakchilik qilmoqda. Badiiy diskursni lisoniy va nolisoniy ifoda variantlari, shu jumladan

ekstralingvistik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan yaqin, dinamik o'zaro aloqada bo'lgan badiiy matnlarning butun majmuasining murakkabligi jihatidan o'sib boruvchi birligi sifatida aniqlash mumkin (T.A. van Deyk, N.D. Arutyunova, YU.N. Karaulova, V.V. Krasных va boshqalar).

Xulosa. She'riy matnni qabul qiluvchi tomonidan idrok etish jarayonida badiiy diskurs muallifning "ko'rsatmalarini" hisobga olgan holda yoki buzgan holda, matn va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sirning izchil bashorat qilinadigan va oldindan aytib bo'lmaydigan jarayon sifatida hosil bo'ladi.

Albatta, har qanday poetik matn o'ziga xos subyektiv xususiyatlarga ega, chunonchi, muallif muqobil voqelikni, muqobil poetik olamni yaratadi, lekin umumiy kognitiv mexanizmlar va bilish tamoyillari ta'siri bilan belgilanadigan ma'lum qoida-qonuniyatlar va cheklovlar mavjudki, ular ham, umuman, ijodiy tafakkur uchun ham, ma'lum bir davr uchun ham dolzarbdir.

ADABIYOTLAR

1. Alefirenko N.F. Konsept i znachenije v janrovoy organizatsii rechi: kognitivno-semasiologicheskiye korrelyasii // Janry rechi: sb. nauch. trudov. Выр. 4. Janr i konsept. – Saratov, 2005.
2. Alefirenko N.F. Tekst – diskurs – yazыk / Russkaya filologiya. Ukrainskiy Vestnik: Respublikanskiy nauchno-metodicheskiy jurnal. – Xarkov, 2007. № 2-3 (33). – S. 3-7.
3. Babenko L.G. Konsept i konseptosfera v aspekte modelirovaniya // Mejdunar. kongress po kognitivnoy lingvistike: Sb. materialov 26-28 sentyabrya 2006 goda / Otv. red. N.N. Boldыrev; Federalnoye agentstvo po obrazovaniyu, Tamb. gos. un-t im. Derjavina G.R. – Tambov: Izd-vo TGU im G.R. Derjavina, 2006. – S. 39-42.
4. Babushkin A.P. Perevod realiy v svete problem kognitivnoy semantiki // Problemy kulturnoy adaptatsii teksta. – Voronej, 1999.
5. Baranov A.N. Postulaty kognitivnoy semantiki // Izvestiya AN. Ser. lit. i yaz. – M., 1997. T. 56 (1).
6. Belyanin V.P. Osnovy psixolingvisticheskoy diagnostiki: modeli mira v literature / Belyanin V.P. – M.: Trivola, 2000. – 248 s.
7. Butakova L.O. Kognitivnaya poetika: variant interpretatsii teksta // Predlojenije i slovo. Mejevuz. sb. nauchn. trudov. – Saratov: Izd-vo Sarat. un-ta, 2002. – S. 74-80.
8. Bydina I.V. Issledovaniye poeticheskogo teksta v kognitivno-kommunikativnom aspekte // Izvestiya VGPU. Ser.: Filologicheskiye nauki. – Volgograd, 2005. № 3 (12).
9. Demyankov V.Z. Kognitsiya i ponimaniye teksta / Demyankov V.Z. // Voprosy kognitivnoy lingvistiki. 2005. № 3. – S. 5-10.
10. Zolotых L.G. Kognitivno-kommunikativnye priznaki poeticheskogo idioshtilya // Vestnik TGPU. Выр. 5 (56). Seriya: Gumanitarnye Nauki, 2006. – S. 84-92.
11. Krasных V.V. Ot konsepta k tekstu i obratno. K voprosu o psixolingvistike teksta // Vestnik Mosk. un-ta. Ser. 9: Filologiya. 1998. №1. S. 53-70.
12. Kratkiy slovar kognitivnyx terminov / Pod obshchey redaksiyey Kubryakovoy Y.S. – M.: Filol. f-t MGU im. M.V. Lomonosova, 1997. – 245 s.
13. Krasных V.V. Osnovy psixolingvistiki i osnovy kommunikatsii / Krasных V.V. – M.: ITDGK Gnozis, 2001. – 164 s.
14. Lotman Y.M. Vnutri mysluyashix mirov. Chelovek –tekst – semiosfera – istoriya. – M.: Yazыki russkoy kultury, 1996. – 464 s.
15. Luzina L.G. Kognitivnye prinsipy // Kratkiy slovar kognitivnyx terminov. – M., 1996a. – S. 78-79.
16. Mostovskaya I.Y. Tekst: sistema ili sistemnost? // Mejdunar kongress po kognitivnoy lingvistike: Sb. Materialov 26-28 sentyabrya 2006 goda / Otv.red. N.N. Boldыrev; Federalnoye agentstvo po obrazovaniyu, Tamb. gos. un-t im. Derjavina G.R. – Tambov: Izd-vo TGU im Derjavina G.R. 2006. – S. 481-483.
17. Novoselseva V.A. O sootnoshenii ponyatiy «soderjaniye xudojstvennogo konsepta» i «leksicheskoye znachenije xudojstvennogo slova» // Problemy verbalizitsii konseptov v semantike yazыka i teksta: Materialy mejdunar. simpoziuma. – Volgograd, 22-24 maya 2003 g. CH.2. Tezisy dokladov. Volgograd: Peremena, 2003. – S. 26-28.



Faridaxon HAMRAQULOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti
E-mail: farida23@mail.ru

FarDU katta o'qituvchi, f.f.d. Sh.Yusupova taqrizi asosida

HUMORS AS A MEANS OF INCREASING INTERCULTURAL COMMUNICATIVE COMPETENCE

Annotation

This article deals the importance of humor in the development of intercultural communicative competence in the educational process, on the basis of theories and examples of scientists.

Key words: Humor, intercultural competence, national and cultural values, norms of behavior

ЮМОР КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются важность юмора в развитии межкультурной коммуникативной компетенции в образовательном процессе на основе теорий ученых и примеров.

Ключевые слова: Юмор, межкультурная компетентность, национально-культурные ценности, нормы поведения

YUMORLAR MADANIYATLARARO KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI OSHIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

Annotasiya

Ushbu maqolada yumorning ta'lim jarayonida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati olimlar nazariyalari va misollar asosida o'rganildi.

Kalit so'zlar: Yumor, madaniyatlararo kompetensiya, milliy va madaniy qadriyatlar, xulq-atvor normalari

Kirish. Yumor adabiyotda ma'lum bir lingvistik va madaniy muhitning milliy va madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi janrlaridan biri sanaladi. Yumor matni darajasida xulq-atvor normalari, an'anaviy dunyoqarash va ijtimoiy-psixologik munosabat va etnik e'tiqodlar belgilanadi. Yumorlar ko'p qirrali hodisa bo'lib, u lingvistik, semiotik, adabiy, madaniy, tarixiy-siyosiy, sosiologik, estetik va psixologik tahlil mavzularida bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda yumor fanlararo o'rganish obyekti hisoblanib, uning nazariyasi so'z o'yini sifatidagi qarashlarga asoslanadi. Uning mohiyati, shakllari va qo'llash usullarini o'rganish ijtimoiy-falsafiy bilimlarni sezilarli darajada boyitishi, shuningdek, kommunikativ amaliyotni takomillash-tirishga hissa qo'shishi mumkin. Yumorning ijtimoiy-madaniy kontekstda xilma-xil, noodatiy ko'rinishlariga emas, balki hayotimizning aksariyat sohalarida tobora sezilarli bo'lib borayotgan hodisalarning pragmatik ahamiyatini aks ettirishiga ham e'tibor qaratish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yumorning tahlil obyekti sifatida tanlanishi uning muloqotdagi madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati bilan bog'liq. Uzoq vaqtlar davomida yumorlar badiiy adabiyotda o'rganib kelingan. Shuningdek, yumorlarni M.M. Baxtin, Dj. Morreal, A. Kyostler, A.B. Karasik, E. Lendvai, O.A. Chirkova, E.Ya. Shmeleva, V.D. Shmelev, E.H. Abdrazzaqova, kabi olimlar struktur-funksional, pragmatik, kommunikativ funksiyalari va psixolingvistik parametrlarini tadqiq qilganlar. Lekin yumorlarni ta'lim jarayonidagi madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish xususiyati to'liq ochib berilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Madaniyatlararo kommunikativ komptensiyani shakllantirish uchun yumorlardan foydalanish ularning mohiyatini chuqur anglashni talab etadi, albatta. Yumorlarning turlari juda xilma-xil bo'lib, shuni ta'kidlash kerakki, uning ishlatilishi turli funksional uslublarda turlichadir.

Tahlil va natijalar. Chet tilini o'rganish bugungi kunda barcha sohada zarur bo'lgan talablar doirasiga kirgan. Chet tilini o'rganish, nafaqat, o'zga tilni balki o'sha til madaniyatini, urf-odatini o'rganishni taqozo qiladi.

N.D.Galskova "har qanday til ta'limi natijasida shakllangan lingvistik shaxs bo'lishi kerak va chet tillari sohasidagi ta'lim natijasi – ikkilamchi lingvistik shaxsini insonning madaniyatlararo muloqotda to'liq ishtirok etish qobiliyatining ko'rsatkichi sifatida" deb izohlaydi[1]. Tilni o'rganuvchi talaba yakunlovchi bosqich o'quv jarayonida madaniyatlararo muloqot ko'nikmalariga, kasbiy kompetensiyaga ega bo'lib, ichki va xalqaro mehnat bozorlarida raqobatbardosh bo'lib etishgan bo'lishi zarur. Madaniyatlararo muloqot bu dinamik jarayon bo'lib, uning eng muhim shartlari chet tilidagi madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lish va uni amalga oshirish, aloqa subyektlarini kommunikasiyada ma'naviy va madaniy aspektlarini boyitishdir.

I.L. Plujnik "madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya-bu boshqa madaniyat vakillarining qarashlari va fikrlarini tushunish, o'z xulqini to'g'rilash, kommunikativ jarayonda nizolarni bartaraf qilish, turli qadriyatlar mavjudligi va ularning xuquq normalarni tan olish" deya ta'riflaydi[2]. Shuningdek, madaniyatlararo muloqot talabalardan ona vatani madaniyatiga oid bilimlar, hamda tilini o'rganayotgan mamlakat madaniyatiga oid bilimlarni hamda ular uchun yangi bo'lgan ekvivalentsiz leksika bilimlarini o'rganishini talab etadi.

Xalqlar madaniyatini o'rganishda uning turli adabiy janrlari ham o'z o'rniga ega. Kommunikativ jarayonda ulardan insonlar yumorlarni qo'llaydilar. Hazil har qanday millat madaniyatining eng muhim elementlaridan biri sanaladi. Chet tili darslarida yumorlarni o'rganish o'rganilayotgan til madaniyatini chuqurroq anglashga, kommunikativ kompetensiyani to'g'ri shakllanishiga yordam beradi.

"Yumor" so'zi turlicha talqin qilinadi. Tor ma'noda kulgili, quvnoq holatlarni baholovchi, keng ma'noda faqat insonga xos bo'lgan kommunikativ jarayonda verbal va noverbal shakllarda namoyon bo'luvchi, shuningdek, komik so'zining sinonimi sifatida ijodning bir turi deb ta'riflanadi[3].

Fransuz tilida yumorlar juda ko'p qo'llaniladi. Yumorlar fransuz adiblari Fransua Rable, Jan de Lafonten, Jan-Batist Moler, Alfons Allelardan boshlanib, to hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Hozirgi zamon fransuz tilida

karikaturalarda yumorlani aks etishini kuzatishimiz mumkin. Fransua Kavanna va karikaturachi Sine va Plantyu yumorlari faqat, fransuzlargagina emas, boshqa xalqlar uchun ham ta'sir etadi. Fransuz yumoristlari o'z dunyoiarashlari bilan ajralib turadi. Fransuz yumorlari cheksiz va serqirradir. Butun dunyo kino muxlislari Lui du Funes va Per Rishard kabi komik qahramonlar ijrosidan bahramand bo'lib, fransuzlarning kundalik hayoti, yashash tarzi, qiziqishlaridan boxabar bo'ladilar. Shuningdek, fransuz replikalari, klisheolarini ham o'rganish mumkin:

Un chacal – deux... ? Le propriétaire d'un zoo écrit à un fournisseur en Afrique: «Cher monsieur, veuillez me faire expédier deux chacals». Il relit la lettre, il réfléchit, puis il la déchire et en écrit une autre: «Cher monsieur, veuillez me faire expédier deux chacaux». Il regarde ce qu'il a écrit: le pluriel lui paraît étrange. Et il fait une troisième lettre: «Cher monsieur, veuillez me faire expédier un chacal. Post-scriptum. Ajoutez un chacal au premier»[4]. Shuningdek, talabaga yumorlarni davom ettirishga undash ham ularning fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Fransuz yumorining tabiati o'ziga xos bo'lib, unda so'z o'yini qo'llaniladi. Fransuz yumorlarini tarjima qilish shu jihatdan qiyinchilik tug'diradi. Fransuz yumorlari yaxshi kayfiyat bag'ilashga xizmat qiladi. Boshqa tillarda bo'lgani kabi yumorlar markazida inson turadi va insonlarga xos bo'lgan xislatlar kulguga olinadi. Bunda insonlardagi ijtimoiy kamchiliklar nazarda tutiladi.

Yumorlar lingvokulturologik xususiyat kasb etishi bilan xam ahamiyatlidir. Fransuz yumorlarini tushunish uchun uning madaniyatini bilish talab etiladi. Bunda tinglovchini yumorlarni tushunishda murakkablik paydo bo'ladi. Tinglovchi fransuz urf-odatlarini, qadriyatlarini Fransiya tarixi, turmush tarzi, odob-ahloq normalarini bilishi bilan yumorlarni tushuna oladi.

Shuningdek, o'zbek yumorlari ham fransuz yumorlari kabi so'z o'yiniga boy. Lekin ularning lingvokulturologik xususiyatlari o'ziga xos bo'lib turlicha namoyon bo'ladi.

Jurnalist futbol terma jamoasi a'zosi dan so'z berdi:

— Siz bu kasbdan nimalarga erishdingiz va kelajakda nima rejalaringiz bor?

— Men bu kasbim orqasidan Dubay, Avstraliya, Yaponiya, Xitoy, Qatar va ...larga sayohatlar qildim. Kelajakda Yevropa bo'ylab sayohat qilib, ...

— Orzularingiz cheksiz ekan. Endi futbol mavzusiga qaytsak, - debdi jurnalist.

O'zbek tilida turli mavzuda juda ko'p yumorlar xalq tomonidan tuzilgan bo'lib milliylik aks ettiradi. Bunda yumorlarni sohalarga bo'lib tasniflab o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Zamonaviy sohalarga taalluqli bo'lgan yumorlarga quyidagi misolni keltirsak:

Vrach qabuliga kirgan qari otaxon shikoyat qilmoqda:

— Bolam, mazam yo'q! Bittasini yuklayman, ikkinchisini yuklayman, uchinchisini yuklay boshlaganimda tobim qochadi...Vrach hayron bo'lib:

— Otaxon, men yosh bo'la turib shuncha kuchim yo'q. Siz nega og'ir yuk tashib yuribsiz? – debdi.

Otaxon:

— Qanaqa yuk? Men internetdan filmlarni yuklab o'tiraman!

Yumorni o'ziga xos milliy spesifikasi mavjud bo'lgani uchun milliy mentalitetni o'rgangach uni to'g'ri talqin etiladi. Ko'pincha yumorlarni aks ettiruvchi so'zlar so'z o'yinida yashiringan bo'lishi ham mumkin. Agar bu holat lingvistikada to'g'ri talqin etilmasa komik ma'no chiqmasligi mumkin. E.M. Aleksandrova til o'yinini til e'lementlarining noodatiy qo'llanishi deya ta'riflaydi[5].

Yumorlar, komikslar, yumoristik hikoyalar til o'yinlari manbai sanaladi. Masalan, grammatik materialga oid yumorlardan foydalanish mumkin. Masalan: C'est l'histoire de la maîtresse qui demande à Toto : « Récite-moi le verbe marcher au présent. » Toto répond « Je...marche...tu...tu...marches... », mais la maîtresse le presse, allez, plus vite Toto! Ce à quoi il répond « Euh...je court euh...tu cours... il court... → Ўқитувчи Тотодан сўради: "Menga hozirgi zamonda yurmoq fe'lini tuslab ber". Toto javob berdi: "men yuryapman... sen.. sen... yuryapsan...", lekin o'qituvchi uni shoshiltirdi, "tezroq javob ber Toto!" Mana u nima deb javob berdi: "... men yuguryapman, ... sen yuguryapsan..., u yuguryapti..."

Bunda talaba darsni o'zlashtirish bilan birga qiziqishi ortadi. Shuni ta'kidlash kerakki so'z o'yini bu ijodiy jarayon bo'lib, til me'yorlaridan chekingan holda pragmatik va uslubiy ma'nolarini aks etishidir. Yumorlarni chet tili darslarida qo'llash til o'rganuvchilarni ushbu muhitga moslashga imkoniyat beradi. Bu o'z navbatida insonlarning fe'l-avtori, turmush tarzi, kasb-hunari haqida ma'lumot olishga ham qaratiladi.

Yumorlardan chet tili darslarida foydalanish fanlararo uzviylikni ta'minlaydi. Shuningdek, darsni jonlantiruvchi vosita sifatida ham foydalaniladi. Bunda darsning kirish qismida fanga oid yumorning qo'llanilishi ham darsni jonlantiradi, ham nimaga ahamiyat berish kerakligi haqida ma'lumot olinadi. Dars jarayonida yumorlardan foydalanish, ayniqsa, grammatik, stilistik, fonetik xatolarni o'z ichiga olgan yumorlar tinglovchida lingvistik kompetentsiyani to'g'ri shakllantirishda ahamiyatli sanaladi. Demak, yumor o'quv materialni tez o'zlashtiruvchi vosita hamdir. Yumorlar tahlilida hamma o'z fikrlarini xulosa o'rinda keltirishi mumkin. Yumorlar yangilanib ham boradi. Bunda tilda yangi ijodiy mahsulotlarni yaratish orqali insonlarga muammolariga echim topishida ijobiy o'rin egallaydi[6].

Xulosa. Yumorlarni ta'lim jarayonida qo'llash haqida gapirilganda, o'quv jarayonida yumoristik materiallardan foydalanish madaniyatga oid bilimlarni oshirish bilan birga fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi, bunda lingvistik ko'nikmalar ham shakllanib, hissiy-ekspressiv funktsiyalar va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Chet tili turli jabhalarda zarurligi ta'kidlanar ekan, yumorlarni ham kasbga oidlari farqlanadi. Bunda kasbiy madaniyat ko'nikmasi shakllanishida yumor motivasion omil bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Гальскова Н. Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика: учеб. пособие. М.: Академия, 2005. 336 с.
2. Плужник И.Л. Формирование межкультурной коммуникативной компетенции студентов гуманитарного профиля в процессе профессиональной подготовки: автореф. дисс. ... д. пед. н. Тюмень, 2003. 29 с.
3. Остроумова О.Ф. Использование французского юмора для формирования межкультурной коммуникативной компетенции студентов языкового вуза. www.gramota.net/materials/2/2014/9-1/35.html.
4. Остроумов А.И., Остроумова О.Ф. Креативность и креативное обучение как слагаемые модернизации образования в России // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2013. № 2 (28). Ч. 1. С. 149-153.
5. Попова И.Н., Казакова Ж.А., Ковальчук Г.М. Французский язык: учебник для I курса ин-тов и фак-тов ин. яз. М.: Нестор Академик, 2009. 576 с.
6. Александрова Е.М. Языковая игра: механизмы создания и способы перевода (на материале французских анекдотов): учеб. пособие. М.: Изд-во КДУ, 2012. 124 с.



Parvina XOTAMOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi
E-mail: Xotamova-p@samdchi.uz

SamDChTI dotsenti, f.f.n. U.U.Usmonov taqrizi asosida

POSESSIVLIK KATEGORIYASINI TADQIQ QILISHDA FOYDALANILADIGAN LINGVISTIK METODLAR

Annotatsiya

Jahon tilshunosligida gapning sintaktik tahlili borasida tilshunoslarning turlicha yondashuvlarining guvohi bo'lish mumkin. Bir qator tilshunoslarning amaliy va nazariy grammatikalari qamrovida gap strukturasi sintaktik tahliliga e'tibor qaratilganda, ular gap tarkibida ishtirok etgan sintaktik birliklarni bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratib tahlil qilishni e'tirof etadilar.

Kalit so'zlar: Qiyosiy, differensial, sistema, qiyosiy-tipologik, genetik tipologiya, morfologik, leksik, sintaktik, areal.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРИЕМЫ, ИСПОЛЗУЕМЫЕ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ ПОСЕССИВНОСТИ

Аннотация

В мировой лингвистике можно наблюдать различные подходы лингвистов к синтаксическому анализу предложения. Сосредоточив внимание на синтаксическом анализе структуры предложения в рамках практических и теоретических грамматик ряда лингвистов, они признают анализ синтаксических единиц, участвующих в структуре предложения, путем разделения их на главные фрагменты и второстепенные фрагменты.

Ключевые слова: Сравнительная, дифференциальная, системная, сравнительно-типологическая, генетическая типология, морфологическая, лексическая, синтаксическая, ареальная.

LINGUISTIC METHODS USED IN THE STUDY OF THE CATEGORY OF POSSESSIVENESS

Annotation

In World linguistics, one can witness different approaches of linguists regarding the syntactic analysis of a sentence. When focusing on the syntactic analysis of the structure of a sentence in the scope of practical and theoretical grammars of a number of linguists, they recognize the analysis of syntactic units involved in the structure of a sentence by dividing them into head fragments and secondary fragments.

Key words: Comparative, differential, systemic, comparative-typological, genetic typology, morphological, lexical, syntactic, areal.

Kirish. Qiyosiy yoki chog'ishtirma tilshunoslik mustaqil nazariy va amaliy fan bo'lib, u qardosh bo'lgan va qardosh bo'lmagan tillar tizimining barcha sathlarini qiyosiy o'rganishga imkon yaratadi. Ammo hozirgi paytgacha ushbu predmet haqida tilshunoslar tomonidan bir to'xtamga kelinmagan.

A.Meyening fikricha "qiyosiy grammatikada asosiy til tizimi va uning rivojlanish jarayoni o'rtasidagi tillar tizimida bog'lanish mavjud. Qiyosiy tuzish – imkoniyati boricha aniq elementlarni qiyoslab o'rganish, ularning rivojlanishini bosqichma-bosqich qiyoslash hamda ularni differensialab borish natijasida vaqtning o'tishi bilan nutqda paydo bo'layotgan shakllarni o'rganishdir. Qiyosiy grammatika tilni izchillik va farqlovchi tomonlarini kuzatishlar, aniq bog'lanishlar bilan aloqador bo'lishi mumkin. Hozirgi davrgacha qiyosiy-tipologik tadqiqotlar Hind-Evropa tillarida keng qo'llanildi" [1].

F.F.Fortunatov "F.Bopp Hind-Evropa tillarini qiyosiy o'rganishni yaratdi. U bu tillarning o'zaro qardoshligini, ularning kelib chiqishini sistemali qiyoslash yo'li bilan isbotladi va uning asosida grammatik faktlarni qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganish muhim rol o'ynaydi" [2], deya ta'kidlagan.

Bu masalada E.A.Makayev quyidagicha bog'liqliklarni hisobga olishning muhimligini ta'kidlaydi:

1. Qiyosiy-tarixiy;
2. Tarixiy-chog'ishtirma;
3. Tipologik grammatika [3].

Lingvistik tipologik tadqiqot ob'ektiga ko'ra J.Buranov qiyosiy tipologiyani quyidagi bo'limlarini

farqlaydi: "a) genetik tipologiya; b) areal tipologiya; v) qiyosiy tipologiya; g) struktur tipologiya" [4].

Lingvistik tipologiya ifoda planidan kelib chiqqan holda formal tipologiyani, mazmun planidan kelib chiqib semantik tipologiyani o'z ichiga oladi. Lingvistik tipologiya tanlangan tadqiqotning til materiali va til sathiga bog'liqligiga ko'ra quyidagi til qatlamlaridan tashkil topadi: fonologik, fonetik, morfologik, leksik va sintaktik.

I.I.Meshaninov (1958), T.Milevskiy (1963), C.E.Bazell (1956), N.Chomsky (1971) va boshqalar sintaktik tipologiyaga oid ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Demak, tilshunoslikda qiyosiy-tipologik tadqiqot metodlaridan uzoq davrlar mobaynida foydalanilayotganligi ayni haqiqat, keyingi yillarda ham ular katta ahamiyatga egaligini namoyon etmoqda. Turli tizimli tillarni qiyosiy tadqiq qilish B.A.Uspenskiyning ta'riflashicha, "barcha tillarga xos bo'lgan izomorf ko'rinishlarni aniqlashdir" [5].

Turli tizimli tillar doirasida qiyosiy tahlil qilish orqali juda ko'p differensial belgilarni aniqlash mumkin. Ta'kidlash joizki, tipologik nuqtai nazardan qiyoslash jarayonida differensial belgilarni sistemalashtirishda til sathini bir-biridan chegaralash maqsadga muvofiqdir. Ma'lum til materialini qiyosiy o'rganishda tadqiqot uchun tanlangan ob'ektni sintagmatik va paradigmatic jihatdan chegaralash mumkin, ya'ni bunda umumiy til sistemasidan bir qancha quyi sistemalar sintagmatik va paradigmatic chegaralash jarayonida ajratiladi.

I.I.Mechaninov ta'biri bilan aytganda "gap bo'laklari universal kategoriya sifatida ishtirok etadi" [6], S.E.Bazell esa til sistemalarini qiyoslashda morfologik sath bilan sintaktik sathni qo'shib olib boradi [7].

T.Milevskiy tillarni farqlash jarayonida ulami konsentrik gaplarga ega bo'lgan tillar va ekotsentrik gaplarga ega bo'lgan tillarga ajratadi [8], Ye.Kurilovich tillarda erigativ konstruksiyalarni tadqiq qilsa [9], N.Z.Gadjiyeva agglyutiniatsiyaning o'zaro munosabatlari muammosiga va turkiy tillarning sintaktik qurilishiga e'tiborini qaratadi [10], V.S.Xarakovskiy esa sintaktik munosabatlarni sintaktik qatlamda tadqiq qilishda aniq tamoyillarga diqqatini qaratadi, chunki ushbu sintaktik munosabatlar gap tizimi va uning qurilmalarini tashkil etadi [11].

L.D.Gergadze ingliz tilida tarkibli ot-kesimning umumiy xususiyatlariga e'tibor qaratadi va uni gruzin tiliga tarjima qilish usullariga to'xtalib, shunday xulosaga keladi: "tarkibli ot-kesim gruzin tiliga sodda fel-kesim bo'lib tarjima qilinadi, bog'lama fel o'rnida become kelganda, predikativ vasifasidagi birlik sifat yordamida ifodalanadi. Qolgan holatlarda tarkibli kesim gruzin tiliga tarkibli kesim bo'lib tarjima qilinadi [12].

Tillarni qiyosiy tipologik jihatdan o'rganishning rivojlanish tarixiga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, jumladan, O'zbekiston Respublikasida ingliz-o'zbek, ingliz-qoraqalpoq, nemis-o'zbek, ingliz-o'zbek-rus, nemis-o'zbek-rus, fransuz-o'zbek tillarini qiyosiy o'rganish faol rivojlanganining guvohi bo'lamiz. O'.Q.Yusupovning ta'kidlashicha, "Buning asoschisi Maxmud Qoshg'ariy hisoblanadi. Atoqli tilshunolar Ye.D.Polivanov, A.A.Abdudzizov, J.Bo'ronov, O'.Q.Yusupov, M.A.Abdurazzoqov, M.J.Jusupov, M.Rasulovlar bu soha rivojiga katta hissa qo'shishdi" [13]. Jumladan, tillarni qiyosiy o'rganishda muhim natijalarga erishildi. J.Bo'ronov tomonidan qiyosiy tilshunoslikning nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo'lsa [4], O'.Q.Yusupov esa aniq tillar misolida qiyosiy-tipologik lingvistikaning nazariy asoslarini yaratib, qiyosiy tahlil jarayonida o'n sakkiz parametrga e'tibor berish lozimligini ta'kidlaydi [14].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, shunday xulosalarga kelish mumkin: Turli tizimli tillar sistemasini qiyosiy o'rganish bir tomonlama bo'lsa, ikkinchi tomoni esa sof nazariy lingvistik sohasini qamrab olish bilan birga amaliy-uslubiy maqsadni ham o'z ichiga oladi hamda tadqiqot jarayonida nazariya bilan amaliyot o'rtasida yaqin bog'lanishni vujudga keltiradi, ayniqsa, turli tizimli tillarni o'rganishda ona tili bilan chet tili o'rtasidagi o'xshashlik va noo'xshashlik tomonlarini inventarizatsiya qilish chet tilini chuqurroq o'rganishga va tushunishga katta imkoniyat yaratadi. Tillarni qiyosiy o'rganishda bunday yondashuv metodi til rivojlanishida, qiyoslanayotgan tillar bir-birini boyitishda, hamda tillararo aloqalarini, ularning qardoshligi va qardosh bo'lmagan darajalarini atroflicha o'rganishga imkoniyat yaratadi.

An'anaviy grammatikachilar o'rtasida sintaktik aloqalar bahstlab masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Aksariyat tilshunolar sintaktik aloqalar deganda moslashuv, bitishuv va boshqaruvlarni e'tirof etishadi [15]. Ular tomonidan e'tirof etilgan sintaktik aloqalar universal xarakterga ega emas, chunki gapning sintaktik tahlili jarayonida mazkur sintaktik aloqalar umuman nazardan chetda qoladi. Ular til materiali asosida kuzatilganda, moslashuv morfologik aloqa, bitishuv va boshqaruv leksik aloqa ekanligi aniqlanadi.

Hozirgi zamon tilshunosligida gapning distributiv tahlilmetodi, bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi, transformatsiya, substitutsiya, komponentlarga va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish metodlari mavjud. Tadqiqot jarayonida lingvistik metodlardan to'g'ri va unumli foydalanilganda, til sathlarini bir-biridan farqlash, ularning o'zaro munosabatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Masalan, distributiv tahlil metodidan foydalanishda, uning uch qirrasini farqlash kerak bo'ladi:

- a) Qo'shimcha yoki to'ldiruvchi distributsiya;
- b) Qiyosiy qarama-qarshilik distributsiyasi [16];

v) Erkin almashtirish distributsiyasi [17].

Distributiv tahlil metodi tilning morfologik sathida kengroq qo'llanishi mumkin. Sintaktik sathda esa alohida olingan so'z shakllarining gap tarkibida o'zaro joylashishi emas, balki guruhga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Bunday talab tadqiqot materiallarini ma'lum darajadaoldindan qayta ishlashni taqozo qiladi. Hozirgi zamon tilshunosligida ushbu metoddan sintaktik sathda gap qurilmasida tanlangan sintaktik birliklarning o'rnini aniqlash, komponentlarga va sintaktiksemalarga ajratib tahlil qilishda keng foydalanish mumkin.

Bevosita ishtirokchilarga ajratib tahlil qilish metodidan foydalanilganda, asosan gap tahlili sintaktik sathdan boshlab, tilning quyi sathiga, ya'ni morfologik sathga qarab davom ettiriladi [18]. Bu metod asosida tahlil olib borilganda gap tarkibida egalik kategoriyasini ifodalovchi sintaktik birliklarning semantik maydonini aniqlashda ijobiy natijaga erishish qiyin. Ushbu metod asosan sintaktik sathda gap tarkibidagi sintaktik birliklarni avval eng katta ishtirokchilarga keyin eng kichik ishtirokchilarga ajratib, ularning morfologik xususiyatlarini modellashtirish usuli yordamida izohlanadi. Bunday usul bilan ilmiy natijalarga erishib bo'lmaydi.

A.Muxin gap strukturasi komponentlar va sintaksimalarga ajratib taxlil qilish metodini ishlab chiqdi. Qayd etilgan lingvistik metod uning izdoshlari tomonidan til birliklarini sintaktik sathda differensial sintaktik hamda sintaktik-semantik belgilarini aniqlash va ularni qiyosiy funksional tadqiq etishda keng joriy etilmoqda [19].

Ta'kidlash joizki, komponentlarga ajratib tahlil qilish tilning leksik sathida qo'llanilganda, D.N.Seliverstovning fikricha "leksik birliklarning ma'nolari, sinonimlari, variantlari lug'atda va kontekstda aniqlanadi" [20].

Mazkur ishimizda ingliz va o'zbek tillarida egalik kategoriyasini ifodalovchi elementli gaplarni komponentlarga ajratib taxlil qilishda ularning sintaktik aloqalarini aniqlab, komponentlarning differensial sintaktik belgilarini hamda ularning gapdagi sintaktik o'rnini aniqlash sintagmatik yo'nalishda qarama-qarshi qo'yish yoki kontrast usuli orqali amalga oshiriladi. Gap tarkibidagi sintaktik birliklarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda, avvalambor, kategorial differensial sintaktik-semantik belgilar aniqlanib, ular asosida ushbu birliklarning gap tarkibida tutgan o'rniga qarab nokategorial belgilar ochib beriladi. Sintaksemalarni aniqlashda tahlil qilinayotgan gapdan tashqari, boshqa gap tarkibidagi bir xil o'rinda kelgan sintaktik birliklarning funksional maqomi ham qiyoslanadi. Bu o'rinda prof. A.M.Muxinning quyidagi fikrini eslatish lozim: "Gap strukturasi komponentlarga ajratib, ya'ni sintaktik birliklarning sintaktik aloqalarini aniqlash hamda ularning bir-biridan farqini ochib tahlil qilish struktural sintaksisning ob'ekti hisoblanadi. Gapdagi sintaktik birliklarni paradigmatic yo'nalishda sintaksemalarga ajratib tahlil qilish funksional sintaksisning asosiy vazifasiga kiradi" [21].

Gaplarni lingvistik metodlar yordamida tahlil qilish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: birinchidan, gap tarkibidagi sintaktik birliklarning shakliy va mazmuniy xususiyatlarini o'rganish mumkin; ikkinchidan, gaplarni sintaktik va semantik jihatdan tasniflashni asoslab beradi; uchinchidan, gap tarkibidagi birliklarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilish jarayonida sistem munosabatlarni sintaktik qatlamda o'rganishga da'vat etadi. Chunki har bir sintaksemaning paradigmatic qatorini aniqlashda taqqiqotchiga keng imkoniyat yaratadi; to'rtinchidan, modellashtirish va eksperiment metodlaridan foydalanishga keng yo'l ochib beradi. Shuningdek, sintaksemalarning sistem munosabatlarini, ularning variantlarini aniqlash turli tizimli tillarda egalik kategoriyasini qiyosiy tadqiq qilishga asosiy baza sifatida xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilganlar, bizning fikrimizcha, egalik kategoriyasi sistem tahlilining asosiy tamoyillari hisoblanadi.

Ushbu tamoyillarga rioya qilmaslik, tanlangan ob'ektni atroflicha talqin etmaslikka olib kelishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Maye A. Vvedeniye v sravnitelnoye izucheniye indoyevropeyskix yazykov. Moskva-Leningrad: Nauka, 1978, 216 s.
2. Fortunatov F.F. Sravnitelnoye yazykoznaniye (obshchiy kurs) – Izbrannye trudy, t. I. Moskva: Nauka, 1956, 446 s.
3. Makayev E.A. Sravnitelno-sopostavitelnaya i tipologicheskaya grammatika// Vopr. yazykoznaniya, Moskva: Nauka, 1964, № 1, S. 3-13.
4. Buranov D. Sravnitelnaya tipologiya angliyskogo i tyurkskix yazykov. Moskva: Vysshaya shkola, 1983, 268 s.
5. Uspenskiy V.A. Strukturnaya tipologiya yazykov. Moskva, Nauka, 1965, 286 s.
6. Мещанинов И.И. Tipologicheskiye sopostavleniya i tipologiya sistem// NDVSH, Filolog.nauki – Moskva, 1958, S. 3-13.
7. Bazell C.E. Syntactic relations and Linguistic typology. Longman, 1956, 148 p.
8. Milevskiy T. Predposylki tipologicheskogo yazykoznaniya// Issledovaniya po strukturnoy tipologii AN SSSR – Moskva, 1963, 280 s.
9. Kurilovich B.A. Ocherki po lingvistike, Moskva: Nauka, 1963, 168s.
10. Gadjiyeva N.Z. Agglyutinatsiya kak opredelyayushchiy faktor razvitiya sintaksicheskoy struktury tyurkskix yazykov// Problemy yazykoznaniya. Moskva, 1967, S. 14-25.
11. Хракoвский V.S. Некoтoрые проблемы синтаксической типологии// Acte University Carolinae – philological, 1974. S. 4-12.
12. Gergadze L.D. Sostavnoe imennoe skazyuemye v sovremennom angliyskom yazyke i yego ekvivalenty v gruzinskom yazyke // Avtoref. diss.... kand. filol. nauk, Tbilisi, 1955, 28 s.
13. Yusupov U.K. Razvitiya sravnitel'nogo yazykoznaniya v Uzbekistane. Qiyosiytilshunoslik: An'analarda istiqbol. Prof. Nusharov M.M. Xotirasiga bag'ishlangan respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. Samarqand, SamDChTI, 2006, B. 16-19.
14. Yusupov U.K. Teoreticheskiye osnovy sopostavitel'noy lingvistiki, Tashkent: Fan, 2007, 126.
15. Pankratova S.M. K voprosu o sochetayemosti imyon sushchestvitel'nykh odnoy tematicheskoy gruppy s glagolami// Teoreticheskaya grammatika germanskix i romanskix yazykov, vyr.2, Irkutsk: IPIYA im. Xo Shi Mina, 1973, S. 53-59.
16. Bushuy T.A., Safarov Sh. Til qurilishi: Tahlil metodlari va metodologiyasi. Toshkent: Fan, 2007, 274 b.
17. Buronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1973, 284 b.
18. Wells R.S. Immediate Constituents // Language. – Baltimore. – 1989, №23, №2, P. 14-88.
19. Muxin A.M. Struktura predlozeniy i ix modeley. Leningrad: Nauka, 1968, 230 s.
20. Seliverstova O.N. Komponentnyy analiz mnogoznachnykh slov. Moskva: Nauka, 1975, 240 s.
21. Muxin A.M. Funktsionalnyy sintaksis. Funktsionalnaya leksikologiya. Funktsionalnaya morfologiya. Sankt-Peterburg: 2007, 198 s.



UDK:821.161.1.09-1(575.1)(092)

Asila **CHORIYEVA**,
O‘zDJTU talabasi
E-mail: asilachoriyeva2002@gmail.com

PhD Z.Majid taqrizi asosida

THE MEMORY OF ALEXANDER ARKADEVICH FEINBERG WILL LIVE ETERNALLY

Annotation

In this article, the life paths and experiences of the Uzbek and Russian poet, prolific creator, translator, screenwriter, Alexander Arkadevich Feinberg is covered based on the information provided by his colleagues. And some events from the memorial night, which was held with a strong spirit and charm, are written. The purpose of writing the article is to appreciate the great works of the great artist and to introduce him to the public, to ensure that sufficient resources about the poet will be preserved for future generations.

Key words: Science, literacy, filigraphy, soulless discussion, epithet, comparisons, unbridled humor.

ПАМЯТЬ ОБ АЛЕКСАНДРЕ АРКАДЬЕВИЧЕ ФЕЙНБЕРГЕ БУДЕТ ЖИТЬ ВЕЧНО

Аннотация

